

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QURILISH VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT ARXITEKTURA-QURILISH INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida

UDK 72.02.025.5

TURSUNOV SIROJ UROLOVICH

**SHAHNISABZ SHAHRI TARIXIY MARKAZINI SAQLASH VA
KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING ILMIY LOYIHAVIY TAHLILI**

5A340103 - Shaharsozlik va qishloq aholi yashash
joylarini kompleks qurish

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Dissertatsiya ko'rib chiqildi
va himoyaga ruxsat berildi

Ilmiy rahbar: arx.n.dots.
Balgayev A.B.

"Arxitekturaviy loyihalash"
kafedrasi mudiri:
me'm.f.d. prof. Uralov A.S

Samarqand - 2018

MUNDARIJA

Kirish	3
I bob. Shahrisabz shaharsozligining vujudga kelishi va shakllanish xususiyatlari.....	8
1.1. Shahrisabz shahrining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari.....	8
1.2 Shahrisabz shahri markazining shakllanish xususiyatlari.....	16
1.3. Shahrisabz shahri me'moriy imoratsozlik ma'daniyati shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	24
I bob bo'yicha xulosa	32
II bob. Shaharlar tarixiy markazlarini saqlash va kompleks ruvojlantirish konsepsiyalarining ilmiy-loyihaviy tahlili.....	34
2.1. O'zbekiston shaharsozligida tarixiy markazlarni saqlash va rivojlantirishning ilmiy - loyihaviy yechimlari tahlili	34
2.2. Shahrisabz shaharsozligi va undagi me'moriy obidalar.....	44
2.3. Shahrisabz shahri bosh rejasida tarixiy markazlarning echimlari tahlili.....	55
II bob bo'yicha xulosa	65
III bob. Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks rivojlantirishning ilmiy loyihaviy tamoyillari.....	66
3.1. Shahrisabz shahri tarixiy markazini rejalashtirish loyihasi tahlili.....	66
3.2. Shahrisabz shahri tarixiy markazini qayta tiklash loyiha taklifi.....	74
3.3. Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks rivojlantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish.....	79
III bob bo'yicha xulosa	85
Umumiy xulosa.....	86
Adabiyotlar ro'yxati.....	87
Ilovalar.....	92

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi. Mustaqillikga erishganimizdan keyin xalqimizning o'z yurti, tili, madaniyati, qadriyatlari tarhini bilishga, o'zligini anglashga qiziqishi ortib bormoqda. Bu-tabiiy hol. Odamzod borki, avlod-ajdodi kimligini, nasl-nasabini, o'zi tug'ilib voyaga etgan qishloq, shahar, xullas, Vatanining tarhini bilishni istaydi. Eramizgacha va undan keyin qurilgan murakkab inshootlar shu kungacha ko'rku-fayzini, mahobatini yo'qotmagan.

Tarixiy shaharlarni rivojlantirish muammosini samarali hal qilishda yodgorliklardan zamonaviy maqsadlarda foydalanish masalasi eng dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Tarixiy shahar markazlarini zamon talablariga muvofiq takomillashtirish va qayta tiklash, me'moriy yodgorliklar bilan yangi qurilishlarning o'zaro bog'lanishi muammosiga etarlicha keng yondashuvni talab qiladi. Bu muammo odatdagidek, shahar strukturasiga komplekslar, majmualar va alohida me'moriy yodgorliklarni kiritishga asoslanadi.

O'rta Osiyo xalq ijodida shaharsozlik me'morchiligini o'rganish, shakllantirish, ruvojlantirish, tarixiy obidalarni saqlash va kelajak avlodga meros qoldirish muhim ahamiyatga ega.

Qadim-qadim zamonlardan boshlab dunyo madaniyati taraqqiyotida, muhum o'rin tutib kelayotgan O'rta Osiyo me'morchiligiga qiziqish bugungi kunda ham nihoyat o'sib bormoqda. Ayni paytda yurtimizdagi tarixiy maskanlar o'zining qadimiyligi va mahobati bilan sayyohlarnin e'tiborini o'ziga jalb etib kelmoqda.

Shunday ekan, bugungi kunda mahalliy va hududiy madaniyatlar taraqqiyotiga e'tibor bermasdan turib, zamonaviy me'morchilik, shaharsozlik sohasini rivojlantirib bo'lmasligi hammamizga ma'lum. Chunki avvalo har bir milliy madaniyatni rivojlantirmasdan turib, umummilliy taraqqiyotga erishish mumkin emasligi ravshandir. O'tmish madaniyatimiz, tariximiz va san'atimiz ildizlarini chuqur tadqiq etmasdan taraqqiyotga erishish mumkin emas. Darhaqiqat, bugungi kunda milliy madaniyat va san'atimizning barcha sohalarini qayta

jonlantirish va takomillashtirish, ilg'or umuminsoniy qadriyatlarni astoydil o'zlashtirib borish bilan birga, o'zligimizni eng samarali milliy an'alarimizni saqlab qolish va rivojlantirish masalalari respublikamizda qabul qilingan milliy g'oya dasturiga ham kiritilgan.

Ushbu yo'lda Oliy Majlis tomonidan 30.08.2001 yilda “Madaniy yodgorliklarni saqlash va ulardan foydalanish” bo'yicha O'zbekiston Respublikasi qonuni qabul qilinib va shu bilan birga 04.04.2002 yilda “O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik Kodeksi” ishlab chiqildi. Bular yodgorliklarni saqlash, ta'mirlash va ulardan foydalanish bo'yicha qonun-qoidalarini o'z ichiga olgan.

Tadqiqot predmeti va obekti. *Tadqiqot predmeti:* Shahrisabz shahri shaharsozlik me'morchiligida tarixiy yodgorliklar, obidalar hamda tarixiy markazlarni saqlash va kompleks ruvojlantirish tamoyillarini tahlil qilish.

Tadqiqot ob'ekti: Shahrisabz shahri shaharsozlik me'morchiligida tarixiy yodgorliklar, obidalar hamda tarixiy markazlarni ilmiy ruvojlantirish bo'yicha yaratilgan, me'moriy, badiiy yechimlarni an'anaviy, milliy qadriyatlar uslubida shakllantirish, ruvojlantirish hamda landshaftlashtirish arxitekturasida yuzaga kelgan funktsiya va shakllari kiradi.

Tadqiqot maqsadi va vazifalari. *Tadqiqot ishining maqsadi:* Shahrisabz shahri tarixiy markazlari hamda obidalarining milliy qadriyatlar asosida shakllanish va rivojlanish tarixini o'rganish, o'rganilgan milliy tajribalar asosida, zamonaviy muhandislik, estetik va utilitar talablarga javob beradigan tarixiy obidalar hamda markazlar loyihasini yaratish, mukammal milliy, tarixiy inshootlarimizni saqlash va kompleks ruvojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish va uning loyihasini yaratish.

Dissertatsiyada qo'yilgan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalar qo'yilgan:

-Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirishda, tarixiy markazlarni shakllanish tarixini o'rganish;

- O'rta asrlarda Shahrisabz shahri shaharsozlik strukturasiidagi inshootlar, obidalar me'morchiligi hamda arxitekturasini tahlil qilish va o'rganish;
- Me'moriy bezaklar, tashqi fasadlar hamda asosiy qurilma devor bezaklarining arxitekturaviy tuzulishining ba'diiy yeshimlarini o'rganish;
- Temur va temuriylar davrida barpo qilingan inshootlarning shakllari, me'moriy bezaklari, ularning funksional xususiyatlarini tahlil qilish va aniqlash;
- Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirishni mukammal o'rganib, milliy qadryatlarimiz nomoyondasi bo'lmish obidalarimizni o'z holicha qayta tiklash, saqlash va kompleks ruvojlantirish loyihasini yaratish;

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari. Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirish tarixini o'rganish, grafik qayta tiklangan ishlar bilan tanishish va hozirgi zamon talablariga mos milliy qadryatlar asosida uning loyihasini yaratish hamda qayta tiklash. Kelajakda bundanda mukammal tarixiy markazlarni saqlash hamda kompleks ruvojlantirib, tarixiy yodgorliklarimiz hamda inshootlarimiz loyihasi ustida ilmiy ish qilish.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha qisqacha adabiyotlar tahlili. Muammoning o'rganilganlik darajasi-O'rta Osiyo shaharsozlik arxitekturasini va Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirish bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar qilingan. Jumladan, "Shahrisabz 2700. Ming yillar merosi" Toshkent, 2002. Masson M. E. Массон "Работы Кешской археолого-топографической экспедиции". ТашГУ(КАТЭ) "по изучению восточной половины Кашкадарьинской области". Массон М. Е. Пугаченкова Г.А. "Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке". Массон М. Е., Пугаченкова Г.А. "Шахрисабз при Тимуре и Улугбека". "Амир Темур жаҳон тарихида". " Ахмедов М. Қ. "Ўрта Осиё меъморчилиги тарихи". Манковская Л.Ю. "Архитектурные памятники Кашкадарьи". Манковская Л.Ю. "Типологические основы зодчества Средней Азии (IX- нач. XXв.)" . Мавлянов У.М. "Торговые и культурные связи Кашкадарьинского оазиса в (XVIII -XIX вв)". Нозилов Д. А. "Архитектура горных районов Узбекистана". Очилов И.Рахмонов Р. "Қашқадарё". Пўлатов Х.Ш. "архитектурно - планировочная структура традиционного

жилища". Пугаченкова Г.А., "Ремпель Л.И. История искусств Узбекистана". Э. Сулаймонов, Р. Буряков "Қарши-2700." Усмонов З.И. "Археологические изучение Шахрисабза // Шахрисабз. Часть I". "Ўзбекистоннинг Архитектура мероси". "Қадимги Кеш-Шахрисабз тарихидан лавҳалар". Пўлатов Х.Ш., Маматмусаев Т.Ш. "Архитектура ёдгорликларини таъмирлаш (лойиҳа)" фанидан мустақил ишни бажариш бўйича услубий кўрсатма" va boshqalar bu masalada ijod qilib bir qator ilmiy ishlar qilganlar. Bir qancha ilmiy tadqiqotchilar ustozlar tomonidan o'rganib grafik qayta tiklash ishlari amalga oshirilgan bulsada, Bugungi kunda Shaxrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirish etarli darajada bajarilgan emas, bugungi kungacha Shaxrisabz shahri tarixiy markazi o'z yechimiga to'laligicha ega emas.

Tadqiqotda qo'llanilgan uslublarning qisqacha tavsifi. Tadqiqot uslubi mavzuga tegishli tarixiy manbalar, maxsus ilmiy adabiyotlar, grafik materiallar, miniatyuralar va bizgacha saqlangan tarixiy inshoot hamda obidalarimizni o'rganib, ilmiy tahlil qilib, ularni umumlashtirish va shu asosda ilmiy xulosalar va takliflar ishlab chiqish, Shaxrisabz shahri tarixiy markazi qadimdan rivojlanib kelgan bo'lib, tarixiy inshootlar hamda obidalar san'ati va me'morchilik ishlarini tahlil qilish va ularni umumlashtirish, grafik qayta tiklash va uni kompleks ruvojlantirishdan iboratdir.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati. *Nazariy ahamiyati:* O'zbekiston arxitekturashunoslik fanida ushbu muammo yanada kengroq, ya'ni nafaqat O'rta Osiyo, balki Yaqin va O'rta Sharq islom mamlakatlari me'morchilik san'atida balki Shaxrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirish, tadqiq qilish mavzuning ilmiy natijalarini yanada takomillashtirishga qulay ilmiy imkoniyat yaratadi. *Amaliy ahamiyati:* Shaxrisabz shahri tarixiy markazlarni saqlash va kompleks ruvojlantirish, qayta tiklash imkoniyatining ilmiy asoslari yaratilganligidadir.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. *Ilmiy ishning yangiligi:* Olimlar tomonidan ushbu sohada yaratilgan ilmiy ishlarda tarixiy markazlar, obidalar uslubidagi milliy

tamoyillari etarlicha yaratilgan bo'lsada ammo bugungi kunda salkam VII asrga teng bo'lgan tarixiy inshootlarimiz hamda obidalarimiz chet el mamlakatlari nazariga o'zining me'moriy hamda tarixiy jihatlari bilan yorqin taasurot qoldirib kelmoqda. Shunday ekan bunday ko'hna asrlarga teng bo'lgan inshootlarimiz hamda obidalarimizni kelajak avlodga milliy an'analarimiz merosini o'z holicha etkazib berish, asrab avaylash va uni kompleks ruvojlantirish tadqiqotning ilmiy yangiligi hisoblanadi. Hozirga qadar nafaqat O'zbekistonda, balki O'rta Osiyo me'morchilik va shaharsozlik fanida “me'moriy” uslubdagi tarixiy markazlar hamda obidalarining me'moriy-rejaviy va landshaft echimlariga xos tamoyillar ilmiy yoritilib kelinmoqda, ammo bugungi kunda ularning kompleks ruvojlantirish me'moriy dasturi ishlab chiqilmagan. Shunday ekan Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirish, qayta tiklashning ilmiy imkoniyatlari yaratilmagan. Mazkur magistrlik dissertatsiya ishi Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks ruvojlantirish qadimiy o'tmish an'analarimiz hamda qadryatlarimiz o'tmishimiz buyukligidan dalolat beradi va bugungi kunda Shahrisabz o'zining qadimiyligi bilan turizmni ruvojlantirishga o'z hissasini qo'shadi.

Dissertatsiya tarkibining qisqacha tavsifi. Dissertatsiya mundarija, kirish, 3 ta bob, bobning 3 tadan paragrifi, boblarning xulosasi va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, jami 80 betdan tashkil topgan. Dissertatsiyaga 1ta jadval kiritilgan.

I-BOB. SHAHRISABZ SHAHARSOZLIGINING VUJUDGA KELISHI VA SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

1.1.Shahrisabz shahrining vujudga kelishi va rivojlanish bosqichlari

O'rta Osiyoning eng qadimgi shaharlardan biri bo'lgan Shahrisabz buyuk Amir Temurning muborak nomi bilan bog'liq shonli tarixga ega. Shahrisabz "Yashil shahar" toponimi ilk bor 1351-yilda chig'atoy xon Bo'yonqulixon nomidan zarb etilgan tangalarda uchraydi. 1352-yilda shu xon nomidan zarb qilingan tangalarda Kesh nomi ham bor. Shahar bir vaqtning o'zida ko'hna va yangi nomi bilan yuritilishi uchrab turadigan hol. [21]

Bu jihatdan Sharafiddin Ali Yazdiyning (XV asr birinchi yarmi) "Shahrisabz, uni turkiylar Kesh deb ataydilar" degan so'z e'tiborga loyiq. Aftidan, XIV-XV asrlarda ushbu nomlarning ikkalasi ham bu shaharga nisbatan baravar qo'llanilgan ko'rinadi. Lekin XIV asrga qadar shahar ehtimol, bitta nom bilan Kesh nom bilan atalgan bo'lsa kerak.

Kesh toponimi dastavval Zardusht Ka'basi deb atalmish joydagi Shopir I (242-273) bitiklarda uchraydi. Unda Shopir I o'z davlati chegaralarini, shu jumladan O'rta O'siyoda Kash (K9S), So'g'd va Shosh tog'larigacha yetib kelgan chegaralarni tasvirlaydi.


Ko'p tadqiqotchilar K9 S toponimini Qashqadaryo vodiysidagi Kesh bilan aynan bir joy, deb hisoblashadi, V.G.Lukonin esa bu joy Qoshg'ar bo'lishi mumkin deb ham taxmin qiladi.

Shu toponim yakka yakka olishuv tasvirlangan tangalaragi "KSh9KMR9Y"- "Kesh hukumdori", degan yozuvda uchraydi. Bu yozuv dastlab "Kushon hukumdori" deb noto'g'ri talqin qilingan. Kesh toponimi "KShKXW\$9 pwrpt" "Kesh hukumdori Axurat" so'z birikmasi tangalarda qayd etilgan. Bu hukumdorning ismi, ehtimol, 727 yilda qayd etilgan hukumdor Axubido nomiga mos keladi. [24]. Tyanshuda Kesh toponimi Kyusha shaklida 656-660 yillarga oid voqealarda qayd etilgan. Xuddi shu nom bu yerda VIII asr o'rtalarida hukumronlik qilgan Kesh hukumdori Ixrid fasllarida uchraydi. Shunday qilib, mazkur ma'lumotlar Kesh nomi mil.III asrdan VIII asrlargacha mavjud

bo'lganligidan guvohlik beradi, biroq bu mazkur toponim mil. III asrdan oldin qo'llanilmagan, degan ma'noni bermaydi.

Musulmon manbalarida ilk bor Kesh nomi dastavval VI asr oxiri va VII asr boshlarida qo'llanilgan.[21]

Shahrisabz shahri ruvojlaniishi miloddan avvalgi VII-asrlarga to'g'ri keladi.



1-rasm.(miloddan avv. VII-asr)

2-rasm.(miloddan avv. VII-VIII-asr)

Ularda shaharning uch xil: Kash, Kish va Kesh shakilda yozilishi uchraydi. Biroq ulardan qay biri nisbatan to'g'riroq ekanligi masalasi noaniqligicha qolmoqda. Tangalarda so'g'dcha matnlarda bu so'z doim unlisiz-KS shakida beriladi. Ilmiy adabiyotda va taomilda Kesh nomi qaror topgan, biroq bu toponimning to'g'ri nomi Kesh yoki Kiss ham bo'lishi mumkin-ku, Yoqut aynan shu atamani Ibn Mukulga (vaf 1080-1081) suyanan holda ilgari surgandi.[24].

Arab- fors manbalarda bu nomning uch xil shakli: Kishi, Kiss va Kashi qabul qilingan. Beruniy Kash – mahalliy shakil, Kas esa forsiy shakil deb aytgan. O'rta asrlar yozma manbalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarfshon tog' tizmasining janubiy yonbag'irlaridan boshlanib, hozirgi Kitob shahrining janubiy Yakkabog', G'uzor O'radaryo vohasi yerlarini o'z ichiga olinganligi qayd etilgan. Uning markaziy shahri – Shahrisabz Kitob vohasida rivoj topgan. “Kesh” atamasi tangalardagi yozuvlarda (“Kesh podshosi”, “Axrupat Kesh hokimi”),

VI-VII asrlarda paydo bo'lgan. Ammo viloyat nomining kelib chiqishi ancha qadimgi davrlarga, mil. avv. IX-VIII asrlarga borib taqaladi, "Avesto" da keltirilgan Gava sug'd ("Sug'd makoni") tushinchasi aynan yuqorida qayd etilgan hududga tegishli bo'lgan. Ushbu so'zning o'zi (Gava, Gau) Kitob Shahrisabz va Yakkabog' tumanlaridagi ko'pgina zamonaviy atamalarga saqlanib qolgan. Bular Gavdara, Gavtepa, Govxona, Gov cho'qqisi singari ko'p hollarda joylar, qadimiy yodgorliklar qishloqlarning nomlaridir. "Gav" iborasining avesto tilidagi aynan tarjimasi "buqa" ma'nosini anglatadi. Shu narsa ham ma'lumki "gav" tushinchasi "kuch", "qudrat" ma'nosida xalq bahodirlariga nisbatan qo'llanilgan. Demak, Gava Sug'da atamasini "qudratli So'g'd", "qudratli o'lka" sifatida talqin qilish mumkin.

"Avesto" ma'lumotlariga ko'ra, zardushtiylarning ulug' va donishmand xudosi Axuramazda yaratgan mamlakatlar ro'yxatiga Gava Sug'da ikkinchi o'rinda tilga olingan. [25].

Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida bu davrga oid 30 dan ortiq qal'alar, uy qo'rg'onlar, qishloq va shahar xarobalari topilgan. Yakkabog' tog'larini yonbag'rida joylashgan. Daratepada mil. avv. VII- IV asrlarga oid g'isht va paxsadan qurilgan uy-joylar qazib ochildi. Zarafshon tog' tizmasi oldidagi Sho'robsoy Bo'yidagi Sangirtepa, Uzunqir, va Podayoqtepa yodgorlikari tekshirilgan. Sangirtepa o'rnida saroy shaklida qurilgan katta bir inshoot qoldiqlari o'rganilgan. Keng maydonni eallagan Uzunqir (70ga) vohaning harbiy va ma'muriy markazi bo'lgan.

O'sha davrlarda Uzunqir va umuman viloyatning nomi Nautka (Navtaka) deb atalgan. Qadimgi So'g'd so'zi "Nautka", "Yangi qurilish", "Yangi shahar", deb trjima qilinadi. So'zning "tak" qo'shimchasi "kuch", "qudrat", "quvvat" ma'nosida izohlanib, ushbu tushinchaga Uzunqir, O'rnida mustahkam va qalin mudofaa devorlari bilan o'ralgan yirik qal'a, harbiy tayanch markazining kelib chiqanligini taxmin qilish mumkin. O'rganilgan ma'lumotlar asosida yodgorliklarning ilk bor o'zlashtirilishi mil. avv. IX-VIII asrlarga oid ekanligi aniqlandi. Uzunqirda mil. avv. I ming yillik boshlariga oid sopol idishlar topilib

tekshirildi. Shunigdek polebotanik (turli uzum navlari urug'lari, arpa, bug'doy qoldiqlari) va ostexologik ashyolar (uy hayvonlarining) suyaklari tadqiq etildi.

Uzunqir o'rnida ilk "temir" davri shahar markazi mavjud bo'lganligidan dalolat beradi. Mill. avv. VIII- VII asrlarda manzilgoh atrofida katta hudud o'zlashtirilgan va shaharni g'arb, janub hamda sharq tamondan mudofaa devorlari bilan o'rash zarurati vujudga kelgan. Uzunqir shahar xarobasining mudofaa devorlarini o'rganish natijasida janubiy So'g'dning ilk temir davri mudofaa me'morligiga doir yangi ma'lumotlar aniqlandi. Uni O'rta Osiyoning ushbu davriga oid bir qator yodgorliklari (Marg'iyona, Baqtirya, So'g'd, Xorazm shahar xarobalari) bilan qiyoslaganda, ularning qurilishidagi ko'pgina umumiy tomonlar bilan birga, faqat Uzunqirga xos bo'lgan jihatlar ham aniqlandi.

Shahrisabz shahrining IX-XV asrlardagi ruvojlanish bosqichlari.



3-rasm (XI-X asrlar)

4-rasm (X-XIV asrlar)

5-rasm (XIV-XV asrlar)

Shaharning bunady tuzilishdagi mudofaa devorlari Janubiy O'zbekistonning mil.avv. VII-VI asrlarga oid birorta yodgorligida uchramaydi.(ular mazkur yodgorlikdan biroz keyin paydo bo'ladi). [21]

Uzunqirning shimoliy tomonida Sho'rob daryosi bilan chegaralangan bu joyda topilgan devor qoldig'i manzilgohning shu qismida ham mudofaa devorlari tizimi mavjud bo'lganligini ko'rsatadi. G'arbiy, sharqiy va janubiy tomonlaridagi devor qismi bilan bir chiziqda birlashtirish natijasida ushbu istehkom 70 ga maydonni qamrab olgani ma'lum bo'ldi.

Uzunqirdagi g'arbiy, sharqiy va janubiy mudofaa devorlari qoldiqlarining qalinligi 20 metr bo'lgan va Sho'robsoydan tortilgan sun'iy xandaq o'rab olingan

bo'lib, shimoliy tomon uchun bunday xandaq vazifasini Sho'robsoyning o'zi bajargan. Uch joyidan darvozalar o'zni aniqlangan.

Qadimgi shahar qurilishida joyining tabiiy giyografik xususiyatlaridan muvoffaqqiyat bilan foydalanilgan. Bu narsa birinchidan, uning joylashishida, ikkinchidan, mudofaa devorlarining ilonizi saklidagi janubiy qismi ko'rinishda o'z aksini topgan. [21].

Janubiy So'g'ddagi ilk shaharlarning shakllanishi va rivojlanishiga misol qilib Uzunqirni ko'rsatish mumkin. Uzunqir Shahrisab – Kitob vohasida ilk shahar tuzulmasining shakllanishiga misoldir. U yirik shahar tuzilmasining shakllanishiga misoldir. U yirik o'troq dehqonchilik vohasining hamda Janubiy So'g'ddagi Nautaka viloyatining xo'jalik, ma'muriy, harbiy va madaniy markazi bo'lgan. Qariyb 70 gektar hududni egallab olgan qalin mudofaa devorlarining mavjud bo'lishi, shahar qurilishi yuqori darajada taraqqiy etganligidan dalolat beradi. Bunday yirik shaharlarda albatta, qo'rg'on qarorgoh, saroy va diniy markaz, hunarmandlar guzarlari va yuqori darajada taraqqiy etgan hunarmandchilik bo'lgan. [21].

Mill.avv. III asrda Uzunqir aholisi Sho'robsoy bo'yidan Oqsuvdaryo - hozirgi Kitob hududiga ko'chib, shu joyda yangi shaharga asos solingan. Xuddi shu davrda viloyat va uning markaziy shahri nomi yana bir bor o'zgargan. Xitoy yozma manbalarida u "Suse" nomi bilan ma'lum. Ushbu so'z "So'g'd", ya'ni So'g'diyona tushinchasidan kelib chiqqan va xitoy manbalarida "Suse" deb yoritilgan. Uning markaziy shahri maydoni 40 gektarga yetgan, shahar mustahkam mudofaa devorlariga hamda arkka ega bo'lgan VI- VII asrlardan boshlab bu shahar Kesh deb atala boshlagan.

VII- IX asrlarda Kesh va Nashxab Qashqadaryo vohasining asosiy shaharlari bo'lib qolgan edi. Ularning har birida ark, mustahkamlangan ichki shahar (madina, shahriston) va shahar atrofi – rabod mavjud bo'lgan. X asr arab mualliflari shahodat berishicha, Keshning shahristoni va ko'handizi ushbu davrda tashlandiq holga kelib qolgan. Keshda olib borilgan qazishmalar shundan dalolat beradi. [26].

Ibn Xavqal bunday yozdi: “ Kesh esa ko’handiz , qo’rg’on va rabodga tutashib ketgan boshqa madina ham mavjud. Undagi uylar loy va yog’ochdan qurilgan”. Ali- Maqsudiy ham Kesh madina va rabodga ega shahar bo’lganligini yozgan. Uning tasnifi hozirgi Shahrisabz o’rnida bo’lgan Keshga to’g’ri keladi, chunki manbada ichki madina ko’handizi bilan (kitob o’rnidagi ilk Kesh) tashlandiq holdaligi, tashqisida esa aholi zich joylashganligi ta’kidlangan. Lekin jome’ masjid vayron bo’lgan madinada, bozorlar esa rabodda joylashgan.

Kesh viloyati Zarafshon tog’laridan G’uzor daryosigacha bo’lgan yerlarni qamrab olgan bo’lib 16 ta tuman – rustoqlarni birlashtirgan.

Ibn – Xavqalning “Yo’llar va yurtlar “ asarida Kesh haqida quyidagi ma’lumotlar saqlangan: “Kesh shahristonida to’rt darvoza bor: Temir darvoza, uning yonida Ubaydulloxoh darvozasi va to’rtinchisi , Tashqi shaharda ikkta darvoza bor: ichki shahar darvozasi va Barkanon darvozasi , Syom tog’laridan boshlangan daryo shaharning janubida oqadi, yana bir daryo -Asrud; Qashqurd rustoqlaridan boshlanib shaharning shimolida oqadi” .[27].

Shahrisabz hudidida joylashgan qadimgi yodgorliklardan Balandtepa, (Zindontepa) muhim ahamiyatga egadir. Rivoyatlarga ko’ra, XIV-XV asrlarda tepa o’rnida shahar zindoni joylashgan, shuning uchun u Zindontepa deb atalgan.M.E. Massonning fikricha VI-VIII asrlarda bu yerda baland poydevorli uy –qo’rg’on joylashgan. Hozir ham tepa xarobalarning balandligi 15-20 metirga teng.

Arxeologlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijasida tepaning markaziy qismida yirik inshooat qoldiqlari topilib tekshirildi. Ammo arxologik qazishlar davrida topilgan xonalarda oshxona o’choqlari va kul qatlamlari, mehnat qurollari va uy ro’zg’or buyumlari uchramadi. Shu bois Balandtepa o’rnida , ehtimol, ilk asrlarga oid ibodatxona bo’lgandir , deb taxmin qilish mumkin. VII asrda Kesh atrofida aholi tomonidan ibodatxona bino qilingan Harbiy yurishlardan oidin ushbu ibodatxonalarda Keshiklar 10 mingta qo’y qurbon qilib o’z xudolarida dushmanlar ustidan g’olib chiqishga madad so’raganlar. Bu voqealar Kesh

Sug'diyonaning poytaxti bo'lgan davrga to'g'ri keladi.VIII asrda Keshning mashur ibodatxonasi vayron etilgan.

Samoniylar va qoraxoniylar davrida Kesh siyosiy voqealardan chetda bo'lgan va shu tufayli ham yozma manbalarda Kesh shahri to'g'risida ma'lumotlar kam keltiriladi. Somoniylar davrida Zaravshon vohasi iqtisodiy jihatdan eng rivojlangan o'lka hisoblanadi.

Al- Maqsudiy tomonidan keltiradigan Keshning ta'rifi Eski Kesh (Kitob) va Yangi Kesh (Shahrisabiz)ga to'g'ri keladi. Eski Keshning ichki madinasi va ko'handizi bu davrda tashlandiq holga kelib, undan 7 km janub tomondan tashqi madina (Yangi Kesh) ravnaq topayotgan bo'lib, uning ikkita darvozasi, ular orqali o'tgan markaziy ko'chasi mavjud bo'lgan. Eski Kesh hududida jome' masjid zindon va bir qancha bozorlar joylashgan.

Ahmoniylardan oldingi (mill avv VIII- VI asrlar) hamda Ahmoniylar davridagi (VI-IV asrlar)Uzunqir Nautka viloyatining poytaxti bo'lajak Shahrisabzning ilk darakchisi bo'lgan.Elinlar va qang'yuylarning davrida (mill. Avv. III mil III-IV asrlar) viloyatning poytaxt markazi asta –sekin hozirgi Kitob o'rniga ko'chgan. Bu yerda mustahkam qal'asi (Qalandartepa yoki tepa Afrosiyob) - shahristoni devor bilan o'rab olingan va atrofida rabotlar joylashgan yirik shakillana boshlagan. Mill avv.II-I asrlardagi voqealarni aks ettiruvchi “Katta Xon Xonadan tarixi”da qangyuylarning kichik mulki Susening marakazi sifatida tasvirlanadi. Olimlar bu shahar Kitobdagi antik shahar o'rnida bo'lgan, deb hisoblashadi. “Suse” xitoylar tomonidan juda buzib yuborilgan mahalliy nom bo'lib, u shu davridayoq Kesh yoki Kish deb nomlanishi ehtimoldan holi emas.[21]

Bu davrda va Ahmoniylar davrida “Suse-Kesh” mulkining poytaxt-markazi sifatidagina emas, balki bu davrda Baqtrya poytaxti- Sug'diyona poytaxti – Maroqandga boruvchi, eng qisqa yo'lni nazorat qiladigan muhim harbiy punkut sifatida ham muhim rol o'ynagan. Aftidan bu Uzunqir (Nautka) va Kitob (Suse - Kesh) singari shaharlarning yuzaga kelishiga hamda jadal ravnaq topishini taqozo etgan sabablardan biri bo'lsa kerak. Bu yerda tovar pul munosabatlari ancha erta – mill. Avv. III asrlardan , ehtimol IV asr oxiridan boshlab rivojlangan. Bu

munosabatlar Mekadoniyalik Aleksandr dirhamlariga taqlidan tanga chiqarilishini, slavkiy va yunon –baqtr podshohlari tangalarining , “Abtat” sulolasi hukumdorlari tomonidan Gerakel va Zevs tasviri bilan zarb qilgan mahalliy tangalarning muomolada bo’lishini ta’minlagan.

So’ng ilk o’rta asrlarda (V-VIII asrlarda) shahar yangi joyga ko’chib, alohida mulk poytaxti sifatida qaror topib, 190 yilgacha ya’ni mil. VII asr boshidan VIII asr o’rtalarigacha mavjud bo’lgan va arablar tomonidan tugallangan Kesh qaror topdi. Shi boshqacha aytganda , Kyusha yoki Gieshuan, ya’ni Kesh yoki Keshan mulkining qudratli hukimdori Dichjening atrofi 2 li (ya’ni 1 km) doirasigacha qarorgohi cho’zilgan qarorgohi bo’lgan. U Sishi bunyod etdirdi-ki bu Keshnomi shakillaridan biridir.

Shahrisabz chekkasida bir qancha tepa, Shu jumladan , Balandtepa, Zindontepa Qalqontepa va boshqalar joylashgan. Bularning bari o’z maydoniga ko’ra Beyishida keltirilgan Kesh poytaxti maydoniga to’g’ri keluvchi murakkab shahar tuzilishiga o’xshash manzilgoh tasvirini beradi .


O’rganilgan arxeologik va yozma manbalar, Qashqadaryoning Sharqiy qismidagi viloyat va uning shahar markazi turli davrlarda turlicha nomlangan deb xulosa chiqarishga asos bo’ldi. Mil. avv. IX- VIII asrlarda viloyatning nomi Gova Sug’da edi, mil.avv. VII-IV asrlarda –Nautaka, VI-XV asrlarda – Kesh bo’lgan. Viloyatning markazi mil.avv. VIII asrda Uzunqir o’rnida shakillana boshlanib, III asrgacha rivojlagan. Shaharning keyingi davr tarixi Kitob-Shahrisabz hudidi bilan bog’liq bo’lgan Yana bir muhim ma’lumotga e’tibor berish lozim. O’rta Osiyo shaharlari jumladan Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz , Marv haqidagi rivoyat- afsonalarda, Shahrisabz- Kitob vohasining ilk shahar markazi eng qadimgi hisoblanadi. Mazkur rivoyatlar arxologik ma’lumotlarga mos keladi. Shunga ko’ra , Nautka, Kesh, Shahrisabzning tajridiy taraqqiyot davri 2700 yildan kam emas.

Qadimgi shaharsozlik madaniyati an’analari Shahrisabzda davom etib, yangi asoslarda rivojlangan. Kesh- Shahrisabzning gullab yashnashi ulug’ davlat arbobi va sarkarda amir Temur nomi bilan bog’liq. Ko’p asrlar davomida Nautaka, Kesh,

Shahrisabzning ma'muriy va harbiy ahamiyatiga, hunarmandlik va savdo ahamiyatga ega bo'lgan. [35].

1.2. Shahrisabz shahri markazining shakllanish xususiyatlari.

Shahrisabz o'rnida shakllangan savdo hunarmandchilik markazi juda tez rivojlana borib, XII asrga kelib ancha katta hajimga ega bo'ldi. Buning asosiy sabablaridan biri Chayog'dan Samarqandga olib boruvchi karvon yo'lida joylashganligida edi. Buni quyidagi rasmda ko'rish mumkin.



6-rasm. (Qashqadaryodagi karvon yo'llar sxemasi)

Shahrisabz atrofida joylashgan o'rta asrlar shaharlari ichida ark va murakkab tarhga ega bo'lgan. Choshtepa va Sariqtepa yodgorliklari diqqatni tortadi. Choshtepa Shahrisabzning janubi – g'arbiy chetida joylashgan. Bir vaqtlar maydonda 10 gektarga teng bo'lgan yirik manzilgoh to'rtburchak shakilda keng handaq bilan o'ralgan qo'rg'on (125x100) metr, balandligi 10 metr) saqlangan. Fikrimizcha Choshtepa qo'rg'on va mustahkamlanmagan yashash qismidan iborat inshoot turini ifoda etadi.

Shahrisabz hudidida kelajakda olib boiriladigan arxeologik tadqiqotlar Keshning IX-XII asrlardagi qarorgohini aniqlash masalasiga aniqlik kiritish mumkin, fikrimizcha u Choshtepa hudidida joylashgan. Shu bilan birga, IX-XII

asrlarda Keshni ikki qisimdan – ark va mustahkamlagan shahristondan iborat o'rta hajimli shahar bo'lishi mumkinligini inobatga olish kerak. Ushbu turga Choshtepa bilan birgalikda hozirgi Shahrisabzdan g'arbda joylashgan Sariqtepa yodgorligi ham kiradi.

Sangirtepa va Uzunqir Qashqadaryoning sharqiy qismidagi yirik qadimiy madaniy-xo'jalik tumani hudidida joylashgan. Arxologik tekshiruv ishlari Sangirtepaning to'rtburchak shaklidagi markaziy tepaligida olib borildi. Sangirtepa umumiy maydoni 3 gektardan iborat bo'lib, hamma tomonidan mudofaa devorlari bilan o'ralgan. Sangirtepaning shimoliy –sharqiy qismida amalga osirilgan arxologik qazuv ishlari bu yerda madaniy qatlamning qalinligi 6,8 metrga teng bo'lganligini ko'rsatdi.

Sangirtepaning Markaziy qazishma joyi.



7-rasm. (miloddan avv.IX-milodiy V asrlar)

Padoyoqtepa va Uzunqirda ham arxologik tadqiqotlar o'tkazilib, ularning mudofaa devorlari o'rganildi. Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, Sho'robsoy yoqalarida mil. avv. I ming yillik boshlarida qadimgi dehqonchilik vohasi shakillangan bo'lib, u daryoning har ikkala qirg'og'ida joylashgan bir necha yodgorliklar qamrab olgan Nautka viloyatining shahar Markazi Uzunqirni turli tuman uy –qo'rg'onlar va qishloqlar o'rab olgan.

Sangirtepadagi arxologik strategifik tadqiqotlar natijasida manzilgohning tarixi aniqlandi. Sangirtepaning ilk shakillanish davri mil.avv. IX-VIII asrlarga

oid. Ushbu davrda bu yerda mustahkam paxsa devor bilan o'ralgan yirik inshoot qad ko'targan. Dastlabki davrda 10 m qalinlikdagi tashqi paxsa devor mavjud bo'lib, mudofaa maqsadlariga xizmat qilgan Sangirtepa ushbu davrda qal'a vazifasini bajargan, uning davrasida bir qator kichik uy qo'rg'onlar mavjud bo'lgan. Qadimgi shaharsozlik madaniyati va an'analari Shahrisabzda davom etib, yangi asoslarda rivojlangan. Kesh Shahrisabzning gullab yashnagan ulug' davlat arbobi va sarkarda Amir Temur nomi bilan bo'liq. Islom davri manbalaridan Kesh to'g'risidagi ma'lumot at-Tabriyning tarixiy asarida, Muqanna boshchiligidagi qo'zg'olon tasvirida uchraydi. IX asr muallifi al- Yaqubiy Keshni "So'g'dning bosh shaxri" deb, uning zamondoshi Ibn al – Faqix esa "Samarqand viloyatidagi shahar", deb tavsiflashgan. X asr oxirida al- Maqsudiy Keshni Buxoro viloyati tarkibiga kiritgan.

Qalandartepaning shimoliy qismi VIII-IX asrlarda ham obod qilingan. Qal'a hududida XII asr-XIII –asr boshlarida kechgan hayot izlari ham mavjud. Ichki shahar hududida X –XI asrlarda ham hayot davom etgan bo'lishi mumkin, buni o'z vaqtida S.K. Kabanov ko'rsatib o'tgandi. Har holda X asrda ham bu hudud Kesh Shahrining tarkibiy qismi bo'lganligi va musulmonlar yashagan shaharning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lmish jome' masjidi shu yerda joylashganligi shubhasizdir. [28].


Vohaning janubidagi Qayrog'ochtepa qal'asi hamda Kitob o'rnidagi poytaxt arki bo'lgan Qalandartepa imoratlar Padayoqtepa yuqori qatlamlari bilan bir davirga oiddir. Mudofaa devorlarining baquvvat poydevor ustiga qurish usuli so'ngi jez ilk temir davrlariga borib taqaladi. Bu vaqtda O'rta Osiyo janubidagi shakillanayotgan shaharlar bo'lgan va ilk shahar markazlaridagi qal'alar baquvvat asos – poydevor ustiga barpo etilgan. Kitobda butun shaharni o'rab olgan qal'a devori ichida eni 1.15 metr bo'lgan yo'lak ketgan undan borib, maxsus tuyniklar orqali xonalarga kirish mumkin. Bu xonalar devorining chiziqdan turtib chiqib turgan tashqi qismida joylashgan bo'lib uning etagini o'qqa tutishga mo'ljallangan. Turtib chiqqan joy o'z navbatida devorteshar zarbdan va boshqa qamal texnikasidan himoyalashni ta'minlagan-ki, antik davrida bunday texnika

jadal rivojlagan shahar istehkomlarini mustahkamlanishi taqozo etgan mudofaa devorini, shunigdek, burjlar ham kuchaytirilgan Asosan tekis joyda bunyod etilgan Kitob devori paxsadan ko'tarilgan, ustidan to'g'ri burchakli, tamg'a bosilgan bir nechta qator xom g'ishtdan terilgan .Paxsa qatlamlari orasiga bordon bosilgan, u zaxdan va sho'rlanishdan asragan.

“Istehkomsiz qishloq manzilgohlar” tipidagi yodgorliklar miqdoriga ko'ra keng yoyilgan hisoblanadi. Lekin maydoni, joylashuvi ularni tezda vayron qilish imkonini beradi. Hududlar jadal o'zlashtirilgan mintaqada bunday manzilgohlarning ko'pidan marhum bo'lingan. Mintaqa arxologik ob'ektlarning 80 foyizi ilk o'rta asrlar yodgorliklarini tashkil qiladi, ularning diyarli uchdan biri ko'p qatlamli. Bu ob'ektlar tashqi topografik alomatlariga ko'ra quyidagi tiplar bo'yicha tasnif etiladi.

Ko'hna shaharlar (doim ham asl ma'nodagi shahar emas). Bu tipga istehkom alomtlariga hamda ikki uch qismga ega bo'lgan bir muncha yirik (1.5-4ga) manzigohlar kiradi Bunda mustahkamlangan qism –qal'a- shahar ichida yoki mudofa tizimi devori tizimida (burchakda yoki o'rtasida) bo'lishi lekin doimo xavf kelishi kutiladigan tomonda joylashishi darkor.

Shahrisabz shahrining markazini XV-asrlardagi rivojlanish bosh rejasi.




8-rasm.(Shahrisabz markazi XV-asr)

Qo'rg'onlar. Ular ikki tipda: mustahkamlangan va mustahkamlanmagan bo'lgan.

Mustahkamlangan qo'rg'onlar bunday qo'rg'onlar tarhi odatda, to'g'ri burchakli va relifga ko'ra ikki qavatli bo'ladi. Bunday ob'ektlarning ko'pchiligi uncha katta bo'lmagan tepalik va unga yondosh hamda undan pastroq do'nglikdan iborat bo'ladi. Eng baland qismi –“diz”, “Ko'shik”ning shinakli devori, xandaq, kirish joyi bo'lib, u ham manzilgohga nisbatan markazda, burchakda yoki uning tomonlaridan birida, odatda, mulkning tashqi chegarasiga tomon yo'nalgan holda joylashgan bo'ladi.

Mustahkamlanmagan qo'rg'onlar ularga bir qavatli, ko'pincha maydoni 00. 2-5 ga dan iborat do'ngliklar kiradi. Ular dehqonlarning alohida turar joy vayronasidir. [20].

Shahrisabz shaxri shakllangan markazini chegara qal'a devorlari.



9 -10 rasm. (XV-asrlar qal'a devorlari tarhi va devor ko'rinishi)

K.A.T.E. ning ko'p yillik tadqiqotlari turli tidagi manzilgohlarining giyografik vaziyat, xo'jalik faoliyati va tabiiy hamda sun'iy suv manbalaridan kelib chiqib joylashuvning konseptual sxemasini tuzishda hatto, feodal qaramlikning turli tizimidagi mulklar chegarasini aniqlashda ko'maklashadi. Chunonchi qal'alar, odatda, obi hayot manbaini nazorat qilish uchun asosiy kanallar boshida qurilgan. Qal'a atrofida yoki uning qatorida shahar vujudga kelgan . Kanal tarmoqlangan joyda Qo'rg'on qurilgan Kanallarning o'rta qismida

mustahkamlanmagan manzillar joylashgan, ulardan narida, “quyruq” qismida esa dehqonlarning alohida turar joylari qurilishi mumkin bo’lgan.

Manbalarda Kesh sharining kattaligi X-asrda taxminan bir farsaxning uchdan biriga teng bo’lgani ko’rsatilgan, bu 2,5 km ni tashkil qiladi. M.E.Masson (farsaxning uchdan biri) o’rniga (uch farsax) deb o’qishni hamda bu hajmni Shaxrisabz va Kitob atrofidagi o’zlashtirilgan va so’ngi o’rta asrlardagi Chim devori o’rab olgan barcha yerlar sifatida tushinishni tavsiya etgani shubhasizdir.

Biroq keltirilgan matni bu tarzda o’qib bo’lmaydi chunki matinda (farsax) so’zi gramatikasi qoidalariga ko’ra, bu yerda faqat (farsahning uchdan biri), deb o’qish mumkin. IX –XII asrlarda Shaxrisabz o’nida mavjud bo’lgan shahar ham shu yo’l bo’ylab cho’zib ketgan. Bu yo’l ayni vaqtda shaharning asosiy ko’chasi bo’lgan. Shahrizabiz bilan Kitob orasidagi masofa 5-6 km ni tashkil etadi. Bordiyu Kesh shahri X asrda 2,5 km ga cho’zilgan bo’lsa, uning rabodining janubiy chekkasi o’sha vaqdayoq Shaxrisabizdan 3-4 km masofada joylashgan.shu bois, keyingi asrlarda Keshning savdo – hunarmandlik rabodi Keshning Shaxrisabz o’rnida joylashgan yo’ldosh shaharchsi bo’lgan boshqa bir savdo - hunarmandlik rabodi bilan qao’shilib ketgan bo’lishi munkin. [21]

Shahrizabz – Barqnon o’rnidagi dasdlabki manzil V – VI asrlarda vujudga kelgan, uning negizi Shahrizabizdan 300 m shimolroqda joylashgan Balandtepa yoki Zinbontepa xarobalari o’rnida bo’lgan. Shu davirda bu yerda maxalliy hukumdorning mustahkam qasri joylashgan bo’lib uning ichida zardushtiy ibodatxonasi ham bo’lgan XIX asrda ham mahalliy aholining ayrim vakillari bu joyga kelib, eski zardushtiy dininig mabudlariga sajda qilganlar; har yili muqaddas Navruz barmida esa bu yerda xalq sayillari o’tkazilgan.Dastlab bu qasr atrofida devor bilan o’ralmagan manzillar bo’lib VII- VIII asrlarda ularning maydoni kengaygan, IX –X asrlarga kelib esa bu shaharcha muhim savdo –hunarmandlik markaziga aylangan. XI – XII asrlarda Kesh shahrining hayot markazi asta sekin bu yerga ko’chib kela boshlagan.Aftidan, XII asrda bu shaharga Kesh nomi berilgan, Barknon nomi esa istifodadan chiqib, faqat shasharning mahallalarida biriga nisbatan qo’llanila boshlagan.

Kesh IX-XII asrlarda bo'lajak Shaxrisabz o'rnidagi maydonda bo'lganligini isbotlovchi qanday dalillar bor? Eng avvalo, bo'lajak shahar maydoniga odamlar VI –VIII asrlarda ko'chib kela boshlagani isbotlandi. Aftidan, bu yerda o'sha davirda yirik manzil bo'lgan ko'rinadi. Shu tariqa, eski shahar xarobaga aylangan. Sari odamlar undan avval obod bo'la boshlagan joyga ko'chishga intilganlar. Shahar maydonida olib borilgan diyarli barcha qazishmalarda hamda ochilgan sho'rflarda IX –XII asr qatlamlari aniqlangan va ularning qalinligi bir m dan uch m gacha yetgan. Bu xol mazkur maydon jadal sur'atlar bilan obod qilinganidan darak beradi. Ayrim qazishmalar haqida hikoya qilish mumkin. Oqsaroy peshtoqidan janub tamonda, saroy sahnidan pastroqda , pishiq g'isht to'shalgan sath va X- XI asr keramikasi qoldiqlarini o'z ichiga olgan qatlam ketgan. Qoraxoniylar zarb qildirgan tangalar XI asrning birinchi yarmiga oid kumush suvi yugirilgan mis drhamlar ham shu yerdan topilgan. Undan ham chuqurroq yerdan ham IX asr qatlami o'tgan. Chorsu gumbazidan 50 metr janubroqda o'tkazilgan qaziah ishlarida devorlari bo'lgan hamda pishiq g'isht yotqilgan kapital imorat qoldilqridan iborat katta qatlam ochildi. Kerameka shu jumladan ko'p miqdorda topilganiga ko'ra, u XI – XII asrlarga ta'luqli deb hisoblanadi. [21].

Ko'kgumbazdan shimolroqda olib borilgan qazish ishlarida VII- VIII asrlarga oid imorat qoldiqlari ochildi, yuqoriroq qatlamda esa XI – XII asrlarga oid binoga ta'luqli naqishli tektornika parchasi topildi.

Ko'kgumbaz masjidi gul ustuni yaqinida va masjid ichida qazilgan shuruf ayniqsa muhim natijalar berdi. Qazishmalar shuni ko'rsatdiki, XV asrga oid masjid hamda XII asrga g'oyat xos bo'lgan yirik bino qoldiqlari ustida pishiq g'ishtdan qurilgan. Unda ishlatilgan naqishning faqat ayrim joylariga zangori sir berilgan. Qolgan esa sirlanmagan, o'ymakor tektornika bilan bezatilgan. Bu yerda XII asrga faolyat ko'rsatgan shahar jome' masjidi qoldiqlari topildi.

Shamsuddin Kulol maqbarasi ham zangori sir ishlatilgan o'ymakor tektornika bilan bezatilgan XII asrga oid bino qoldiqlari ustiga qurilgan. Bularning bari X-

XII asrlardagi Shahrisabz maydoni jadal obod qilingan hamda bu yerda ko'plab imoratlar shu jumladan monumental binolar qurilgan deb aytish imkonini beradi.

Shahrisabznining XIII asr boshidan Amir Temur taxtga o'tirgan paytgacha bo'lgan tarixi yozma manbalarda diyarli yoritilmagan. Biroq bu davr shaharning qadimgi Kesh nomi bilan barobar yangi Shahrisabz nomi bilan yuritilgani diqqatga sazovordir. Yuqorida ta'kidlagandek, bu nom ilk bora Bo'yonqulixon nomidan 1351- yilda zarb qilingan katta kumush dirxamlarda qayd etilgan. Qadri bu qadar baland tanga zarb qilinishining o'zi Shahrisabz XIV asr o'rtalaridayoq nisbatan katta shahar bulganidan dalolat beradi. Amir Temur va Temuriylar davrida O'rta Osiyo g'oyat ravnaq topdi. Buyuk fotix to'plagan ulkan boylik poytaxt Samarqand hamda tug'ilib o'sgan shahri – Kesh viloyatining markazi Shahrisabzni g'oyat go'zal imoratlar bilan bezash imkonini yaratdi.

Shahrisabz davlatning ikkinchi poytaxtiga, jangovor barloslarning yozgi qarorgohlariga aylangan. Xofiza Abrur guvohlik berishicha, Sohibquron hukmronlik qilgan davrda shahar g'oyat gullab yashnagan. Uning vorislari, ayniqsa, Ulug'bek bobosi boshlagan binokorlik faoliyatini davom ettirib, bu shaharni obod qilgan. Ispaniya elchisi Klavixo o'z kundaliklarida bu shaharda kuplab mahobatli imoratlar va masjidlar qurilganligini kursadgan. Amir Temur saroyidagi xitoylik elchilar ham bu yerda ajoyib qasrlar borligini aytib o'tishgan. Taassuflar bo'lsinki, Amir Temur va Temuriylar davrida Shahrisabzda bunyod etilgan ko'plab binolar bizgacha yetib kelmagan. Biroq XVII asr oxirida Badeho Maleho “Keshda chig'atoiy sultonlarning ko'plab imoratlari borligini ta'kidlagandi. Ushbu binolarning qoplama materiallari XVIII asr imoratlarida poydevor tagida tashlanadigan material qurilish chiqindisi sifatida ko'proq uchraydi. Biroq bu yerda Amir Temur bunyod ettirgan Oqsaroy, Dorussiyodat me'moriy majmuoti va qurilish ishlari Amir Temur davrida boshlanib, Ulug'bek davrida tugallangan Doruttilovat maqbaralar majmuasi shaharning asosiy yodgorliklari, uning iftixori va shon-shuhrati hisoblanadi.

Amir Temur muarrix buni Oqsaroy qurilishi bilan bog'laydi va ish boshlangan vaqtni xijriy 781-yil oxiri, ya'ni taxminan 1380-yil marti, deb

belgilaydi, chunki xijriy 781-yil 1380-yilning 7-aprelida tugallgandi. Ayni mahalda Sharafuddin Ali Yazdiydan ko'ra ko'proq xabardor bo'lgan.

XX asrning 60 – yillarida ham Shaxrisabz hisori qal'a devor lari to'rt tomondan ko'zga tashlanib turardi. Devor 1,5 x 1,5 km maydonni o'z ichiga olgan to'g'ri to'rtburchak shaklida edi. Devor parametri bo'ylab har birining orasi 50 m dan bo'lgan 70 ta yarim aylana burj saqlanib qolgandi. Ba'zi joylarda devor o'rkachida XVII-XIX asrlarda guvala, paxsa, xom g'isht bilan bajarilgan ta'mir izlari aniq ko'rinib turardi. Dastlabki devor va burjlar qalinligi 7-15sm bo'lgan pishiq qat-qat yaxshi paxsadan ko'tarilgan. Burjlar devor chiziqdan tashqariga 4 metr turtib chiqilgan, balandligi 13 metr edi. Burjning eni devor bilan birga 17,5 metrga borgan.[13].

1.3 Shaxrisabz shahri me'moriy imoratsozlik madaniyati shakillanishining o'ziga xos xususiyati.

O'rta asrlar yozma manbalarida Kesh deb atalgan viloyat hududi Zarafshon tizma tog'ining janubiy yonbag'irlaridan boshlanib, Hozirgi Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog' G'uzor O'radaryo vohasiyerlarini o'z ichiga olgan. Uning markaziy shahri Shaxrisabz Kitobda rivoj topgan.

Qashqadaryo viloyatining sharqiy qismida 30 dan ortiq qal'alar, uy qo'rg'onlar, qishloq va shahar xarobalari topilgan. Yakkabog' tog'lari yonbag'irida joylashgan. Daratepada mil avv. VII-IV asrlarga oid g'isht va paxsadan qurilgan uy –joylar qazib ochilgan.[26].

Zarafshon tog' tizmasi Sho'robsoy bo'yida Sangirtepa, Uzunqir va Podayoqtepa yodgorliklari tekshirilgan. Sangirtepa o'rnida saroy shaklida qurilgan katta bir inshooat qoidiqlari o'rganilgan. Sangirtepadan 650 km shimoiroqda, Sho'robsoy qirg'ogida Uzunqir xarobalari joylashgan. yodgorlining katta qismi telislanibshudgor qilib yuborilgan, faqat janubi-g'arbiy tomonida mudofaa devorining 450 m ga teng qismi saqlanib qlgan. Tadqiqotlar davomida devorning tashqi tomonida shaharga kirish joyi va shinaklari bo'lgan burjlar qoldiqlari ochib

o'rganildi. Burj xonasi devorlari va sathi somon bilan suvalgan. Sathda sapol siniqlariva bironzadan ishlangan kamon o'qitopildi. Shunigdek yodgorlildan mil. avv. VII-IV asrlarga taluqli sapol idishlar yig'ib olindi.

Devor xarobalari balandligi 6 m qalinligi asosida 26 m ga tengdir. Mudofaa devorining o'rganish davomida to'g'ri burchak shakildagirejaga ega bo'lhanburjlar ochilganda ularningichida xonalar bo'lganligi aniqlangan. Burjlarning tashqi tomonida pilyastra (to'rtburchak shakildagi yarim ustun), ustunlardan esa nayza shakildagi aldamchi shinaklar bo'lgan.

Arxologik tadqiqotlar ko'rsatilishicha mil. avv. IV-III asrlarda Sharqiy Qashqadaryoga uy-joy imoratlarini, istehkomlar va jamoat binolaridan farqli ravishda, asosan yarim yerto'ladan va yengil bostirmali imoratlardan iborat bo'lgan. Bu majmualarda paxsa va antik davriga xos bo'lgan kvadrat shaklidagi xom g'isht uncha baland bo'lmagan devorlar va sandallar uchun ishlatilgan. Masalan Podayoqtepa devori ichida o'zaro bog'lanib ketgan bostirmalar ustiga uy-joylar majmualari gurihi joylashgan. Bostirma ustida shax shabba va qamish tashlanib, loysuvoq qilingan.

Shahrisabzdagi uy qoldiqlari topilmasi. mil. avv. IV-III asr



11-rasm. (Shahrisabzdagi uy qoldiqlari mil. avv. IV-III asr)

Tomni konsentirik shaklida, ikki uch markaziy ustun bo'lgan, bu ustunlardan 2-2.5 m masofada yordamchi ustunlar doira bo'lib qator joylashgan. Tomni ko'tarib turgan ustunlar asosi qo'shimcha ravishda mayda tosh, paxsa, xomg'isht

va pisiq g'isht parchalari bilan ba'zilar esa to'g'ri to'rtburchak shaklida ko'tarilgan o'choqlar joylashgan. Bu tomning eng baland nuqtasiga maxsus mo'rilar bo'lganligi bildiradi. Bostirma ostida, u yer bu yerida, yilning sovuq kunlarida, foydalangan yarim yerto'lalar, don-dun saqlangan o'ralar, yaxshilab loysuvoq qilingan maxsus "vanna" lar joylashgan Ularda don yanchilgan. Sig'imi 130-150 litr bo'lgan, un saqlanadigan katta xumlar maxsus paxsa supalar ustiga o'rnatilgan.

Podayotoqtepaning ichki qurilish xususiyatiga ko'ra u o'sha hududdagi bosh qal'a bo'lishi mo'ljallangan ko'rinadi. Aftidan, bu yerda dehqonlardan markaziy hokimyatga keladigan don-dun to'plangan. Tarhi va ichki tuzilishiga ko'ra shunga o'xshash qal'alar ilk ellin davrida O'rta Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy viloyatlarida ham qurilgan.

Ayni mahalda, mil. avv. III- II asrlarda Kitob hudidida ancha mustahkam uylar qurilgan, ular, odatda, maxsus asos ustiga joylashgan. Milodga yaqin, butun o'rta Osiyodagi singari, sharqiy Qashqadaryoda ham qurilishda yoppasiga xom g'isht ishlatilishiga o'ta boshlagan. Bunda shahar madaniyatining rivojlanishi va uning xususiyatlarining qishloq joylariga yoyilishi katta rpl o'ynagan. Antik davrda uylar, odatda har xil vazifani bajaruvchi bir nechta xonadan iborat bo'lgan. Maydoni 20-30 kv.m gacha brogan turar joy xonalaridan tashqari, unga albatta xumxona kirgan. Xumxonada (8-12kv.m) devor yonida yarmigacha yoki bo'g'zigacha yerga ko'milgan, don, un, moy, sharob saqlanadigan bir necha xum bo'lgan. Ba'zi xumlar turar joy xonalarining ichiga joylashtirilgan. Bu xumlarning ayrimlarida, Hattao go'sht ham saqlangan, ular o'zga xos "sovutgich" vazifasini o'tagan. Turarjoylar kirish ro'arasida devor yonida paxsadan ishlangan, uncha baland bo'lmagan kvadrat o'choqlar yordamida isitilgan. Xonalarning derazasi bo'lmagan ko'rinadi. Hovliga olib chiquvchi eshiklar, odatda, ostonaga mahkamlangan yon ustunga o'rnatilgan.

Imoratni tiklash jarayonida turli usullar qo'llanilgan, materiallar almashib ishlatilgan. Xona devorlari yerga bir oz chuqur kirgan yoki, ko'pincha poydevorsiz, tekislangan maydoncha ustiga ko'tarilgan. Xonalar orasidagi par

devorlar qalinligi 75-80 sm bo'lib kvadrat shakilli yoki g'isht yoki bir paxsa eniga to'g'ri kelgan. Par devor paxsadan ko'tarilsa, g'adir- budurni yo'qotish uchun tomigacha yolamasiga terilgan xon g'isht bilan qoplangan> Tashqi devorga tomning asosiy yuki tushgani uchun, u ancha qalin bo'lgan. Bir qator hollarda ayvonda hamda keng xonalarda yog'ochdan, pishiq yoki xom g'ishtdan qo'shimcha ustunlar ko'tarilgan. Bu antic davrda Sharqiy Qashqadaryoda tomonlari o'rtacha 30-45 sm, qalinligi 10-15 sm kvadrat xom g'isht ko'p ishlatilgan. Uning bichimi, avvalo, qalinligi asta sekin kichrayib brogan. Iv sr oxiri- Vasr boshiga kelib esa to'g'ri burchali g'ishtdan foydalanishga o'tilgan. Paxsa buloklar va xom g'isht orasiga loy qorishmalar ishlatilgan, ba'zida g'isht va paxsa almashib ishlatilgan. Monolit paxsa devordan asosan qishloq manzilgohlarida foydalanilgan> Sharqiy Qashqadaryoning antikdavrida me'morchilik va qurilish texnikasi Baqtrya va yanada ko'proq Markaziy So'g'd texnikasiga mondand bo'lgan, buning sababi viloyat giyografik jihatdan O'rta Osiyoning mazkur ikki madaniy markazi oralig'ida joylashganidadir. [26].

XVI- XIX asrlarda Shahrisabz va Kitob Qashqadaryo vohasining yirik iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri edi. Shahar XIV asrda Amir Temur davrida devor bilan o'rab olinib mustahkamlangan. "Shahrisabz" atamasining kelib chiqish tug'risida turli fikrlar mavjudligiga qaramasdan, uni "yashil shahar" deb talqin qilish umum qabul qilingan. Yevropalik mualliflarning o'rganilayotgan davriga oid asarlarida shahar nomi turlicha (Shahrisabz, Shar) ishlatganini ko'rishimiz mumkun. Amir Temur va Temuriylar davrida musulmon sharqning obod shahriga aylangan, Shahrisabzga Shayboniylar davrida (XVI asr) ham Qashqadaryo vohasining bosh shahri sifatida qaraldi, u keng maydonga, aniq tuzilishga, baland devor va burjlardan iborat mustahkam mudofaa tuzimiga ega edi. [26].

Lekin XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab Buxoro xonligidagi keskin siyosiy vaziyat va o'zaro feodal urishlar natijasida Shahrisabz xarob ahvolga kelib qoldi. Bu inqiroz davri XVIII asrning o'rtlarigacha davom etdi. Kenagaslardan bo'lgan beklar, ayniqsa, Nazarbek davrida shahar yangidan qad rostladi. Uning

davridan shaharning janubiy tomonida , Amir Temur davri devoridan 450 metr ichkarida yangi devor qad ko'tarib, shahar XIV –XV asrlardagiga nisbatan ancha qisqargan bo'lsada , unda hayot yangidan tiklandi. Shahar devorining sharqiy, shimoliy g'arbiy devorlari qayta ta'mirlandi. Shu davrda shahrisabz o'z tuzilishiga ko'ra uch qisimdan _ bek O'rdasi, Qo'rg'on ya'ni bevosita shahar va shahar bilan bir tarkibiy jihatdan bo'langan shahar atrofi qismlardan tashkil topgan edi. Bek qo'rg'oni shaharning shimoliy – sharqiy burchagida joylashgan. Xalq orasida u Shahrisabz Afrasiyobi nomi bilan mashhur bo'lgan. Qo'rg'on ikkita darvozaga ega bo'lib , janubiy tomonidan ko'k darvoza , sharqiy tomondagi ikkinchi darvoza esa To'pxona darvoza deb atalgan. Qo'rg'on oldida shaharning asosiy maydoni Registon joylashgan. .[21].

Shahar qo'rg'oni to'g'ri to'rtburchak tuzilishda bo'lib, shimoldan janubga qarab cho'zilgan va guzarlarga bo'lingan.Ular to'g'risida dastlabki ma'lumotlar XIX asr rus mualliflari asarlarida uchraydi. Xususan A.A.Kun Shahrisabzning 14 ta guzarga bo'linishi to'g'risida yozadi. Uning bu boradagi ma'lumotlariga keyinchalik aniqlik kiritildi. Jumladan 1948 yilda Shahrisabz etnografik tatqiqotlar olib brogan. O.A. Suxareva Shahrisabz 14 ta emas 52 ta guzarga bo'lingani aniqladi. Shahrisabz guzarlari, ularning aholisi tarkibi, hunarmandligi kabi masalalar ham ushbu olim tomonidan ancha batafsil yoritilgan.

Shahrisabzga bir nechta bozor mavjud bo'lib, asosiysi- shahar bozori bek o'rdasining janubida joylashgan. Bu joyda hozirgi paytda ham savdo inshooti Chorsu saqlanib qolgan. Mutaxassislar fikricha, bu bino XVasr oxiri- XVI asr boshlarida barpo etilgan. .[21].


XVIII- XIX asrlarda Shahrisabz paxsa devor bilan o'ralgan bo'lib, olti darvozaga ega bo'lgan. Bular quyidagilardir:

Shimoliy darvoza –Kitob darvoza yoki ark darvoza deb ataladi. Birinchi nom ushbu darvoza orqali o'tgan Kitobga olib boruvchi yo'l bilan bo'liq bo'lsa, ikkinchi nom darvozaning Shahrisabz begi Qo'rg'oni yonida joylashganligi bilan bo'liq. [17].

Sharqiy darvoza-Kunchiqar darvoza;

G'arbiy darvoza - Kushxona yoki Chiroqchi darvoza. Ushbu darvoza Chiroqchiga olib boruvchi yo'l o'tgan.

Janubiy darvoza – Chirmgar yoki Yakkabog' darvoza. Darvozaning birinchi nomi ushbu guzarlar bilan, ikkinchi nomi darvoza orqali o'tgan Yakkabog'ga boruvchi yo'l bilan bog'liq.



12-rasm.(Shahrisabz shaxri markazi rejasi darvozalar joylashuvi)

So'ngi o'rta asrlarda shaharda 6 ta madrasa faoliyat ko'rsatgan. Afsuski ularning ko'pchiligi bizning davrimizgacha yetib kelmagan. Bu davrda Shahrisabzda yettita karvonsaroy ham mavjud edi. Saqlanib qolganlari ichida XVI asrda barpo etilgan Koba karvonsaroyi o'zining yirikligi bilan va hashamatligi bilan ajralib turadi. Bu yerda hozirgi paytda shahar o'lkashunoslik muzeyi joylashgan. Aholi shahardagi ikkita hammomning vujudga kelishi davrini bekliklar davri, ya'ni XVIII- XIX asrlar bilan bog'laydi. Lekin tadqiqotchilarning fikricha, ular ancha ilgari, hatto Samarqand va Buxorodagi hammomlardan oldin bunyod qilingan. Shahrisabz hammomlari boshqa joylarda ham o'zining “davolovchi” xususiyati bilan mashhur bo'lib, odamlar turli

joylardan bu yerga davo istab kelishgan. Shahar tashqarisida, uning shimoliy tomonida Nomozgoh masjidi mavjud bo'lib, hozirda saqlanib qolgan emas. Shunigdek, har bir guzar o'z masjidiga ega bo'lgan. Tadqiq qilinayotgan davrda Xo'ja Muhammad, Chubin va Hazrati Malik Ajdar masjidlari ham shahardagi asosiy masjidlardan hisoblangan. [21]

Me'morlik mazkur davrda voha me'morligi rivojiga, xalq me'morligi darajasiga baho berilar ekan, voha me'morligining turli inshootlar va imoratlar qurilishida mahalliy tabiiy xususyatlardan kelib chiqqanligi va qurilishda mahalliy materillardan keng foydalanganligi ta'kidlab o'tish lozim.

O'rganilayotgan davrdagi mavjud ijtimoiy-siyosiy vaziyat vohada mudofaa me'morligi rivijlanishiga olib keldi. Xususan, yuqoridq ko'rib o'tganimizdek, katta hududlarni mudofaa qilishga moslashtirilgan himoya devorlari, mustahkamlangan qo'rg'onlar, to'pxonalar, kuzatuv joylari qurilishi shundan dalolat beradi. Shu tufayli ularning ba'zi birlarida arxeologik tadqiqotlar o'tkazildi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, bu turdagi inshootlarni qurishda, avvalo, ularning joylashgan o'rniga katta e'tibor berilgan. Ular asosan voha orqali o'tuvchi yo'llar yoqasida joylashgan.

XVIII – XIX asrlar qo'rg'onlar qadimgi va ilk o'rta asrlar yodgorliklari o'rnida joylashgan. Qo'rg'onlar qad ko'targan tepaliklarning ko'pchiligida qalin madaniy qatlamlar mavjud. Qo'rg'onlarning asosiy ko'pchiligi 10m ga yaqin va undan baland tepaliklar ustida joylashgan. Masalan O'rtaqo'rg'on arkining balandligi devojir saqlanmagan joyida 11metr teng bo'lsa, Pistaxon qo'rg'oni 8 metr, Lashkartepa 10 metr, Qo'rg'ontepa 15 metr balandlikda joylashgan. Ba'zi yodgorliklarning qanday madaniy qatlamlar ustida turganligi maxsus o'rganildi. O'rtaqo'rg'on arki o'rnida ilk manzilgoh IX – X asr larda vujudga kelgan bo'lib, bu yerda aholi ba'zi uzilishlar bilan XVII asrboshlarigacha yashagan. Manzilgohning ilk gullab yashnagan davri X- XII asrlarga to'g'ri keladi. XVII – XVIII asr boshlarigacha bo'lgan davr da manzilgohda hayot to'xtagan. XVIII asrdan manzilgoh hayotida yangi davr

boshlanib, bu yerda beklik mudofaasida muhim ahamyatga ega bo'lgan qo'rg'on qad ko'tarilgan. .[21].

XIX asrdan boshlab vohada devor qurilishida guvalaklardan foydalanish keng qo'llanila boshlagan. Shahrisabz, Kitob, Chiroqchi va Sharqiy Qashqadaryoning bosqa hududlarida ham shu hol kuzatilgan. O'rganilgan qo'rgonlarda devorlar qurilishida 12 sm hajimdagi paxsa devorlardan foydalanilganini ko'rish mumkin.

Shahrisabz vohasida sinch uylar poydevorsiz qurilgan Qashqadaryo vohasi me'morligi tarixini o'rgangan V.A.Vororina sinch uylarning poydrvorsiz qurilishini vohada yer qatlamining zichligi, uning xususiyatlari bilan bo'lab, bunday yer qatlami o'z holicha yengil sinch uylari uchun ishonchli va mustahkam asos bo'lib xizmat qilganligini yozadi. Imoratlarni tiklashda "Yaksinch" va "qo'shsinch" uslublaridan birgalikda foydalanilgan. Masalan O'rtaqo'rg'onda o'rganilgan imoratlarda barcha xonalar uchun umumiy bo'lgan janubiy va shimoliy devorlar "qo'shsinch" oraliq devorlar va "yakkasinch" uslubida qurilgan. Xonalar ustki qismi bolorlar bilan yopilib, bolorlar ustki qismi vassa yotqizilgan. Qazishmalar paytida "plta vassa" deb nomlanuvchi vassaning turli bo'lakchalari ko'plab topildi. Binolarning qurilish uslubi bir xilda bo'lish bilan birga ularning bezashda o'ziga xos xususiyatlar ham mavjud. Maslan Bekliktepadagi saroy binosining poli pishq g'ishtlardan ishlangan Bolaliktepadagi ustki qismilariga jimjimador bezaklar bilan naqish berilgan toshnob va sandallar ham O'rtaqo'rg'ondagi sandal va tashnoblardan ajralib turadi. Bezaklardagi ko'p sonli girih va islmiy shakldagi turli xil ranglardagi ganj bo'laklari ham O'rtaqo'rg'ondagi oddiy va ko'pincha bir xildagi ganj bo'laklaridan tamomila farq qiladi. Albatta bu farqlarni bekliklarning markaziy qo'rg'oni (Bekliktepa) va qishloq qo'rg'oni (O'rtaqo'rg'on) o'rtasidagi tafovut bilan izohlash mumkin.

I bob. bo'yicha xulosa.

O'rta Osiyo shaharsozlik va me'morchilik tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Davlatimizda tarixiy markazlarni saqlash va kopleks rivojlantirishda bosqichma bosqich rivojlanib kelgan tarixiy shaharlarni o'rganib chiqishni taqozo etadi. Shahrisabz shahrida o'tkazilgan arxologik qazish ishlarida madaniy qatlamlarning o'rganish natijasida vohada me'morchilik yuksak darajada rivojlangan deyish mumkin. Yuqorida keltirib o'tilgan manbalarda vohada ilk manzilgohlar temir davridan boshlangan degan xulosaga kelish mumkin. bu yerda me'morlik rivojlanish juda erta boshlangan. Shahrisabz rivojlanish davrlarda turlicha nom bilan atalgan. Bunga misol qilib Suse, Sangirtepa, Podayotoqtepa, Uzunqir, Kesh deb nomlangan. Buyuk davlat arbobi sarkarda Amir Temur davridan boshlab Shahrisabz deb atalgan.

Shahisabzning rivojlanish boqichlarini quyidagicha davrlarda bo'lishi mumkin.

- 1 – Ilk asrlar mill.avv. I-VI asrlar bunga (Temir davri va Zardushtiylar davri).
- 2 - O'rta asrlar mill. avv.VI-XI asrlar bunga (Arablar va Qoraxoniylar hukumronlik qilgan davr).
- 3- XII- XVI asrlar bunga (Mug'ullar davri va Temur va Temuriylar davri).
4. XVI- XIX asrlar bunga (O'rta Osiyo xonliklari va Chor Rossiyasi davri)
5. XIX asr oxir va XX asr bunga (Sovet ittifoqi va mustaqillikkacha bo'lgan davr).
- 6 .XX asr oxiri va XXI asr boshlari bunga (Mustaqillik davri).

“Qubatul –iim al- adad” sifati bilan fath etilgan shahhar –yigirma ikki yillik asrlik Shahrisabz hamma vaqt kishilarda katta qiziqish uyg'otib kelgan va hozir ham shunday . Uning g'aroyib afsonalari chulg'agan, shuhrati so'nmas voqealarga boy tarixi arxeologlar tomonidan shaharlarda hamda bizning kungacha saqlanib qolgan me'moriy yodgorliklarda o'z aksini topgan.

Shahrisabz o'sha zamonlardan boshqacha Qashqadaryo yuqori oqimining qadimgi nomi va uning hozirgi Kitob yaqinidajoylashgan ilk poytaxti nomi bilan-Keshdeb atalgan.

XV asr tarxcilaridan biri tomonidan ohangdor qilib Kesh –Dilkash deb atalgan. Kesh Shahrisabzga shuhrat keltirgan narsalar aynan ulug'vor me'moriy yodgorliklardir.

Bu shahar garchi, Buxoro, Xiva , Samarqanddan farqli ravishda, hech qachon o'rta asrlar davlatining poytaxti bo'lmagan esa-da, shahar qurilishi hamda me'moriy yodgorlik bo'yicha O'zbekiston va jahonning tarixiy shaharlari qatoriga haqli ravishda kiritilgannodir obidadir. O'rta asrlar me'morligi yuksak darajada rivojlangan, buyik tarixiy arboblari –Amir Temur va Mirzo Ulug'bek hukmronlik qilgan davr bo'lmish XIV asr oxiri-XV asrda yaratilgan buyuk obidalar aynanshu yerda saqlanib qolgan.

Sohibqironning asosiy shuhrati shu yerdan boshlanadi, uning padari buzriqvari, farzandi arjumandlari va xeshu aqobalari shu yerda orom topishgan. Shu bois ulkan saltanat hukmdori bo'lgach, Shahrisabzga alohida ko'ngil bog'lab, hatto un buyuk imperyaning poxtiga aylantirishni niyat qilgandi. Biroq davlat miqiyosdagi tafakkuri poytaxt maqomini Samarqandga qolishga undadi. Sundau bo'lsada Sharqning donishmand hukmdori kindik qoni to'kilgan shahriga otalarcha g'amxo'rlik qildi. Bu yerda uning armu farmoni bilan ko'plab ulug'vor imoratlar barpo etildi. O'sha qurilishning o'z ko'zi bilan ko'rganlar shahardava uning atrofida ko'plab ulug'vor imoratlar hashamatli turar joylar , qasrlar, masjidlar, madrasalar, xonaqolar, karvonsaroylar bo'lgani qayd etilishgan. Bu imoratlarning hammasi ham saqlanib, qolmagan, ko'lari vayrona holda yetib kelgan bo'lsada , Kesh – Shahrisabzning dong'ini taratgan aynan shu yuksak darajadagi me'moriy obidalar bo'lib, ular shakli shaymoili va ko'rki bilan Temuriylar poytaxtlari bo'lgan Samarqand va Hirotidagi imoratlardan qolishmaydi.

II BOB. SHAHARLAR TARIXIY MARKAZLARINI SAQLASH VA KOMPLEKS RIVOJLANTIRISH KONSEPSIYALARINING ILMIY- LOYIHAVIY TAHLILI.

2.1. O'zbekiston shaharsozligida tarixiy markazlarni saqlash va rivojlantirishning ilmiy-loyihaviy yechimlari tahlili.

Respublikamizda oxirgi paytlarda arxitektura va shaharsozlikka katta e'tibor berilmoqda. Ayniqsa, shaharlarning rekonstruksiyasi, tarixiy va eski shahar qismlarini qayta tiklash masalalari Respublika rahbariyatining diqqat markazida turibdi. Respublika Prezidentining 2012 yil 12 martda qabul qilingan “Toshkent shahri Eski shahar qismini shaharsozlik rivojlantirish va obodonlashtirish Dasturini ishlab chiqish” to'g'risidagi R-3806 sonli farmoyishi nafaqat Toshkent shahri, balki Samarqand eski shahar qismi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Shu farmoyish asosida Samarqand arxitektura va shaharsozlik bosh boshqarmasi, Toshkentboshplan LITI Samarqand filiali, O'zbekiston Me'morlar uyushmasi qoshidagi ustaxona, SamDAQI arxitektura fakulteti kabi tashkilot va muassasalar ushbu dolzarb muammoni ishlab chiqish ustida ish olib bormoqdalar. O'zbekistonda 17 ta tarixiy shahar mavjud bo'lib, shulardan Shahrisabz, Buhoro, Samarqand, Xiva shaharlari eski shahar qismlari va ulardagi tarixiy obidalar YUNESKO ro'yhatidan joy olgan. Shu vaqtgacha tarixiy shaharlarning eski shahar qismlariniqayta tiklash ishlari faqatgina donabay tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash bilan cheklanib kelgan. Samarqand eski shahar qismini qayta tiklash muammosini hal qismlarini qayta tiklash ishlarining jonlanishiga sabab bo'lib kelmoqda.

Markaziy Osiyo respublikalari, shu jumladan O'zbekistonda XX asr boshlari va o'rtalaridagi shaharsozlik va landshaft arxitekturasining shakllanishi va uning g'oyaviy yo'nalishini belgilashda sobiq sovet hukumatining 1935 yilda qabul qilingan «Moskva shahrini qayta qurishning bosh rejasi» haqidagi qarori muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki, Markaziy Osiyo Respublikalarining barchasi 1924 yildan boshlab Sobiq SSSR davlati tarkibiga kiritilgan edi. Shuning uchun

ham Moskva shahrini qayta qurish va rivojlantirish loyilasida ko'rsatilgan aksariyat me'moriy va shaharsozlik tamoyillari Markaziy Osiyo respublikalarining poytaxtlari - Toshkent, Samarqand, Dushanbe, Olma-ota, Ashhabod, Bishkek shaharlarining ham bosh rejalarini ishlab chiqishda asos bo'lib xizmat qildi. Shuni ta'kidlash zarurki, ushbu shaharlarning bosh rejalarini loyihalashda mahalliy shaharsozlar bilan bir qatorda Moskva va Leningradlik me'morlar ham faol qatnashdilar. Bu loyihalarda qaralgan masalalar nafaqat rejaviy, texnikaviy, ekologik va transport muammolariga, balki ko'kalamzorlashtirish va landshaft arhitekturasini va bog'-park san'atiga ham aloqador edi. Jumladan, dastlab 1924-1931 yillarda, so'ngra 1933-1937 yillarda ishlab chiqilgan Toshkent shahrini qayta rejalashtirish va ko'kalamzorlashtirish loyihalarida «eski» shahar bilan «yangi» shaharni qo'shib, yahlit bir shaharsozlik organizmini vujudga keltarish, yangi turar joy hududlari va shahar markazini yangitdan tashkil etish, transport magistrallarini o'tkazish, bog'-parklar, xiyobonlar bunyod etish, shahar hududidan o'tuvchi mavjud suv havzalaridan foydalanib, ularning sohillarida ko'kalamzor istirohat maskanlarini tashkil etish ko'zda tutildi. [2].

1981 yilda Samarqand shahri markazining batafsil rejaviy loyilasi shakilanib, unda shahar markazini, ayniqsa uning markaziy xiyobonini janub tomoniga to Lolazor mavzesigacha kengaytirish ko'zda tutildi. Loyihada bog'-park san'ati va landshaft ob'ektlarining uzluksiz yahlit tizimini yaratish va ularning mavjud eini me'moriy ob'ektlarga tenglashtirish g'oyasi ilgari surildi.

Shaharda landshaft arxitekturasining tarixiy shaharlarga xos juziy ob'ektlari mavjud. Ulardan biri dastlab Abramov, so'ngra M.Gorkiy, hozir esa «Universitet xiyoboni» deb nomlanuvchi bulvardir. U 1870 yillarda bunyod etilgan. Xiyobonning ayrim joylariga toshdan ishlangan baralef haykallar o'rnatilgan. Bulvarning bir tomonida Alisher Navoiyning tik turgan haykali va uning atrofidagi gulzor, ikkinchi tomonda esa Amir Temur siymosi gavdalangan me'moriy majmua joylashtirildi. Ushbu majmuadan shimol tomonda Hamid Olimjon nomidagi teatr binosi oldida katta skver tashkil etilib, undagi xiyobon

va gulzorlar aro o'ziga hos Pag'onali otma favvoralar ansambli ishlangan. Huddi shunday zamonaviy otma favvoralar va chaman-gulzorlar ushbu skver va bulvarga yaqin joylashgan Afrosiyob mehmonhonasi, Amir Temur va Ruhobod maqbara majmualari boshida va ularga boradigan yo'llar uzra ham tashkil etilgan.

Samarqanddagi Registon me'moriy ansamblining maydonini qayta tiklash loyihasiga ko'ra (1968 yil) ansambl atrofidagi sobiq ittifoq davrida shakllangan jamoat binolari buzib tashlanib, ularning o'rniga bog'-park hududi va gulzorlar vujudga keltirildi. Biroq, bu harakat Registon ansambliga ijobiy ta'sir ko'rsatmadi. Ulug'vor ansambl yangi yaratilgan keng muhitda o'zining asl masshtabini yo'qotib, muzeyga qo'yilgan suniy eksponatga o'hshab qoldi, negaki u atrofidaga o'ziga «qovdosh» bo'lgan tarixiy muhit ko'lami va unga mos tushgan handasaviy uyg'unlikdan judo bo'ldi. [6].

Samarqandning yangi shahar markazida vujudga kelgan keng ma'muriy maydon o'z ko'ra behad yirik hisoblanib, uning landshaft echimi takomiliga etkazilmagan. Aksariyat qismiga asfalt beton, qolganiga yirik beton plitalar va tosh to'shalgan katta keng ochiq maydon yozning jazirama issiq kunlari yanada isib, qishda esa sovub ketadi. Maydon iqlimini muvofiklashtirish va maydonning me'moriy-landshaft echimini yaxshilash maqsadida bu erda «Favvoralar bog'i» bunyod etilmoqda. Bundan tashqari vazifasidan qat'iy nazar maydonda yopiq yashil muhit hajmini oshirish, uni an'anaviy chorbog' va hiyobon uslubida shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

Eski shahar qismini qayta tiklashning quyidagi muammolarini ko'rsatib o'tish mumkin:

- Transport muammolari- magistral ko'chalarni o'tkazish, mahalliy yo'l, tor ko'chalar tizimini tartibga solish, shahsiy mashinalarni saqlash;
- Injener - texnik infrastruktura muammolari asosan kanalizasiya bilan bog'liq;
- Jamoat hizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish;
- Uy-joylarni qayta tiklash;

- Tarixiy va madaniy yodgorliklarni qayta tiklash;
- Landshaft ekologik: irrigasiya tizimini jamoat binolari oldidagi ko'kalamzor hududlarni qayta tiklash.

Yuqoridagi muammolarni hal etish bo'yicha quyidagilarni taklif etish mumkin.

Asosiy g'oya shundan iboratki, eski shahar qismi shaharsozlik yodgorligi deb hisoblanishi lozim. Eski shahar aholisi to'la qonli hayot kechirishi kerak: uy-joylar tarixiy ko'rinishga ega bo'lgani holda zamonaviy injenerlik kommunikasiyalari bilan ta'minlanishi madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish, transport xizmati kabilar bilan qamrab olinishi lozim.

Shahar ahamiyatidagi magistral ko'cha eski shaharning yer ostidan o'tkaziladi. hozirgi mavjud Toshkent, Registon, Penjikent va So'zangaron ko'chalari esa tuman ahamiyatidagi ko'chalar vazifasini o'taydilar. Mahalliy ko'chalar va tor ko'chalar yengil mashina o'tadigan qilib tartibga solinadi.

Eski shahar qismida elektr gaz ta'minoti, vodoprovod to'liq o'tkazilgan, telefon aloqasi mavjud, eski shaharning tarkibiy ko'rinishini saqlash uchun faqat kommunikasiyalarni yer ostidan o'tkazish lozim. Kanalizasiya bilan ta'minlanganlik 60% atrofida, bu masalani ham hal qilish texnik jihatdan muammo tug'dirmaydi. Umuman olganda, zamonaviy kommunikasiyalar bilan ta'minlash muammosini to'liq hal etish mumkin.

Jamoat xizmat ko'rsatish markazlarini tashkil etish uchun tarixan mavjud bo'lgan guzarlar va mahalla markazlarini qayta tiklash, bog'larini jonlantirish zarur. [6].

Mavjud muammolar ichida eng muhimi uy - joylarni qayta tiklash masalasidir. Eski shahardagi uy-joylarning konstruksiyasi asosan yog'och sinch va paxsa devordan iborat bo'lib, ular kapital konstruksiya emas deb hisoblab kelingan. Devorlar va tomlar somon suvoq bilan suvalgan. hozirga kelib hatto rivojlangan mamlakatlarda loy-tuproq materialining ekologik talablarga javob berishi, issiq-sovuqni yaxshi ushlashi, arzonligi kabi hislatlari uchun tan olinib, qurilishda keng qo'llanilmoqda (zamonaviy texnologiyalar

asosida). Samarqand shahrida qurilgan ko'plab bino va kichik tumanlar muallifi A.Kosinskiyning fikricha "Ma'lum bo'ldiki, an'anaviy somon-tuproqli turar joy muhiti yo'q qilinishi va unutishga loyiq bo'lgan antisanitar tartibsizlik emas, balki ko'p asrlik tajribani o'ziga qamrab olgan tirik organizmdir, u insonga O'rta Osiyoning ekstremal iqlimiy sharoitlarida normal hayot kechirish va mehnat qilishga imkon beradi". Umuman olganda, eski shahardagi uy-joylarni 3 ta kategoriyaga bo'lish mumkin:

1. Tarixiy va madaniy yodgorliklarni saqlash boshqarmasi ro'yxatida bo'lgan, tarixiy va me'moriy qimmatga ega uy-joylar;
2. Yahshi saqlangan, lekin joriy ta'mirga muhtoj uy-joylar.
3. Tarixiy va madaniy qimmatga ega bo'lmagan, yahshi saqlanmagan yoki avariya holatidagi uy-joylar.

Birinchi tip uy-joylar holatiga qarab o'lcham va chizmalar bo'yicha qayta tiklanadi yoki joriy ta'mir qilinadi. Ikkinchi tip uy-joylar esa joriy ta'mir qilinadi. Uchinchi tip uy-joylar buzib tashlanib, ularning maydon chegarasi va oldingi qavati saqlangan holda yangi uy-joylar quriladi. Bunga alternativ bo'lib bo'shagan maydondan mahalla guzarini kengaytirish yoki dam olish uchun kichik ko'kalamzorlar tashkil etish uchun foydalanish mumkin. Yangi uy-joylar qurilishi atrofdagi yodgorliklar, uy-joylarning xarakteri va masshtabini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim. Uy-joylarni qayta tiklashda yana shuni hisobga olmoq kerakki, ilgari 2-qavati uylarning ko'chaga qaragan 1-qavati hunarmandlar ustahonasi yoki do'kon bo'lgan. Mahallalar hunarmandlarning turiga qarab atalgan. Masalan degrezchilar, kosiblar, qandolatpazlar va hokazo. Eski shaharni qayta tiklash hunarmandchilik va kasanachilikni ham tiklanishiga va demak, yangi ish joylarini paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Eski shaharda tarixiy va madaniy yodgorliklar juda ko'p. Ishni ularning to'liq ro'yxatini tuzishdan va atrofidagi qurilmalarga mos holda ta'mirlab, zamonaviy funktsiya berishdan boshlash kerak. Ayniqsa, misol qilib poytahtimiz Toshkent shahrining 12 ta darvozasi o'rnilarini belgilab, simbolik kichik shakllar, bino yoki qurilmalar orqali ifodalansa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Eski shahar oldingi “Aroq zavodi” hududida joylashgan “Chashma” bulog’i bilan chambarchas bog’liq. Ilgari undan ko’plab ariq va ariqchalar tarqalib, ekinlarni sug’orishga, atrof-muhit havosini sovutishga hizmat qilgan. Chashma bulog’ining bo’yi ikkala tarafdin ko’kalamzor, ozoda joy bo’lib, aholining dam olishiga, shifobahsh suvidan bahramand bo’lishgaxizmat qilgan. hozirda bu buloqning bo’yida har hil imoratlar, qurilmalar bilan to’silgan bo’lib, estetik jihatdan noqulay ko’rinishni olgan. Buloqning bo’yini turli xil qurilmalardan tozalab, ko’kalamzorlashtirib, obodonlashtirib, aholi dam oladigan so’lim oromgohga aylantirish maqsadga muvofiq ish bo’lar edi. Mahalla markazlarida ham kichik bog’lar tashkil etilsa, bu bog’lar o’zaro va Chashma bulog’i atrofi ko’kalamzori bilan bog’lansa - bu ham eski shahar muhitini tiklashga katta hissa bo’lib qo’shilar edi. [10].

2017 yil 19 may kuni O'zbekiston Respublikasi prezidentining «2017–2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 2980-sonli qaror qabul qilindi.

Buxoro — Markaziy Osiyoning eng qadimiy shaharlaridan biri, Buyuk Ipak yo'lidagi eng yirik va mashhur markazlardan hisoblanadi. Shahar minglab yillar bilan o'lchanadigan o'zining boy va unikal barpo etilish tarixi, madaniy-ma'rifiy va ma'naviy-diniy qadriyatlarning rivojiga qo'shgan hissasi bilan butun jahonga dong'i ketgan.

1993 yilda Buxoro shahrining tarixiy markazi YuNeSKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan.

Bugungi kunda Buxoro viloyatidagi turizm sanoati va infratuzilmasini rivojlantirish bilan shug'ullanayotgan sub'yektlar soni ishonchli tarzda ortib borayotganiga qaramasdan, hududning sayyohlik salohiyatidan yetarli tarzda samarali foydalanilmayotganini qayd etish zarur, deyiladi prezident qarorida.

Qarorga ko'ra, Buxoro shahri va Buxoro viloyatida shahar tansport infratuzilmasi, sayyohlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan sub'yektlar va Yevropa, Afrika, Osiyo va MDH davlatlaridan sayyohlar oqimini samarali jalb

etish uchun zamonaviy mehmonxonalar sonini oshirish borasida kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish talab etiladi.

Prezident qaroriga ko'ra, «2017–2019 yillarda Buxoro shahri va Buxoro viloyati sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish Dasturi» tasdiqlangan va uni amaliy tatbig'ini quyidagi ustuvor yo'nalishlarda samarali tarzda amalga oshirish ta'minlanadi: [3].

- yangi mehmonxonalar, madaniy-sog'lomlashtirish va savdo-ko'ngilochar markazlar va turizmni rivojlantirish uchun zarur sharoitlarga ega boshqa sayyohlik infratuzilmalari ob'yektlarini qurish;
- umumiy ovqatlanish tizimini takomillashtirish, jumladan, zamonaviy restoranlar qurish, madaniy meros ob'yektlarida o'zbek milliy musiqasi teatrlashtirilgan tomoshalarini o'tkazish, milliy urf-odatlarni namoyish qilish hisobidan sayyohlarning kechki dam olishi uchun sharoitlar yaratish;
- transport xizmatini yaxshilash, avia va temiryo'l infratuzilmasini aviareyslar soni va «Afrosiyob» elektropoyezdi reyslari sonini oshirish yo'li bilan rivojlantirish, Buxoro shahrining tarixiy qismi atrofida sayyohlarga xizmat qiladigan maxsus kompaniya tuzish, sayyohlik namoyishi ob'yektiga olib boradigan avtomobil yo'llarini rekonstruksiya qilish;
- Buxoro shahri hududini obodonlashtirish Buxoro shahrining markaziy qismining detallashtirilgan yangi rejasi loyihasini tasdiqlash, shahar markazida suvenir va sovg'alar do'konlarining maxsus tarmog'idan iborat yangi «savdo» ko'chasini yaratish, sayyohlik infratuzilmasi ob'yektlariga bankomat va terminallar o'rnatish, valyuta ayirboshlash shoxobchalari tashkillashtirish, sayyohlar ommaviy yig'iladigan joylarda xalqaro Internet axborot tarmog'iga ulanish imkoniyatini beradigan Wi-Fi zonalar tashkil etish;
- «Ipak va ziravorlar», «Qovun sayli», «Shahar kuni», «Sharq taomlari», «Buxoro hunarmandlari» kabi festivallar tashkil etish orqali Buxoro shahri brendini olg'a siljitish va mashhur qilish yuzasidan keng ko'lamli reklama kampaniyasi o'tkazish, xorijiy sayyohlik tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari vakillari uchun info-turlar tashkillashtirish, shuningdek, ommabop

xorijiy telekanallarda va maxsus veb-saytlar va ijtimoiy tarmoqlarda shaharning tarixi va osori atiqalariga bag'ishlangan ma'lumotlar joylashtirish orqali sayyohlik salohiyatini ilgari surish; [4].

- Buxoro shahri va Buxoro viloyati turizm sohasi uchun kadrlar tayyorlash;
- yangi sayyohlik yo'nalishlari yaratish va turizmning yangi ko'rinishlarini rivojlantirish, jumladan, Shofirkon tumanidagi «Agutma» ko'li atrofida turizm infratuzilmasini rivojlantirish, «Jayron» ekologik markazi «Tashrif markazi»da kapital ta'mirlash o'tkazish va uning atrofida zoologik bog' barpo etish, Peshku tumanining «Qoraqir» ko'lida ov, plyaj va sport turizmi bilan shug'ullanish uchun zarur sharoitlarni ta'minlash, «Afshona» muzeyi atrofidagi hududni obodonlashtirish hamda maxsus davolash uylari qurish;
- 2017–2021 yillar mobaynida sayyohlik xizmatlari hajmini 2,1 martaga, sayyohlar sonini — 1,9 martaga oshirishga erishish.

Dasturning amalga oshirilishini nazorat qilish uchun Ishchi guruh tuzilgan va unga bosh vazir A.N.Aripov rahbar etib tayinlangan.

Buxoro viloyati hokimligi va O'zbekiston Respublikasi arxitektura va qurilish bo'yicha Davlat qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi madaniyat vazirligi, O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi hamkorlikda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi arxitektura-shaharsozlik Respublika kengashiga uch oy ichida o'rnatilgan tartibda Buxoro shahri markaziy qismining detallashtirilgan rejasi loyihasini taqdim etadi;

YuNeSKO va xalqaro moliya institutlari ko'magida Buxoro shahrining tarixiy qismini uzoq muddatli rejalashtirish va moddiy madaniy meros ob'yektlarini restavratsiya qilish uchun Yevropa davlatlaridan yetakchi ekspert-maslahatchilar jalb qilinadi. [5].

Qaror matniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Buxoro viloyat hokimligi, tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki va «Asaka» aksiyadorlik-tijorat bankining quyidagi takliflari ham ma'qullangan:

- Buxoro shahrida «Qadimiy Buxoro» sayyohlik markazi tashkil etish, uning hududida kam qavatli zamonaviy mehmonxonalar, xorijlik sayyohlarning kunu-

tun hordiq chiqarishini ta'minlaydigan madaniy-sog'lomlashtirish va savdo-ko'ngilochar markazlar barpo etish;

Buxoro shahrining tarixiy qismi («Shahriston» bozori hududi) da milliy me'morchilik an'alariga xos stilistik, dekorativ usullarni qo'llagan va hunarmandlar rastasi va yopiq bozor tarixiy ko'rinishini saqlagan holda ikki qavatli hunarmandchilik ustaxonalari va milliy suvenir mahsulotlari, zardo'zlik buyumlari, kitob mahsulotlari, meva va sabzavotlar, shirinliklar va sayyohlar o'rtasida mashhur boshqa mahsulotlar bilan savdo qiluvchi do'konlar qurish.

Qarorga ko'ra, ushbular belgilab qo'yilmoqda:

- O'zbekiston Respublikasi tashqi iqtisodiy faoliyat Milliy banki «Qadimiy Buxoro» sayyohlik hududi qurilishi» loyihasini moliyalashtirish sxemasini tashkillashtiruvchi vakolatli bank hisoblanadi, shu jumladan, rossiyalik ishbilarmon A.B.Usmonovning to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari va xayriya mablag'laridan ham foydalaniladi.

- «Asaka» aksiyadorlik-tijorat banki «Buxoro shahrining tarixiy qismida hunarmandlar kvartali qurish» loyihasini amalga oshirish doirasida vakolatli bank hisoblanadi va hunarmandlar hamda qurilgan ob'yektlarni xarid qilish istagida bo'lgan tadbirkorlik sub'yektlari uchun imtiyozli tijorat va ipoteka kreditlari ajratilishini ta'minlaydi.

«Qadimiy Buxoro» turizm zonasi hududida faoliyat ko'rsatadigan tadbirkorlik sub'yektlari hamda investitsiya kompaniyalari 2020 yilning 1 yanvariga qadar:

- yer solig'i, foyda solig'i, yuridik shaxslarning mulk solig'i, mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun yagona soliq to'lovi, shuningdek, VM huzuridagi Respublika yo'l fondiga hamda O'zbekiston Respublikasi moliya vazirligi qoshidagi ta'lim va tibbiyot muassasalarining byudjetdan tashqari moddiy-texnik bazasini rivojlantirish fondiga majburiy ajratmalardan ozod etiladi.


Shuningdek, ular o'z ehtiyoji uchun o'rnatilgan tartibdagi ro'yxatga ko'ra olib kirayotgan, O'zbekiston Respublikasida ishlab chiqarilmaydigan asbob

uskunalar, xomashyo, butlovchi buyumlar, qurilish va boshqa materiallar uchun bojxona to'lovlari (bojxona yig'imlaridan tashqari) dan ozod qilinadi.

Buxoro viloyati hokimligiga ikki oy ichida kamida 10 gektar maydonga ega bo'luvchi «Qadimiy Buxoro» turizm zonasi hamda hunarmandlar kvartalining aniq chegaralarini aniqlashtirish, shuningdek, investitsiya kirituvchi kompaniyalarga qurilish uchun yer maydonlari ajratib berish vazifasi topshirilgan.

Qarorga ko'ra, 2021 yiga qadar «Ark» kompleksi to'liq restavratsiyadan chiqariladi, uning ichki hovlisining vayron qilingan qismi qayta tiklanadi (tozalanadi).

O'zbekiston Respublikasi turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va Buxoro viloyati hokimligi bilan birgalikda Buxoro shahri va Buxoro viloyatiga sayyohlar oqimini ko'paytirish vazifasi yuklatilgan. Bu yo'lda Sharq gavhari, deya tan olingan unikal muzey-shahar sifatida Buxoro brendini ishlab chiqish, 2017–2019 yillarda «Muqaddas Buxoro — Islom ma'rifati o'chog'i» shiori ostida keng qamrovli reklama kampaniyasini tashkil etish va bu yo'lda milliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarini jalb qilish ishlarini amalga oshirish belgilab qo'yilgan.



13-rasm.(Buxoro shaxri markazi rejasi)

2.2. Shahrisabz shaharsozligi va undagi me'moriy obidalar.

Shahrisabz - O'rta Osiyo xalqlari me'morchiliklik va shaharsozlik sohasida erishgan noyob yodgorliklar joylashgan maskandir. Bu erda XIV asr oxiri va XV asr 1-yarmida qurilgan mashhur obidalar saqlanib qolgan. Ular Amir Temur va Mirzo Ulug'bek tashabbusi bilan bunyod etilgan.

Shahrisabzning me'moriy obidalaridan Oqsaroy qasri O'rta asrlarga oid buyuk me'moriy yodgorlikdir. Hozir undan ulkan peshtoqning ikki qudratli ustunigina saqlanib qolgan. Lekin sharq mualliflari uning dastlabki qiyofasining tasvirini qoldirganlar.

Nizomiddin Shomiy: "Uning peshtoq va rovoqlarini Ayyuq (yulduziga) etkazdilar, chunonchi, biron kimsa jahonda unga teng keladigan imoratni ko'rmagan va eshitmagan edi",- deb yozgandi. [15].

Sharafuddin Ali Yazdiy Oqsaroyi yanada hashamatli tasvirlagan: "Bahor vaqti ul shaharning tomu toshi ko'm ko'k bulur va ko'k ko'rung'on jihatidin anga Shahrisabz ot bo'lub turur. Sichen yilda, torih etti yuz seksan birda(1380,mart) ul shaharga qal'a soldurdi va jahdlab tamom qildurdi. Va andoq shahri bo'ldikim, gardun Muhandisi muncha yoshi bilan olamni kezib, hech bir erda mundoq shahar va ko'shk ko'rmagan turur"[30].

Hofizi Abru bunday deb yozgandi: "Onhazrat(Amir Temur) janoblari hurmatidan buyuk qasr qurdilarkim, hozir Oqsaroy nomi bilan mashhur turur". Bu, hozir biz tushungan ma'nodagi mahobatli bino yoki saroy, imoratdir. hatto Alisher Navoiy davridaham "ayvon"deganda saroy nazarda tutilgan [37].

1404 yilda Samarqandga ketayotib Shahrisabzda bo'lgan Rui Gonzales de Klaviho kundaligida Oqsaroy haqida juda qimmatli ma'lumotlar bor:

"Ertasiga, juma kuni (ya'ni 1404 yil, 29 avgustda) elchilarni podshoning buyrug'i bilan bunyod etilgan saroyga olib bordilar. Aytishlaricha, bu erda yigirmayildan buyon har kuni ishlashar ekan. hatto hozir ham ko'p ustalar ishlab turibdi. Saroyning kirish yo'li juda uzun va darvozasi ham juda baland. Kirish joyida, o'ng va chap tomonda koshinlar va turli naqshlar bilan bezatilgan g'ishtin arklar qad ko'targan. Arklar tagida eshiksiz kichik

xonalar bo'lib, ularning sathi koshinlar bilan qoplangan. Bu qoplama shuning uchun qilinganki, podsho saroyga kelgan paytda odamlar bu erda o'tiradilar. Katta darvozalardan so'ng yana boshqa darvoza bor. Undan keyin esa oq toshlar yotqizilgan hovli va hashamatli bezatilgan timlar bor. hovli o'rtasida katta hovuz bo'lib, hovlining eni uch yuz qadam. hovli orqali saroyning eng katta binosiga o'tiladi. Bu binoga kirishda ham juda katta va baland eshik bo'lib, u oltin, lojuvard va koshinlar bilan mo'irona bezatilgan. O'rtada, eshik ustida quyosh uzra sher tasvirlangan, chekkalarida ham shu kabi tasvirlar bor... Bu eshik orqali chorsi qabulhonaga kiriladi. qabulhona devorlari ham oltin, lojuvard va koshinlar bilan bezatilib, ustiga tilla suvi yugurtirilgan. Bu erdan elchilarni yuqori qavatga olib chiqdilar. Bu erda xonalar shunchalar ko'pki, ularni birdaniga tasvirlashning iloji yo'q. Bu erdagi bezash ishlarining barchasi oltin, lojuvard va qimmatbaho toshlardan qilinganki, bunga hatto Parijning mohir ustalari ham qoyil qolishi mumkin "[31].

Oqsaroyning me'moriy qiyofasi haqida tasavvur hosil qilishda Mirzo Boburning ma'lumotlari muhim: "Temurbekning zodu budi Keshdin uchun, shahr va poytaxt qilurg'a ko'b va xo'b ehtimollar qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi. O'ziga devon o'lturur uchun bir ulug' peshtoq va yana o'ng yonida va sul yonida tavochi (navoqi) beklari bila devon beklari o'ltirib devon so'rar uchun, ikki kichikroq peshtoq qilibtur. Yana savrun eli o'ltirur uchun bu devonhonaning har zil'ida kichik - kichik toqchalar qilibtur, muncha oliy toq olamda kam nishon berurlar. Derlarkim, Kisro tog'idan biyikroqtur"[31].

Oqsaroy qurilishining boshlanishi Amir Temurning Xorazm poytaxti Urganchga to'rtinchi yurishiga to'g'ri kelgan. Amir Temur 1379 yilda Urganchni zabt etgach, ruhoniylar, ziyolilar, hamda turli kasb - hunar egalarini Shahrisabzga ko'chirish haqida farmon bergan. Peshtoq bahaybat ustunlarining 47 metr qismi ichki zinapoyalari bilan saqlanib qolgan. Zinapoya bir necha bosqichli, orada xonalari bor. Oqsaroy kirish peshtoqining ikki tomonida asosi ko'p qirrali silindrik minora qad ko'tarib turibdi. Peshtoq kirish joyining eni

22 metr. Kirish joyi bu qadar keng bo'lgan boshqa me'moriy obida O'rta Osiyodagina emas, yaqin atrofdagi mintaqalarda ham bo'lmagan. Oqsaroy qasrida O'rta Osiyo me'morligining yuksak maktabigax xilma -xil uslubdagi bezaklar qo'llangan. Bu naqshinkor va mayolikali sirkor g'ishtdan iborat mozaikadir. Birgina o'yma mozaikaning o'zida etti hil: ko'k, lojuvard, qora, sariq, yashil, oq va tilla rang mavjud. Mayolika esa lojuvard, ko'k, to'q olcha rang, oq, g'ishtin - qizil va tilla rangda berilgan. g'ishtin mozaika bilan asosan peshtoqning yuqori qismlari bezatilgan. Burchak minoralaridagi qur'oniy mazmundagi bitikham g'ishtin mozaika bilan yozilgan. Peshtoq va ayvonning ichki yon devorlariga bezak mo'l berilgan. Bu erda nafis o'yma mayolika va mozaika qo'llangan. Ayrim uslublashtirilgan islmiy naqshlar gilama uslubida ishlangan. Oqsaroyning me'moriy bezagi ko'proq gilama uslubida ishlangan.

Oqsaroy me'moriy bezagida hattotlik san'ati alohida o'rin tutadi. Bu san'at me'moriy inshooatlar bezagining muhim qismiga aylangan. Oqsaroyda arab yozuvining ikki asosiy turi: kufiy va nash hati ko'p qo'llanilgan. Kufiyharflar to'g'ri chiziqli va burchaksimon. Nash hati harflari jimjimador. Oqsaroy bezagida suls, muqaqqaq, rayhoni va boshqa xatlar ham qo'llanilgan. M.E.Masson ikkinchi ravoqning g'arbiy ustuni zanjirasida saqlanib qolgan, Oqsaroydagi sirkor parchin bilan pardozlash ishlari hijriy 797 yil (mil.1394-1395y)da bajarilgani va me'mor Muhammad Yusuf Tabriziy ekanligi haqida ma'lumot beruvchi bitikni o'qigan. Bu bitik ikki bor takrorlangan Oqsaroydan oldin, XI-XII asrlarda ko'rinishi jihatidan unga o'xshash. [32].

Termizshohlar saroyi qurilgan. Saljuqiylar hukmronligi davrida, XI asrda qurilgan Shahri arkdagi hukmdor saroyi tarhi ham Oqsaroyga timsol bo'lgan. [32].

Oqsaroy, so'zsiz, siyosiy ma'muriy va mafkuraviy hokimiyat jamlangan saroylar qatoriga kirgan. Saroy ayni hizmat vazifasi tufayli shahar ichida joylashgan. Saroyning tashqi ko'rinishi ulug'vor bo'libgina qolmay, balki ichki bezaklari hashmador bo'lgan. Kirish peshtoqining, hovli sahni

to'shamasining me'moriy qoldiqlariga ko'ra, Oqsaroy butun Markaziy va Yaqin Sharqda tengi yo'q qasr bo'lgan. Saroy hajmi hashamati bilan zamondoshlar ahlini lol qoldirgan.

Saroyning bunyod etilishida Amir Temur muhim rol o'ynagan, u qurilajak bino o'z kuch - qudrati va hokimiyatini namoyish etishni niyat qilgan. Zero, bosh peshtoq ustuni yon devoriga: "Agar bizning kuch-qudratimizga shubha qilsang, biz qurdirgan imoratlarga boq!", deb yirik harflar bilan bejiz yozib qo'yilmagan.

Shahrisabzning jamoa - diniy zonasi - shaharning janubi - sharqiy qismida XIV-XV asrlarda yirik ma'bara komplekslari bunyod etilgan. Ulardan eng mashhurlari "Dor us- siyodat" va "Dor ut- tilovat". Amir Temur o'zi va avlodlari uchun qurdirgan masjid, madrasa va maqbaralar majmuasi. Sharafuddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobi 1394 yilgi voqealar bayonida: "Amir Temur Shahrisabzda maxsus bino qurilsin, unda o'z o'g'li "Amirzoda Jahongir" va boshqa "amaldor va buzrukvorlar"ning dahmalari qo'yilsin deb farmon bergan. [33].

Dor us-siyodat ulkan bino bo'lib, bo'yi qariyb 70 m ni esa 50 m ga etadi. Kirish yo'li hudoyi honaga, undan Amir Temurgab mo'ljallangan o'rtadagi er osti sahanasi joylashgan joyga olib boradi. Xonaning muyulishidagi uzun yo'lakdan turli-tuman ziyofatlar o'tkaziladigan yon xonalarga o'tiladi.

XVI asrning 2-yarmida Abdullahon II ning qilgan hujumlaridan birida imorat vayron bo'lgan. Dor us-siyodat majmuasi vujudga kelishiga Jahongir maqbarasi asos bo'lgan. Jahongir maqbarasi qurilayotgan vaqtda tahmon va gumbazning dastlabki ko'rinish tuzilishi ichki tomondan ganchli muqarnas bezak bilan bekitilib qo'yilgan edi, uning qoldiqlari hanuzgacha saqlanib qolgan. Bu yodgorlik O'rta Osiyoda yagona, ya'ni to'rt gumbazli maqbara bo'lgan. hozirgi vaqtgacha esa mana shu to'rtta gumbazdan faqat uchta saqlanib qolgan, ichi ganchli gumbaz esa vaqt o'tishi bilan buzilib ketgan. Ichki gumbaz xanoslari ostida zangori bo'yo? bilan: "Dono ezgu niyat bilan harakat qiladi, nodon ezgu niyat bilan kutib turadi" degan hikmatli o'gitlar

bitilgan. Maqbara janubiy devorining haddan tashqari qalinligi va shimoli-g'arbiy burchakda mustahkam dumaloq minora mavjudligi e'tiborni tortadi, go'yo umumiy hajmiy echimdagi mutanosiblik buzilganday tuyuladi. Bu holat B.N.Zasipkin tomonidan qayd etilgan.

"Boburnoma"da ham Amir Temur farzandlarining qabri shu xilxonaga qo'yilganligi tilga olinadi (35). Umarshayxni qabri Jahongir maqbarasi bilan 21,5 m oraliqda, ya'ni uning janubida simmetrik tarzda joylashgan. qabrning usti o'ziga xos kichik gumbaz bilan yopilgan. Er osti qabri uncha chuqur emas. . Er sathidan atigi 3m pastda joylashgan. U ham tarhda Jahongir Mirzoning qabri kabi 4,5x4,5 m o'lchamga ega. Marmar qabr toshlarining tuzilishi va ularning iishlatilishiga qaraganda, bu maqbara Hakim at-Termiziy obidasiga juda o'hshab ketadi. Amir Temurning er osti sag'anasi o'rta asr me'morchiligining ajoyib namunasidir. Uncha katta bo'lmagan xona tarashlangan yassi marmar tahtalar bilan qoplangan. Baland gumbaz, chiroyli sakkiz qirrali shift hosil qilgan to'rtta ravoq hoshiyasi qur'on yozuvlari bitilgan o'yma na'shlar bilan bezatilgan. Er osti sag'anasining qoq o'rtasida Amir Temur uchun atalgan tosh tobut turibdi. Biroq, Sohibqironning jasi bu maqbarada emas, balki Samarqandda Muhammad Sulton uchun qurilgan Go'ri Amir majmuasiga qo'yilgan. Dor us- siyodat majmuasi "hazrati imom" nomi bilan ham izohlanadi. Hazrati imom - "buyuk imom" ma'nosini anglatadi. XIX asrning o'rtalarida maqbara yonida naqshinkor, sinchli, katta ayvonli va hujralari bo'lgan gumbazli guzar masjidi quriladi. O'sha vaqtda er osti sahanasiga tasodifan duch kelingan.

Dor ut- tilovat majmuasining ma'nosi - "Tilovat qiluvchilar saroyi" degan ma'noni bildiradi.

Bu majmuaga:

1. Shayh Shamsiddin Kulol maqbarasi;
2. Gumbazi Sayidon maqbarasi;
3. Ko'k gumbaz masjidi;
4. 1910 yillarda qurilgan bir qancha hujralar kiradi.

Shayh Shamsiddin Kulol maqbarasi Amir Temur tomonidan qurilgan qadimiy yodgorlikdir. Shayh Sohibqironning otasi Muhammad Tarag'ayning piri bo'lgan. U 1370 yilda vafot etganidan so'ng, Amir Tarag'ay chuqur qayg'uga tushib o'g'liga quyidagicha vasiyat qiladi: "Mening vafotimdan keyin jasadimni o'z ustozim - pirim yonidan qo'ydir" 1373 yilda Muhammad Tarag'ay vafot etgach, Amir Temur uning vasiyatini bajo keltirib jasadini shu shayhning "oyoq ostida", ya'ni "poyi qadamida" qo'ydiradi. Peshtoq - gumbazli va ikki ustunli sinchkor Shamsiddin Kulol maqbarasining avvalgi me'moriy asosi saqlanib qolingan. To'rtburchak tarhli bu bino ilgari to'rtta ravoqli bo'lgan. Asosiy kirish eshigi peshtoqqa monand qilib bezatilgan. Uning chiroyli sag'analarida hali ham yulduzsimon ko'k va moviy g'ishtin bezaklar, ular orasida zangori bo'yoqlarda ko'fiy xati bitilgan yozuvlar mavjud. Sirti o'yma na'sh bilan bezalgan. Eshik XIV asr oxiri - XV asr boshlarida o'rnatilgan. Ustunlar oraliqida keyinchalik katta va qupol dahma qurilgan bo'lib, uning shuvog'iga hashamatli sag'analarning o'ymakor marmar qoplamalari yopishtirilgan.

Shamsiddin Kulol maqbarasi Ko'kgumbaz masjidining sharqiy o'qida joylashgan. Tarxiga ko'ra u tashqaridan to'g'ri to'rtburchakli (12x10,5m), ichkaridan esa kvadratdir (7,5x7,5m). Devori an'anaviy kvadrat shakldagi pishiq g'ishtdan ko'tarilgan. Obidaning quyi qismi 21x12x4 sm o'lchamli to'g'ri to'rtburchak g'ishtdan terilgan. Sa'ndan naqshinkor terrakotaning katta hajmli bo'lagi hamda och lojuvardsir qoplangan ikkita terrakota parchasi topildi. Bunday shakldagi g'isht X asr ohiri - XI asr boshlarida Karmanadagi Mirsaid Bahrom, Timdagi Arabota maqbaralari qurilishida ishlatilgan. Buhorodagi Somoniylar maqbarasi hamda Samarqanddagi Shohi Zinda majmuasi ilk yodgorliklari qurilishida ham shundayg'ishtdan foydalanilgan. Gumbazi Sayidon maqbarasi 1437 (hijriy 841) yilda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurilgan. Bino intererlarida devorlarning tepa qismlarida ko'k fonda oq harflar bilan yozilgan, ayrim joylari zarar ko'rgan yozuv saqlanib qolgan. Unda quyidagi so'zlar bitilgan: "Buyuk sulton, alloma...

din va e'tiqod bilimdoni Ulug'bek Ko'ragon avlodlari uchun Olloh uning hukmronligini ardavom qilsin, 841 yilning oydin oylarida mazkur maqbara bunyod etildi" (*M.E.Masson bo'yicha*). Maqbara ichida XV - XVII asrlarga oid bir necha sag'ana bor.

Gumbazi Sayidon maqbarasi Shohizindadagi ikki gumbazli Qozizoda Rumiy maqbarasiga bevosita o'hshashdir. Maqbara ichi hochsimon, tashqaridan esa deyarli kvadrat shaklda. g'arb tomoni biroz turtib chiqqan peshtoq bilan bezatilgan. Gumbazi Sayidoning me'moriy bezaklari Ko'kgumbaz masjidi bezagiga juda o'hshaydi. Taxmonlar bo'rtma hoshiyaga olingan. Bag'allar poyidagi ravoqlar ham shu tariqa bezatilgan. Maqbara ichiga ishlangan naqshlar g'oyat diqqatgasazovor. Butun sirt, shu jumladan chortoq burchaklaridagi vertikal sirtlar, ravoqlarning ko'rinib turgan sirti, ravoqsimon bag'allar sirti, gumbaz osti yuzasi va butun gumbaz naqsh bilan qoplangan. Naqsh asosan moviy va qizil rangda berilgan. Rasmlar xilma-xil. Gumbaz osti belbog'i sakkiz qirrali yulduzsimon naqsh hosil qiluvchi tasmali girix bilan to'ldirilgan. Yulduzlar nuri qizil ichiga olingan. Katta yulduzlar orasiga uchadan kichik yulduz joylashtirilgan. Girixning handasaviy shakllari atrofiga chiziq tortilgan. Gumbaz yuzasi bir necha belbog'ga ajratilgan, shuningdek yulduzsimon naqsh bilan to'ldirilgan ko'p qirrali girih ham naqsh qilingan. Sakkiz qirrali poygumbaz ustidagi qizil fonga tiqiz ishlangan islimiy-gul naqshli ravoqlar orasidagi bo'shliq turunjlar bilan bezatilgan. Devor yuzasining ko'p qismiga spiralsimon naqsh ishlangan. Maqbaraning pastki qismida olti qirrali lojuvard tahtachalardan sharafa bo'lgan. Maqbara o'rtasiga to'rtta marmar qabrtosh o'rnatilgan. Bu qabr toshlarning ustki yon tomonlarida bir qancha o'ymakor yozuvlar bor, ularda qur'ondan oyatlar va Termizlik saidlarning nomlari zikr qilingan. Saidlarning termizlik saidlar deb yuritilishi ularning faqatgina ruhi hoklari Surxandaryo viloyatining Termiz shahridan Ulug'bek tomonidan keltirilgan. Ko'kgumbaz masjidini mirzo Ulug'bek 1435 yilda otasi Shohruh nomini abadiylashtirish uchun qurdirgan. Masjidning mahobatli gumbazi

koshinkoriy ko'k rangda bo'lganligidan, u "Ko'k gumbaz" nomi bilan atalgan. Ko'kgumbaz masjidi deyarli kvadrat shaklda (12,52x12,61m), to'rt tomonida eni 4,48-4,63m li, ichkariga 2,05 m kirib borgan tahmonlar bor. Uning diametri 22,5 metrga tengdir. O'rta Osiyodagi ma'bara va masjidlarining gumbazlari ichida diametrining eng kattaligi bilan ajralib turadi. Ko'kgumbaz masjidining balandligi 36 metrni tashkil qiladi. Janubiy, shimoliy, sharqiy devorlarida ravoqli o'tish joyi qo'yilgan. Shimoliy va janubiy o'tish joylaridan yon tomonlardagi ayvonlarga chiqiladi. Sharqiy tahmon masjid bosh tarzi peshtoqning baquvvat yon ustunlaridan hosil bo'lgan. Peshtoq oralig'i 10 m ga teng. Peshtoq yon ustunlarida tomga olib chiqadigan burama zina bor. Masjidning g'arb tarzi tarihan vujudga kelgan katta yo'lga qaragan. Bu tomon g'isht tirgovuchni yodga soluvchi bezak peshtoq bilan hoshiyalangan. Masjidning ichki ko'rinishi oddiy. Ichki tahmonlar to'g'ri burchakli hoshiyaga olingan ravvoq bilan yopilgan. hoshiya sahndan 10,7 m balandlikkacha, deraza ustigacha borgan. Gumbaz bag'al burchaklarini to'g'ri sakkizburchak hosil qilgan holda yopuvchi yarim qubbali ravoqli chortoq ustiga joylashgan. Bag'alning poygumbaz darchalari uncha chuqur bo'lmagan ravoqli tokcha ichiga olingan. Kunjaklar bilan tokchalar oralig'i qalqonsimon bag'al bilan to'ldirilib, o'n olti qirrali shakl hosil qilingan. Ularning qulfi tokchalar va chortoqning burchak bag'ali bilan bir hil balandlikda joylashgan. O'n olti qirrali shakl usti bir tashqariga chiqib turuvchi charhi gumbaz bilan yopilgan. Cho'ziq olti qirrali shakllarda moviy fonda bir biriga chirmashgan oq va lojuvard poyalardan iborat mujassamot berilgan. Poyalar qo'shilgan va ajralgan joylar olti yaproqli gul bilan bezatilgan. hoshiyadan yuqorida, poygumbazning bor balandligicha kufiy bitik ishlangan. Unda qur'oni karim 48-surasi - "Fath" ning birinchi, ikkinchi va uchinchi oyatlari keltirilgan. Ularning ustidan oq sirkori g'ishtchalardan "Hukmronlik-Oллоhga hos, boylik - Oллоhga hos" mazmunidagi boshqa bitiklar ishlanib, ko'k rang bilan hoshiyalangan.

Ko'kgumbaz masjidining peshtoqi ham diqqatni tortadi. Peshtoq bosh ravoq, ustunlar va ravoqli tokchalardan iborat. Ustunlar oldinga bo'rtib chiqqan, yonlarida uchchorak ustunchalar bor. Ustunlarning quyi qismi hajm hisobiga enliroq bo'lib, tayanchdan yuqorisi peshtoq eni darajasidadir. Binoning butun peshtog'i, shu jumladan ustunlar va ularning yon devorlari, ravoqning ichki qismi, ya'ni yon va sofitli bet devorlari hamda ravoqli tokchasi g'ishtin mozaika bilan qoplangan, mayolikali naqshindor koshinlar xol-xol qilib yopishtirilgan. Peshtoq mujassamoti shaklan sodda va aniq. Ravoqning ikki yoniga ustunlar ishlangan. har bir asosiy qism nisbatan mayda me'moriy qismga bo'lingan. Ustunlar hoshiyalar vositasida katta-kichikligi bir hil bo'lgan to'rtta bezak tokchaga bo'lingan. Tokcha uchli ravoq bilan tugallangan. Ustunlar yonida quyi qismi marmardan ishlangan va qoshi mayolikali bo'lgan guldasta qad ko'targan. Guldastaning silindrik qismi biroz ichkariga qayrilgan olti qirrali mayolika tahtachalar bilan qoplangan. Guldasta qoshi go'yo bosh ravoq zavaravini suyab turuvchi elementdir. Peshtoq bet devorida qisman saqlanib qolgan bitik guldastalar qoshi balandligida yozilgan. hovli aylanasi bo'ylab yarimtaki g'isht qirrasi bilan terib, yo'lka qilingan. Masjidga kiriladigan asosiy joy yaqinida g'isht archasimon, boshqa joylarda esa qirrasi bilan hamda bir biriga bog'lab terilgan. Jamoat me'morligidan o'rta asrlar hammomi tarixiy shaharning qoq markazida joylashgan. O'rta asrlar hammomi klassik tipida qurilgan. U XIV asrning ikkinchi yarmida yoki XV asr boshida barpo etilgan. Markaziy xona atrofidagi 9 xonadan tarkib topgan. Yuvinish xonalaridan shimolroqda 3 ta hovuz va o'thona joylashgan. hammom ichi 3 qismga bo'lingan. Birinchi qism 3ta xonadan iborat. 1- xona erto'laga kiraverishda joylashgan. Tarhiga ko'ra to'g'ri to'rtburchak shaklda, usti gumbaz bilan yopilgan. Sharq tomondan unga taqab supa qurilgan. 2-xona birinchisiga nisbatan g'arbroqda, shimol-janub o'qida joylashgan, tarhi kvadrat, uncha chuqur bo'lmagan to'rtta tahmoni bor. Sharqiy, G'arbiy va shimoliy tahmonlar zalga kiriladigan yo'l bo'lgan. 3-xona markaziy zal. Targiga ko'ra u burchaklari kesik sakkiz

qirrali. Sharq va g'arb tomonlarida chuqur tahmonlar bor. Kesik burchaklarga eshiklar o'rnatilgan. Janub tomondagi eshiklardan alohida kichik xonalarga o'tiladi. Shimol tomondan ulardan shimoli-sharqiy va shimoli-g'arbiy burchakdagi issiq xonalarga kiriladi. Markaziy zalning usti gumbaz bilan yopilgan. Zal markazida olti qirrali supa. Burchaklardagi xonalarning ham usti gumbaz bilan yopilgan. hammom sahniga marmar to'shalgan, ostida issiqlik o'tkazadigan kanallar joylashgan. Hammomning barcha xonalarining o'ziga hos vazifasi bo'lgan. Markaziy zalda oldin oyoqni yuvish va issiqqa moslashish uchun 3 ta o'tish xonasi keladi. Markaziy zalning orqasidagi 3 ta hona sovunlab yuvinadigan xona bo'lgan. Zalning sharq va g'arb tomonida joylashgan ikkita chuqur tahmon uqalash xonasi bo'lgan. Ko'plab yozma manbalardagi habarlarga ko'ra, hammomlarga ko'pincha bezak berilgan. [34].

Chorsu Shahrisabz markazida, shimoldan janubga va sharqdan g'arbga olib boruvchi yo'llar chorrahasida, o'qlarga mutanosib joylashgan, umumiy o'lchami 21x21 m li bir markazli bino bo'lib, oldinga turtib chiqqan to'rt peshtoqi, gumbaz ostidagi markaziy zalga olib kiruvchi ravoqlari bor. Zal tarhi kesik burchakli kvadrat, zalga nisbatan diagonal joylashgan o'tish yo'llaridan burchaklardagi xonalarga kiriladi. Markaziy zal usti charhi gumbazli. Gumbaz zal burchaklarida past joylashgan ravoq bag'allari ustidan boshlangan. Xonalarda qalqonsimon bag'allar "archasimon" qo'yilgan.

XV asrda qurilgan Shahrisabz Chorsusi Buhoro, Samarqanddagi Chorsular takrori emas. U bunday binolar tipologiyasini saqlagan holda alohida echimga ega. [34].

Koba karvonsaroyi Markaziy Osiyodagi jamoat me'morligida alohida o'rintutadi. G.A.Pugachenkova qayd etganidek, karvonsaroy me'morligi va tarhiy mujassamotida mo'g'ullardan avvalgi davrlardayoq ishlab chiqilgan eski hajmiy-tarhiy echimlarga rioya qilingan. Karvonsaroylar asosini kesik to'g'ri to'rtburchak hosil qiladi.

Shahrisabzdagi Koba karvonsaroyi XVI asrdagi bu toifa me'morlikning

yagona yodgorligidir. Shahardagi boshqa karvonsroylar saqlanib qolmagan. XVI asrda barpo etilgan Kobaning me'moriy qiyofasi, Samarqand va Buhoradagi shu kabi inshootlardan farq qilgani holda, birmuncha sipo. Kirish peshtogii an'anaviy ravishda Shahrisabz eski shahar qismida tarixan yuzaga kelgan katta yo'lga qaragan. hovlisi kesik burchakli kvadrat shaklga yaqin. hujralari uchli gumbazlar bilan yopilgan. Tub aholining og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan gaplariga qaraganda, bu karvonsaroyda o'z vaqtida turli mamlakatlar, shu jumladan Hindistondan kelgan savdogarlar ham qo'nib o'tishgan. "Koba" nomining kelib chiqishi bir taxminda bu "Qubba" so'zining mahalliy aholi tipidagi talaffuzi deyilsa, boshqasida go'yoki uni arablarning Kufa shahridan kelgan ustalar qurganligi uchun "Kufa" so'zining buzilgan shakli deyiladi.

Chubin me'moriy majmui shaharning shimoli-sharqiy qismida, Chubin mahallasida joylashgan. Chubin ko'proq joy nomi bilan boqliq bo'lib, u erda o'tmishda, ehtimol, yog'ochga ishlov beruvchi hunarmandlar mahallasi joylashgan bo'lishi mumkin. Yodgorlik funksional jihatdan o'zaro bog'liq bo'g'inlar - masjid binosi, hujralar, darvozahona va hovlidan tarkib topgan majmuadir. [26].

Inshoot mujassamotining markazi kvadrat tarhli, usti gumbaz zal. G'arb-sharq o'qida mehrob vazifasini bajaruvchi va ichki bo'shliqni bo'rttirib turuvchi yarim sakkiz qirrali taxmon joylashgan. Shu o'qning o'zida sharqqa qarab masjidning yarim sakkiz qirrali peshtoq tahmoni tarzida ishlangan kirish yo'li joylashgan. Shimol-janub o'qida uncha baland bo'lmagan gumbazli ikki zal joylashgan. Bu zallar asosiy zal bilan tashqi tarzga peshtoqli kirish yo'li bilan qaragan o'tish joyi orqali bog'langan. Zalning ikki yonida mutanosib joylashgan, tashqi tarzi ravoqli taxmonlar bilan bezatilgan gumbazli xonalar bor. Burchaklarda bir-biriga o'tiladigan gumbazli honalar joylashgan. Ularning ham tashqi tarzi ravoqli tahmonlar bilan bezatilgan. g'arbiy honalarda asosiy zaldan chiqish uchun burchak yo'laklar ko'rinishida qo'shimcha yo'llar qo'yilgan.

Bino tarzlar an'anaviy mutanosiblikka asoslangan holda bezatilgan. O'qlarda peshtoqlar barpo etish orqali shimoliy, sharqiy va janubiy tarzlar mutanosibligiga erishilgan. Ustunlar yuzasi pilyastralar vositasida chuqur bo'lmagan taxmonlarga ajratilgan. Taxmonlarda to'rt markazli tutashma ravoqlar qo'yilgan. Chubinning hajmiy-tarziy mujassamoti o'z funksiyasiga, ko'hna shaharning me'moriy tizimida egallagan o'rniga ko'ra, xonaqoqlarning Shahrisabz shahar qurilishi tarkibida alohida ahamiyatiga ega me'moriy turiga mansubdir.

2.3 Shahrisabz shahri bosh rejasida tarixiy markazlarining yechimlari tahlili.

Shahrisabz (yoki Kesh) - O'zbekistonning ko'hna shaharlaridan biri bo'lib, u savdo-sotiq va hunarmandchilik rivojlanishi asosida paydo bo'lgan. Shahrisabzdan O'zbekiston poytahti - Toshkentgacha bo'lgan masofa 410 km, viloyat markazi Qarshi shahrigacha 104 km, Samarqand shahrigacha 80 km ni tashkil etadi. 1929 yilda Shahrisabz tuman markaziga aylandi. Dastlabki (birinchi) rejaviy tashkil etilishi - qadimiy Shahrisabz hududi ancha keyingi davrlardagi mavzelar bilan birgalikda janubiy-g'arbiy qismda 200,0 gektarni (ga) tashkil etadi, bu qism arxitekturaviy-tarixiy yodgorliklar va oldingi asrlarda qurilgan jamoat va o'tgan o'ninchi yilliklarda tiklangan turar-joy binolardan tashkil topgan murakkab guzarlarni o'z ichiga oladi. Yaqin kunlarga eski shahar hududida tashkil topgan ma'muriy-xo'jalik boshqaruv ob'ektlari faoliyat yuritdi.

Arxitekturaviy - tarihiy qadriyatlarga kelsak, shahar o'rta asrlar arxitekturaviy yodgorliklariga ega bo'lgan markazlardan biri bo'lib, Shahrisabz shahrihududida davlat tomonidan muhofazaqilinadiganquyidagi yodgorliklar mavjud:

- Oq-saroy saroyi - 1380 yil.
- Ko'k-gumbaz masjidi - 1436 yil.
- Gumbazi - Sayidon maqbarasi - XV-asr.

- Shamsiddin Kulol maqbarasi - XV-asr.
- Jahongir Mirzo mozori - XIV-asr.
- Malik ajdar masjidi - XIV-asr.
- Kunduzak masjidi - XIV-asr.
- O'rta asrlardagi qurilgan hammom - XI-asr.
- Chorsu savdo gumbazi - XVI-asr.
- Ishlayotgan masjid - XIX-XX asrlar.
- Gumbaz masjidi - 1903-1904 yillar.
- Mahalla masjidlari - XIX asr - 2ta.
- Tarixiy turar joy binolari.
- Ikkita karvon saroy.
- Mirhamid honaqosi - XIV-XV asrlar.
- Shahar qal'asining devor qoldiqlari.

Bu yodgorliklar dunyoning turli mamlakatlaridan tashrif buyurgan turistlarda doimiy ravishda katta qiziqish o'ytotmoqda va ularga davlat hamda mahalliy hokimiyat tomonidan alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu ob'ektlar haqiqatan ham butun jahon mamlakatlari tomonidan tan olinmoqda va hozirgi avlod oldida bu umumjahon qadriyatlarni saqlash vazifasi turibdi. Ulkan ob'ekt - Oqsaroy, ulug'vor inshoot - Ko'k gumbaz masjidi, Shamsiddin Kulol mavzoleyi, Malik Ajdar masjidi Kesh - Shahrisabz tarixiga Bag'ishlangan turli ilmiy maqolalar, ishlanmalar va ilmiy tadqiqot ishlarida yoritilgan. Biroq bu ob'ektlardan tashqari eski shahar qismida joylashgan turar - joylar tarix predmeti hisoblanib, ular iqlimiy va qurilishning madaniy jihatlari ta'siri ostida yuzaga kelgan, ular haqida alohida shuni ta'kidlash joizki, bu O'rta Osiyo issiq iqlim sharoitlarida nomlari no'ma'lum bo'lgan ustalar tomonidan amalga oshirilgan katta salmoqli turar - joylardir. Turar - joylarning katta qismi arhitektura yodgorliklari bo'lmasada, lekin o'zining rejaviy (tarxiy) echimlari bilan xalaq qadimiy an'anaviy rejasini o'zida aks ettirgan, o'rta asrlarga hos bo'lgan masshtabli va hajmli 42 harakteristikalarni o'zida mujassam etgan va arhitekturaviy qadriyatlar uchun fon sifatida hizmat qiladi. Turar -

joylarning bunday guruhidan muzey - etnografik zona sifatida foydalanish mumkin, bu zona an'anaviy xalq turar - joylari tasvirida hududdagi kam qadriyatli qurilishlardan tozalangan qayta tiklangan qal'a devorlari fonida o'z aksini topgan. O'tmish o'rta asrlaridagi yashash muhitini qayta tiklashning bunday amaliyoti dunyoning ko'plab mamlakatlarida qo'llanilmoqda. Afsuski, arxitektura yodgorliklari murakkab holatda turli savdo va umumiy ovqatlanish ob'ektlari qurshovida qolgan, bunda yodgorliklarni muhofaza qilish zonasi hisobga olinmagan. Bu muammoning asosiy sababi tashrif buyuruvchilarni qabul qilish va transport uchun tegishli bo'lgan zaruriy sharoitlarga ega bo'lmagan markaziy bozorga keladigan aholining ortiqcha konsentratsiyasidir. Mashinalar turar joyining yo'qligi va huquqini himoyalovchi hususan, DAN (Davlat avtomobil nazorati) organlari tomonidan nazorat yahshi yo'lga qo'yilmaganligi tumanning hamma joylaridan keladigan mashinalarni o'tish joyi bo'ylab qo'yishga majbur etadi, bu esa ensiz profilga ega bo'lgan o'tish joyni yanada qisqartiradi. Ikkinchi rejaviy (tarxiy) tashkil etilish - seliteb - sanoat hudud "Kitob" temir yo'l stansiyasi bazasida vujudga kelgan, bu zona o'tgan yillar ichida turli sanoat ob'ektlar, omborxonalar, bazalarning bunyod etilishi evaziga ancha o'sdi, ular asosan bir ikki qavatli binolar sifatida rejali asosda qurilgan. Uchinchi rejaviy (tarxiy) tashkil etilishi - bu birinchi va ikkinchi rejaviy (tarxiy) tashkil etilish orasida yuzaga kelib, o'tgan asrning 50-80 yillar shaharsozlik faoliyatining natijasi bo'lib turli davrlarni birlashtiradi. Unda tegishli madaniy-maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari to'plamiga maktab, bolalar bog'chalariga ega bo'lgan ko'p qavatli zamonaviy turar-joy mikrarayonlari barpo etildi. Shahrisabz hududida Davlat tomonidan muhofaza qilinadigan 16 ta arxitektura yodgorligi mavjud. 1988 yilda ishlab chiqilgan Bosh reja(tarh)ni amalga oshirishning tahlili. Amaldagi Bosh reja(tarh) 1988 yilda "O'zshaharsozlik LITI" instituti tomonidan ishlab chiqilgan. Aholining hisobiy soni aniqlangan bo'lib, quyida keltirilgan:

birinchi navbatda (1995 yil) - 75,0 ming kishi;

oraliq muddatda (2000 yil) - 90,0 ming kishi;

hisobot muddatda (2015yil) - 120,0 ming kishi;

2005 yil 1 yanvar holatida aholi soni 90,36 ming kishini tashkil etdi, ya'ni aholi soni oraliq muddat bo'yicha hisobiy songa bir oz etmadi va oraliq muddatda bu ko'rsatgich 87,8 ming kishini tashkil etdi. Amaldagi Bosh reja (tarh) bo'yicha yashash maydonining me'yori 14 m²ni tashkil etdi. Qarshiga shaharning markazi bilan birgalikda Qarshi, Koson, Kasbi, Nishon, Xuzor, Deqqonobod, Muborak, Bahoriston, Usmon Yusupov tumanlari kiritiladi. Shahrisabzga esa shaharning markazi bilan birgalikda Qamashi, Kitob, Shahrisabz, Chiroqchi va Yakkabog' tumanlari hamda beshta shahar (Shahrisabz, Qamashi, Kitob, Chiroqchi, Yakkabog', shaharlarini); ikkita shahar tipidagi posyolkalar (Miroqi Eski Yakkabog') va yuqori nomlari zikr etilgan tumanlarda joylashgan 678 ta qishloq aholi punktlari kiritilgan. Aholi punktining masshtab va hususiyatini, aholi hisob miqdorini inobatga olib, kelajakda Shahrisabz shahrini zamonaviy shaharsozlik talablari, shaharlarni loyihalashning qoida va me'yorlari hisobi bilan o'rtacha shahar sifatida ko'rib chiqiladi va loyihalanadi.

Bosh plan echimi asosiga quyidagi prinsiplar qo'yilgan:

1. Shahar chekkasi va sanoat zonalarini kompleks tashkil etish, ularda Shahrisabz shahriga tutash bo'lgan Kitob shahri muhitini inobatga olib, mehnat, turmush va dam olish uchun qulay sharoitlarni yaratish.

2. Asosiy zonalar va tashqi yo'llar orasidagi qulay transport va piyoda aloqalarni tashkil qilish. [36].

3. Me'moriy - loyihalash tuzilishi, tabiiy sharoitlar va zamonaviy vaziyatning tayanch elementlari, me'moriy yodgorliklarning borligini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

4. Imkon boricha, tugallangan me'moriy - shaharsozlik majmuasining har bir bosqichda shaharning planli rivoji qo'yilgan vazifalar natijasida bosh plan echimi quyidagiga olib boradi:

-Shahar hududi funksional foydalanishi bo'yicha sanoat va shahar cheti zonalariga bo'linadi. Bu zonalar shahar loyihalash sistemasi tarkib topgan o'n bir tuzilishni o'z ichiga oladi.

- Me'moriy - tarixiy zona shahar cheti hududiga kiradi va uning qurilishida loyihalash ishtirok etadi.

- Shahar rivojining har bir bosqichida sharqiy va janubi-sharqiy hududlarni o'zlashtirib, rivojlangan transport va muhandislik infratuzilmasi zamonaviy shahar cheti rayonlarini yaratish.

- Shaharning yangi markazini, ma'muriy, sport-park va medisina zonasiga ega o'zagi, shuningdek bu hududlarni o'zlashtirish rayonida kichik markazlarni shakllantirishni boshlash.

- Me'moriy - tarixiy zona bazasida mehnatkashlarning dam olish joyiga ega amaldagi tarixiy majmuani yaratish, bu esa Shahrisabz shahri qadimiy qismi hayot faoliyatining qulayroq tartibiga yordam beradi.

- Shahar me'moriy - tarixiy qismidan katta transport oqimini yo'qotish yo'li bilan eski shahar qismining transport ta'minotini hal etish, bu esa me'moriy yodgorliklarning transport harakati ta'siridan buzilishini saqlash imkonini beradi.

- Doimiy shamollarni hisobga olib, hamda bu ob'ektlarda me'moriy, sanitar-himoyalash zonalarini yaratib, yuzaga kelgan shahar sanoat zonasida sanoat korxonalari rivojini davom ettirish.

Umumiy me'moriy - loyihalash echimi shimoliy, sharqiy va janubiy yo'nalishlarda shahar muhitini rivojlantirish bilan ilgari ishlab chiqilgan bosh planlarning izchilligiga asoslangan. Shu sababli loyihaga magistral 45 ko'chalar tuzilishi bu rivojlanishni hisobga olgan holda qo'yilgan. Natijada shahar bo'ylab quyidagi tartibda tarqalgan loyihalash tuzilmalari paydo bo'ladi: [36].

- birinchi tuzilma shahar janubi - sharqiy qismida joylashadi va turli ob'ektlarning konglomeratini tashkil etadi, bolalar dam olishi, medisina, sanoat korxonalari ob'ektlaridan boshlab, shuningdek turar joy binolarini;

- ikkinchi tuzilma shimoldan Tarag'ay Bahodir, sharqda va janubi-sharqda S. Rahimov va Ipak Yo'li, G'arbdan halqaro ahamiyatdagi magistral - Katta O'zbek trakti (M-39) bilan chegaralangan. Bu tuzilma Sheroziy ko'chasini meridional ikki hududga ajratadi - sharqiy va G'arbiy. Sharqiy, tarixiy deb nom olgan zonada, tarixiy meros ob'ektlari, me'morchilik yodgorliklari, savdo ob'ektlari, madaniy maishiy hizmat ko'rsatish elementlariga ega turar joylar to'plangan. Bu tuzilmaning G'arbiy qismida asosan turar joy binolari joylashadi.
- uchinchi va to'rtinchi tuzilma o'z tarkibiga shaharning sanoat zonasini, "Kitob" temir yo'l stansiyasidan tashkil topgan transport majmuini, turar joy binolari va shahar shimoli - G'arbiy qismi va M-39 magistrali bo'ylab joylashgan ma'muriy-xo'jalik, madaniy - maishiy vazifadagi ob'ektlarni o'z ichiga oladi.
- beshinchi va oltinchi tuzilma muhandislik infratuzilmasi, parklar, sport markazlari hududini kiritgan holda turar joy (kam qavatli va ko'p qavatli) va jamoat binolaridan tashkil topadi. Ular shaharning markaziy qismida joylashadi va sharqdan Aylanma ko'cha (G-50,0) va G'arbdan Ipak Yo'li (G-45,0) ko'chalari bilan chegaralangan. Ular orasida G'arbdan sharqqa keng yo'nalishda o'tuvchi G'. G'ulom (G-50,0) ko'chasi chegara hisoblanadi. Oltinchi va ettinchi tuzilmalar orasida Nizomiy (G-50,0) nomli ko'cha janubiy chegara bo'lib xizmat qiladi.
- ettinchi tuzilma Nizomiy nomli ko'chadan janubi - sharqqa tomon joylashadi va janubga tomon chekkadagi Loyihaviy II-II (aylanma) magistralgacha (G-42,0) hududni qamrab oladi. Bu tuzilmada asosan, o'zining madaniy-maishiy vazifa va hizmatdagi ob'ektlari bilan turar joy binolari to'plangan. Ushbu tuzilma aholisining hayot faoliyatini yahshilash uchun loyihada bu rayonda madaniy -maishiy, savdo va dam olish ob'ektlariga ega umumshahar kichik markazi ishlanadi. Bu tuzilmada turar joy va umumshahar qurilishi uchun rezerv hududlar mo'ljallanadi. [36].
- sakkizinchi tuzilma ettinchi tuzilmadan sharqqa tomon joylashadi va

shimoldan Nizomiy nomli ko'cha, sharhdan Loyiha III-III (G-50,0) ko'chasi, janubdan Loyiha II-II (aylanma) magistral (G-42,0) va G'arbda Aylanma (G-50,0) ko'chalar bilan chegaralangan hududni qamrab oladi. Bu tuzilma yangi va asosan individual harakterdagi hisob bo'yicha talab etiladigan madaniy-maishiy vazifadagi ob'ektlar bilan ta'minlangan mavjud binolarning birlashuvidan iborat. Unda shuningdek turar joy va umumshahar qurilishi uchun rezerv hududlar mo'ljallanadi. [1].

- to'qqizinchi tuzilma Nizomiy nomli ko'chadan shimolga tomon joylashadi va mavjud bo'lgan hamda yangi kam qavatli binolarning turar joy massividan iborat bo'ladi. Bu tuzilma G'arbda Aylanma ko'cha, sharqda Loyiha SH-SH, shimolda G'. G'ulom nomli ko'chalar bilan chegaralangan. Aylanma va G'. G'ulom nomli ko'cha kesishuv rayonida va shu ko'chalar bo'ylab yangi umumshahar markazi shakllanadi. Loyihada, bu rayonda SHahrisabz rayon hokimiyati boshchiligida ma'muriy -xo'jalik mussasalari zonasini yaratish ko'zda tutiladi.

- o'ninchi tuzilma G'. G'ulom nomli ko'chadan shimolga tomon joylashadi va sharqda Loyiha SH-SH, G'arbda Aylanma, shimolda Loyiha I-I (-50,0) ko'chalari bilan chegaralangan. Bu tuzilma sharqdan G'arbgga Garavchashma arig'ini ikki hududga ajratadi. Bu ariqdan janubga G'. G'ulom nomli ko'chaga o'z hajmlari bilan umumshahar markazini hosil qilgan umumshahar va rayon ahamiyatidagi ob'ektlar joylashadi. Bu markazni hosil qilishda medisina majmuasida tashkil qilingan medisina vazifasidagi ob'ektlar ishtirok etadi, ularda davolash muassasalari bilan bir qatordda profilaktoriyalar, qariyalar mehnat veteranlari va nogironlar uylari joylashadi. [6].

- o'n birinchi turar joy tuzilmasi Loyiha P-P ko'chasidan shimolga tomon joylashgan va shimolda Kitob va Shahrissabz rayonlari orasida rayonlararo chegara bilan, G'arbda Shahrissabz shahrining mavjud chegarasi bilan yangi hududning kichik kesik joyi, sharqda Aylanma ko'cha bilan chegaralangan. bu tuzilma umumshahar vazifasidagi ob'ektlardan, kundalik foydalaniladigan madaniy - maishiy vazifasidagi elementlarga ega bo'lgan xususiy turar joy

binolaridan tashkil topgan. Magistral ko'chalar sistemasi bilan deyarli shaharning butun hududi qamrab olgan. U transport va piyodalarni inobatga olgan holda joylashadi. Mavjud aylanma magistral (Aylanma) shaharning asosiy, markaziy magistrali sifatida talqin qilinadi va kelajakda unga yangi nom berish zarur. Miraki va Kitob shaharlari tomonga yo'naluvchi transport oqimini yo'naltirish maqsadida shaharda janubi - sharqiy aylanma magistral loyihalanadi. U Katta O'zbek trakti bilan barobar Shahrisabz va Kitob shaharlarining sharqiy qismiga, ularning shimolda Kitob shahridan o'tgandan keyin birlashib ketishlariga mo'ljallangan holda xizmat ko'rsatadi. Shaharning markaziy qismi, aniqrog'i uning ma'muriy zonasi shahar tuzilishida muhim ahamiyat kasb etgan ilgarigi aylanma magistral bo'ylab joylashadi va yangi markaz hamda sport - park markazi, zoopark va akva-parkli bolalar parki kabi kichik markazlari joylashgan asosiy negiz bo'lib xizmat qiladi. Bundan tashqari uning atrofida o'quv ob'ektlari joylashgan va joylashtirish mo'ljallanadi. Shaharning sharqqa tomon rivojlanish an'anasini hisobga olib, loyihada markaz rivoji o'qini shu yo'nalishda davom ettirish belgilanmoqda. Sharqiy yo'nalishda, shuningdek, turar joy va umumshahar qurilishi rezervlari ko'zda tutilmoqda. Shahar sistemasida, uning muhitida Chorshamba, Mo'minobod kabi irrigasion inshootlar va boshqa mayda sug'orish kanallari faol qatnashadi, ular bazasida shahar aholisining dam olish joylari yaratiladi. Shuni ta'kidlash joizki, loyihada Tanhozdaryo daryosi oqimini yo'lga qo'yish echimi belgilanadi. Kitob shahri bosh planida shu kabi echim Oqsudaryo daryosi bo'yicha ham qabul qilinadi. Ular bo'ylab damba sifatida xizmat qiluvchi yo'llar quriladi va qirg'oqlar yaratish mo'ljallanayapti. Sug'orish ariqlari bo'yida suvni muhofazalash zonalari yaratiladi. Shahar hududida ko'plab qabristonlar mavjud, ular atrofida sanitar - himoya zonalarini yaratish talab etiladi. Loyihada bu qabristonlarni yopish belgilanadi va bu zonalarini, ularda kommunal - sklad ob'ektlarini, AZS, STO joylashtirish uchun foydalanish, ko'kalamzorlashtirish, ulardan qishloq xo'jaligida foydalanish, masalan, mevali bog'lar, uzumzorlar yaratish taklif etiladi. Shahrisabz shahri hududi kelajakda o'z

tarkibiga regional suv chiqarish inshootlarini kiritishini inobatga olib, qabristonlarni yopish qarorini tezlashtirish va ekologik holatni lozim darajada saqlash bo'yicha choralarni kuchaytirish zarur. Bunda shaharda ko'kalamzor ekinlar rivojiga alohida ahamiyat yaratish zarur. Shaharda parklar, xiyobonlar, transport magistrallarni ko'kalamzorlashtirishni yaratish - issiq iqlimda odamlarning yashashini yaxshilaydi. Shaharda asosan, bir oilaga 500 dan 600 kvadrat metrgacha maydonli bir qavatli turar joy binolari mo'ljallanadi. Maydon hududi shahar me'yorida katta bo'lgan birlashgan qishloq posyolkalarida, loyiha bo'yicha bu hududlarni zichlash taklif etiladi. Shuning uchun loyihada shu kabi maydonlar bilan ikki qavatda joylashtirilgan kvartiralarga ega ikki qavatli turar joy binolari rivoji taklif etiladi. Noiqtisodiy va noqulayligi tufayli ikki qavatli seksiyali binolar rivoji loyihada ko'zda tutilmagan, chunki ikkinchi qavatda yashovchilar kvartiralari oldidagi maydonchadan shaxsiy maqsadlarda foydalanish imkoniyatidan mahrumdirlar. Buning ustiga ikkinchi qavatga suvni chiqarish muammosi ham mavjud. Bularning hammasi loyihada hovlili, ikki qavatga joylashtirilgan kvartiralarga ega ikki qavatli turar joy binolarini qo'llashni taqozo qiladi. Uyning bunday turini shaharning asosiy magistrallari bo'yida, ularni bezatish maqsadida joylashtirish zarur. Ko'p qavatli turar joy binolari (to'rt qavat) cheklangan miqdorda qo'llangan va oltinchi tuzilmada kam qavatli binolar buzilgan joyida shahar markazining ahamiyatini ta'kidlash maqsadida ko'p qavatli binolar ko'zda tutilyapti, ular asosan kichik oilalar uchun mo'ljallangan. har bir turar joy tuzilmasi (mahalla, mikrarayon) aholiga asosiy va davriy (vaqti - vaqti bilan) xizmat ko'rsatish majmuasi bilan ta'minlanadi. har bir tuzilmada xizmat ko'rsatish me'yori va unda yashaydigan aholi sonini inobatga olib, maktablar, bolalar bog'chalari, mahalla guzarlari va kichik xiyobon yoki parklarni yaratish ko'zda tutiladi. Shahar muhitida shahar me'moriy - tarixiy zonasiga alohida ahamiyat beriladi. Loyihada, avvalgi bosh plan bilan muvofiqlikda, uning markazi orqali o'tadigan Ipak Yo'li transport magistralini olib tashlash va uning negizida

piyodalar ko'chasini yaratish ko'zda tutiladi. Bu zonalarda transport xizmati ko'rsatish bu hududni aylanib o'tuvchi magistrallar yordamida amalga oshiriladi, ya'ni bu zonaga o'z perimetri bo'ylab o'tadigan magistrallar orqali xizmat ko'rsatiladi va ulardan boshi berk marshrutlar bilan hudud aholisiga xizmat ko'rsatish amalga oshiriladi. Bu zonalar o'z xizmati bilan butun tarixiy majmuani qamrab oluvchi sayyohlik kompleksini yaratish mo'ljallanadi. Bu hududda tarixiy joylarni "Uzshaharsozlik LITI" instituti tavsiyalarini inobatga olgan holda sharq me'morchiligi va yashash muhiti ruhida ishlab chiqish maqsadida piyoda - transport sistemalari rekonstrukciyasini o'tkazish zarur. Sayyohlik marshrutlari o'tadigan rayonlarda toshli ko'priklar yaratish va turar joy binolari devorlarini bo'yashda sarg'ish qizil tuslarni ishlatish zarur. qal'a devorini, ko'tarma ko'priklarni qal'a devori uzunligi bo'ylab cho'zilgan handak osti stilizasiyalangan suv havzasini tiklash bo'yicha, yodgorliklar atrofida muhofaza zonalarini yaratish bo'yicha ishlarni davom ettirish, shuningdek ular atrofida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish zarur. [7].

Bosh plan echimi asosiga quyidagi prinsiplar qo'yilgan:

1. Shahar chekkasi va sanoat zonalarini kompleks tashkil etish, ularda Shahrizabz shahriga tutash bo'lgan Kitob shahri muhitini inobatga olib, mehnat, turmush va dam olish uchun qulay sharoitlarni yaratish.

2. Asosiy zonalar va tashqi yo'llar orasidagi qulay transport va piyoda aloqalarni tashkil qilish. [36].

3. Me'moriy - loyihalash tuzilishi, tabiiy sharoitlar va zamonaviy vaziyatning tayanch elementlari, me'moriy yodgorliklarning borligini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

4. Imkon boricha, tugallangan me'moriy - shaharsozlik majmuasining har bir bosqichda shaharning planli rivoji qo'yilgan vazifalar natijasida bosh plan echimi quyidagiga olib boradi:

II bob. bo'yicha xulosa.

2017 – yil 19 may kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2017-2019 - yillarda Buxoro viloyati sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish to'g'risida”gi 2890- sonli qarori qabul qilindi. Qarorga ko'ra, Buxoro shahri va Buxoro viloyatida shahar infratuzilmasini, sayyohlik faoliyati bilan shug'illanayotgan subektlar va Evropa , Afrika, Osiyo, M.D.H. davlatlaridan sayyohlar oqimini jalb qilish uchun zamonaviy mehmonhonalardan sonini oshirish borasida kompleks tadbirlar ishlab chiqish talab etiladi.

Shu jumladan Shahrisabzda ham me'morlik va shaharsozlik sohasida erishgan noyob yodgorliklar joylashgan maskandir. Shrisabzda XIV asr va XV asrning 1 yarmida qurilgan mashhur obidalar saqlanib qolgan. Shahrisabzning me'moriy obidalaridan Oqsaroy qasri o'rta asrlardagi buyuk me'moriy yodgorlikdir. Shahrisabzga davlat tomonidan himoya qilinadigan yodgorliklar mavjud. Bu yodgorliklar turli mamlakatlardan kelgan turistlarga qiziqish uyg'otib kelmoqda.

Shahrisabz tarixiy markazlarini yechimlarini tahlil qilishda quyidagi muamolarni keltirib o'tamiz. Tarixiy obidalar savdo va umumiy ovqatlanish qurshovida qolgan hamda tarixiy yodgorliklarni muhoaza qilish hisobga olinmagan.

Yuqorida keltirib o'tilgan muomolarni hal etishda ,bu zonalar o'z xizmati bilan butun tarixiy majmuani qamrab oluvchi sayyohlik kompleksini yaratish mo'ljallanadi. Bu hududda tarixiy joylarni "Uzshaharsozlik LITI" instituti tavsiyalarini inobatga olgan holda sharq me'morchiligi va yashash muhiti ruhida ishlab chiqish maqsadida piyoda - transport sistemalari rekonstruksiyasini o'tkazish zarur. Qal'a devorini, ko'tarma ko'priklarni qal'a devori uzunligi bo'ylab cho'zilgan xandak osti stilizasiyalangan suv havzasini tiklash bo'yicha, yodgorliklar atrofida muhofaza zonalarini yaratish bo'yicha ishlarni davom ettirish, shuningdek ular atrofida ko'kalamzorlashtirish va obodonlashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

III BOB. SHAHRISABZ SHAHRI TARIXIY MARKAZINI SAQLASH VA KOMPLEKS RIVOJLANTIRISHNING ILMIY LOYIHAVIY TAMOYILLARI

3.1. Shahrisabz shahri tarixiy markazini rejalashtirish loyihasi tahlili.

Shahrisabz shahrining tarixiy markazlari o'ziga xos xususiyatlarga ega. quyida shaharsozlik nuqtai nazaridan markazlarning joylashuvi, ma'muriy boshqaruv, savdo, diniy-ma'rifiy bo'lgan an'analari, ularning badiiy-kompozision tomonlari to'g'risida gapiriladi. Bu markazlarning boshqa shaharlardagilari bilan taqqoslagan holda ularning o'ziga xosliklari ko'rsatib beriladi. Xorazm shaharlari markazlarini tahlil qilishda Xiva shahri markazlariga alohida urg'u berilishi, boshqa shaharlardagilar bilan taqqoslanishi lozim. Shahrisabz shahrining yirik markazlarini 3 turga bo'lib o'rganamiz. Bular:

1. Ma'muriy-boshqaruv inshootlari; 2. Savdo - hunarmandlik markazlari: 3. Diniy - mafkuraviy markazlar: 3. Shahar jamoat markazlarining o'ziga xosliklari 4. Ma'muriy boshqaruv markazi:

Oqsaroydan oldin, XI-XII asrlarda ko'rinishi jihatidan unga o'hshash Termizshohlar saroyi qurilgan. Saljuqiylar hukmronligi davrida, XI asrda qurilgan Shahari arkidagi hukmdor saroyi tarzi ham Oqsaroyga timsol bo'lgan.[37].

Oqsaroy, so'zsiz, siyosiy ma'muriy va mafkuraviy hokimiyat jamlangan saroylar qatoriga kirgan. Saroy ayni xizmat vazifasi tufayli shahar ichida joylashgan. Saroyning tashqi ko'rinishi ulug'vor bo'libgina qolmay, balki ichki bezaklari hashmador bo'lgan. Kirish peshtoqining, hovli sahni to'shamasining me'moriy qoldiqlariga ko'ra, Oqsaroy butun Markaziy va Yaqin Sharqda tengi yo'qqasr bo'lgan. Saroy hajmi hamda hashamati bilan zamondoshlar ahlini lol qoldirgan. Saroyning bunyod etilishida Amir Temur muhim rol o'ynagan, u qurilajak bino o'z kuch - qudrati va hokimiyatini namoyish etishni niyat qilgan. Savdo-hunarmandlik markazlari: Shahrisabzda 7 ta karvonsaroy ham mavjud edi. Saqlanib qolganlari ichida XVI asrda barpo etilgan Koba karvonsaroyi o'zining yirikligi va hashamati bilan ajralib

turadi. Bu yerda hozirgi paytda shahar o'lkashunoslik muzeyi joylashgan. Koba karvonsaroyi (XVI asrlar): Mazkur obekt 2001 yilda YUNESKO ning "Umuminsoniyat merosi" kitobi ro'yxatiga kiritilgan. Karvonsaroy shahar bozori yaqinida Ipak yo'lida joylashgan bo'lib, temuriylar davrida qaytadan tiklagan xalqaro savdo masalalarini yorqin ifoda etuvchi madaniy yodgorlik hisoblanadi. Koba karvonsaroyi Markaziy Osiyodagi jamoat me'morligida alohida o'rin tutadi. [38].

G.A.Pugachenkova qayd etganidek, karvonsaroy me'morligi va tarxiiy mujassamotida mo'g'ullardan avvalgi davrlardayoq ishlab chiqilgan eski hajmiy-tarxiiy yechimlarga rioya qilingan (39). Karvonsaroilar asosini kesik to'g'ri to'rtburchak hosil qiladi. Koba karvonsaroyi XVI asrdagi bu toifa me'morlikning yagona yodgorligidir. Shhardagi boshqa karvonsaroilar saqlanib qolmagan. XVI asrda barpo etilgan Kobaning me'moriy qiyofasi, Samarqand va Buhorodagi shu kabi inshootlardan farq qilgani holda, birmuncha sipo. Kirish peshtoqi an'anaviy ravishda Shahrisabz eski shahar qismida tarixan yuzaga kelgan katta yo'lga qaragan. hovlisi kesik burchakli kvadrat shaklga yaqin. hujralari uchli gumbazlar bilan yopilgan. Tub aholining og'izdan-og'izga o'tib kelayotgan gaplariga qaraganda, bu karvonsaroyda o'z vaqtida turli mamlakatlar, shu jumladan hindistondan kelgan savdogarlar ham qo'nib o'tishgan. "Koba" nomining kelib chiqishi bir tahminda bu "Qubba so'zining mahalliy aholi tipidagi talaffuzi deyilsa, boshqasida go'yoki uni arablarning Kufa shahridan kelgan ustalar qurganligi uchun "Kufa" so'zining buzilgan shakli deyiladi. 58 Yodgorlik o'rta asrlardagi an'anaviy me'morchilik uslubida qurilgan bo'lsa-da, o'z vaqtidagi boshqa shaharlardagi karvon " saroylardan joylashuvi hamda me'morchilik yechimlari bilan yaqqol farq qiladi. Aslida karvonsaroy temuriylar davridagi savdo munosabatlari natijasida barpo etilgan bulib, Iroqning Kufa shahridagi savdogarlar tomonidan barpo etilgan va asosan unda Yaqin Sharq mamlakatlaridan kelgan savdogarlar yashab, O'rta Osiyo hususan Shahrisabz ahli orasida savdo munosabatlarini tiklagan. Keyinchalik turkiy transkrepciya asosida Koba terminiga aylangan.

Me'morchilik yodgorligi kapital ta'mirlalab. Ta'mirlash natijasida xalqaro va mahalliy turizm ob'ekti (masalan, milliy taomlar restorani, maqom konserti maydoni va milliy liboslar uyi) sifatida funksional ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Chorsu (XVI asr): Mazkur obekt 2001 yilda YUNESKO ning "Umuminsoniyat merosi" kitobi ruyhatiga kiritilgan. Chorsu savdo gumbazi temuriylar davriga mansub ajoyib savdo majmuasi hisoblanadi. Yodgorlik tarixiy shaharning markazidagi ko'chalar chorrahada joylashgan bo'lib, u shaharning tarixiy me'morchilik tuzilmasidagi asosiy ob'ektdir. Yodgorlik ta'mirga muhtoj bo'lib, shaharning asosiy transport tarmog'i yonida joylashgani uchun jiddiy zarar ko'rgan. Yodgorlik shaharning Ipak yo'li ko'chasidagi asosiy turistik marshrutida joylashgani tufayli ta'mirlash zarur va u kelajakda asosiy turistik ob'ekt sifatida xizmat qiladi. Chorsu Shahrisabz markazida, shimoldan janubga va sharqdan g'arbga olib boruvchi yo'llar chorrahasida, o'qlarga mutanosib joylashgan, umumiy o'lchami 21x21 m li bir markazli bino bo'lib, oldinga turtib chiqqan to'rt peshtoqi, gumbaz ostidagi markaziy zalga olib kiruvchi ravoqlari bor. Zal tarqi kesik burchakli kvadrat, zalga nisbatan diagonal joylashgan o'tish yo'llaridan burchaklardagi xonalarga kiriladi. Markaziy zal usti charg'i gumbazli. Gumbaz zal burchaklarida past joylashgan ravoq bag'allari ustidan boshlangan. Xonalarda qalqonsimon bag'allar "archasimon" qo'yilgan. XV asrda qurilgan Shahrisabz Chorsusi Buhoro, Samarqanddagi Chorsular takrori emas. U bunday binolar tipologiyasini saqlagan holda alohida echimga ega. [39]. Shahrisabzda bir nechta bozor mavjud bo'lib, ulardan asosiysi shahar markazida joylashgan «Chorsu» bozori deb nomlanuvchi ushbu bozor hozirda ham mavjud. Shaharning darvozalariga boruvchi yo'llar ushbu bozordan boshlangan. Diniy mafkuraviy markazlar: Shahrisabzning jamoa - diniy zonasi -shaharning janubi - sharqiy qismida XIV-XV asrlarda yirik maqbara komplekslari bunyod etilgan. Ulardan eng

mashhurlari "Dor us- siyodat" va "Dor ut- tilovat" , Amir Temur o'zi va avlodlari uchun qurdirgan masjid, madrasa va maqbaralar majmuasi mavjud.

Dorus-Saodat majmuasi Majmua Shahrisabz shahri Xovuzmardon kucha 39 uyda joylashgan bo'lib, ushbu majmuaning konservasiya qilingan asosi bilan birgalikda quyidagi yodgorliklar saqlanib qolgan.XVI asrning 2-yarmida Abdullahon II ning qilgan hujumlaridan birida imorat vayron bo'lgan. Dor us-saodat majmuasi vujudga kelishiga Jahongir maqbarasi asos bo'lgan. Jahongir maqbarasi qurilayotgan vaqtda taxmon va gumbazning dastlabki ko'rinish tuzilishi ichki tomondan ganchli muqarnas bezak bilan bekitilib qo'yilgan edi, uning qoldiqlari hanuzgacha saqlanib qolgan. Bu yodgorlik O'rta Osiyoda yagona, ya'ni to'rt gumbazli maqbara bo'lgan. hozirgi vaqtgacha esa mana shu to'rtta gumbazdan faqat uchasi saqlanib qolgan, ichi ganchli gumbaz esa vaqt o'tishi bilan buzilib ketgan. Ichki gumbaz qanoslari ostida zangori bo'yoq bilan: "Dono ezgu niyat bilan harakat qiladi,nodon ezgu niyat bilan kutib turadi" degan Hikmatli o'gitlar bitilgan.Maqbara janubiy devorining haddan tashqari qalinligi va shimoli-g'arbiy burchakda musthkam dumaloq minora mavjudligi e'tiborni tortadi,go'yo umumiy hajmiy yechimdagi mutanosiblik buzilganday tuyuladi. Bu holat B.N.Zasipkin tomonida nqayd etilgan. [41].

Majmuning asosiyismi 1380-1404 yillarda Amir Temur tomonidan temuriylar xilxonasi sifatida bunyod etilgan. Majmuadagi hazrati Imom maschidi Buxoro xoni Abdullahon tomonidan qurdirilgan.Majmua hozirgi kunda juda ta'mir talab holatda. Jahongir maqbarasi shimoliy-sharq burchagida sezilarli darajada chuqish davom etmoqda. buning tezda chorasini ko'rish va mustahkamlash zarur. Majmuada to'liq ta'mirlash, konservasiya qilish va obodonlashtirish ishlarini bajarish zarur. Dorus-Saodat majmuasi umumiy ko'rinishi Jahongir Mirzo maqbarasi sharqiy devori qismi holati. Maqbara tashki devor qismi holati. Dorut - Tilovat majmuasi Majmua Shahrisabz shahri Ipak yo'li kuchasida joylashgan bo'lib, ushbu majmuada:

I. Shayx Shamsiddin Kulol maqbarasi

II. Gumbazi Sayidon maqbarasi

III. Ko'k gumbaz masjidi.

IV. 1910 yillarda qurilgan hujralar mavjud.

I. Shayh Shamsiddin Kulol maqbarasi 1374 yilda Amir Temur tomonidan barpo qilingan. Shayh Shamsiddin Kulol Amir Temur otasining ya'ni Muhammad Tarag'ay Bahodirning piri bo'lgan. Shayh Shamsiddin Kulol 1373 yilda vafot etgan. Shayh vafotidan keyin Temurning otasi chuqur qayg'uga tushib o'gliga vasiyat qiladiki: «Meni vafotimdan keyin jasadimni o'z ustozim poyi qadamida quydir» deb 1373 yilda Muhammad Tarag'ay Bahodirham vafot etadi. Temur otasining vasiyatini bajo keltirish uchun otasining jasadini Shayh Shamsiddin Kulolning poyi qadamida dafn etadi.

Shayh Shamsiddin Kulol maqbarasi hozirgi kunga kelib ta'mir talab ahvolga kelib qolgan. Maqbara tashqi va ichki intereri bezaklarini ta'mirlash zarur.

II. Gumbazi Sayidon maqbarasi 1437 yilda Amir Temurning nabirasi Mirzo Ulugbek tomonidan qurilgan. Maqbara ichida XV-XVII asrlarga oid bir necha qabr toshlari bor. Bu qabr toshlari Termizlik Sayidlarga oid bulib, bir - biridan kata kichik holda joylashtirib quyilgan. Hozirgi kunda Gumbazi Sayidon maqbarasini ichki va tashki naqsh bezaklari ta'mir talab holatga kelib qolgan. Birinchi navbatda ta'mirlash ishlarini bajarish lozim.

III. Ko'k gumbaz maschidi 1435 yilda Mirzo Ulugbek tomonidan qurdirilgan. Odatda jom'e maschidlari kompleks qurilishlardan iborat bo'lib, atrofi devor bilan o'ralgan, o'rta qurilgan gumbazli binolar va atrofidagi ravoqli ayvonlarni o'z ichiga olgan. Ko'k gumbaz maschidi Mirzo Ulugbek davrida O'rta Osiyoda kurilgan eng katta maschidlardan biri bo'lgan. Ko'k gumbaz maschidi hozirgi kunda ta'mir holatga kelib kolgan. Maschid peshtoq, gumbaz plitkalari baraban va sharafa naqsh plitkalari, ayvon tomi va ichki intererlarini qayta ta'mirlash ishlarini bajarish zarur. [41].

VI. Majmua hujralari 1910 yillarda qurilgan. Ushbu hujralar madrasa darshonalari bo'lgan. Ushbu hujralar hozirgi kunda ta'mir talab ahvolga kelib

qolgan. Hujralarni ichki va tashqi devorlarini hamda gumbazlarini ta'mirlash zarur.

V.I Arslonxon maschidi qoldigini konservasiya qilish.

VI.I Majmua hovlisi va atrofini ta'mirlash va obodonlashtirish.

Abdishukur Og'oliq madrasasi:

Abdishukur Og'oliq madrasasi Shahrisabz shahrining Ipak yo'li ko'chasida Koba karvonsaroyi ro'parasida joylashgan. Abdishukur Og'oliq masjidi 1900-1910 yillarda Abdishukur degan bir boy tomonidan qurilgan. Ushbu madrasa majmua sifatida qurilgan bo'lib, gumbazli xonaqo oldi va yon taraflari nakshinkor uyma ustunlar bilan o'ralgan. Ayvon janub va shimol tomonidan hujralar bo'lgan. Hozirgi kunda shimol tomon hujralari saqlanib qolgan.

Majmua Shahrisabz shahrining tarixiy markazida joylashgan. Majmuaning saqlanib qolgan yozuv qoldiklari bo'yicha 1910 yilda qurilgan. 1917 yilga qadar Molik Ashtar mahalla masjidi va yon hujralari madrasa sifatida faoliyat ko'rsatgan. 1917 yildan so'ng masjid va hujralar harbiy komissariatga topshirilgan so'ngra qishloq xo'jalik tehnikumi bo'lib faoliyatko'rsatgan. Mustakilligimizning sharofati bilan xozirgi kunda kelib yana mahalliy maschidiga aylandi. Ko'p talofatlarni boshidan kechirgan bu majmua hozirgi kunda kelib ancha ta'mir talab ahvolga kelib qolgan. Xonaqo ichki devorlari, hujralar, ayvon ustun va vassalari tomlarini qayta ta'mirlash zarur bo'ladi.

Chubin me'moriy majmui shaharning shimoli-sharqiy qismida, Chubin mahallasida joylashgan. Chubin ko'proq joy nomi bilan bog'liq bo'lib, u erda o'tmishda, ehtimol, yog'ochga ishlov beruvchi hunarmandlar mahallasi joylashgan bo'lishi mumkin. Yodgorlik funksional jihatdan o'zaro boqliqbo'g'inlar - masjid binosi, hujralar, darvozahona va hovlidan tarkib topgan majmuadir. Inshoat mujassamotining markazi kvadrat tarhli, usti gumbaz zal. G'arb-sharq o'qida mehrob vazifasini bajaruvchi va ichki bo'shliqni bo'rttirib turuvchi yarim sakkiz qirrali taxmon joylashgan. Shu

o'qning o'zida sharqqa qarab masjidning yarim sakkiz qirrali peshtoq tahmoni tarzida ishlangan kirish yo'li joylashgan. Shimol-janub o'qida uncha baland bo'lmagan gumbazli ikki zal joylashgan. Bu zallar asosiy zal bilan tashqi tarzga peshtoqli kirish yo'li bilan qaragan o'tish joyi orqali bog'langan.

Chim voha devori va o'lka mudofa devori. XVIII –XIX asrlardagi nafaqat Qashqadaryo vohasining , balki umuman O'rta Osiyoning tarixini o'rganishda shu davrda vujudga kelgan mudofa inshootlari muhim o'rin tutadi. Mudofa tizimini yaratishda mutaxassislar o'z davrining barcha yutuqlaridan, shunigdek avlodlar tajribasidan keng foydalanganlar. Shaharlar qishloqlar, savdo yo'llari, daryo kechishuvlari va boshqa muhim joylarni mudofa qilishda qalin devorlar, qo'rg'onlar, to'pxonalar kuzatuv joylaridan keng foydalanilgan. Shubilan birga o'z davri me'morligi an'analari asosida qurilgan ushbu inshootlar voha moddiy madaniyatining ajralmas qismini tashkil etadi.

O'rganilayotgan davrda Kitob- Shahrisabz vohasi mudofasida "Chim" voha devori muhim o'rin tutadi. Juda katta hududni qamrab olgan bu devor Qashqadaryo vohasining sharqiy qismidagi ikkita shahar – Shahrisabz va Kitobni hamda ularning atroflaridagi qishloqlarni o'rab olgan . Bu davrda Shahrisabz vohasida o'ziga xos mudofa tizimi Chimvoha devorining paydo bo'lishi ham Buxoro bilan Shahrisabz o'rtasidagi siyosiy ziddiyatlarning bevosita natijasidir."Chim" mudofa devorining tuzilishi va u bajargan harbiy mudofa tizimini o'rganish so'ngi o'rta asrlardagi harbiy san'at tarixini hujum va mudofaa urushlari usullarini tushinishga yordam beradi.

"Chim" devorining vujudga kelishi, ularning uzunligi, mudofaa to'g'risidagi ilk fikrlar XIX asrning 70 yillaridayoq paydo bo'lgan edi. Dastlab chimni tadqiq qilish borasida ish olibborgan rus zobiti G.Aminov ikki kundavomida devorning 43 chaqirim uzunlikdagi kuzatib chiqqani va devorning va devorning yarmi ko'zdan kechirilgan, deb hisoblagani avvalgi sahifalarda aytib o'tilgan.

"Chim" ni o'rganishda I. Bekchurin ma'lumotlari ham qiziqish uyg'otadi. Shahrisabz bekligi to'g'risidagi u "Chim"ning uzunligi 40 chaqirim deb ko'rsatadi. Shu yerda Jo'rabek va Bobobeklar bergan ma'lumotlarni ham

keltiradiki, ushbu ma'lumotlarga ko'ra, "Chim" ning uzunligi 40 chaqirimga teng bo'lgan. I. Bekchuriyning yozishicha "Chim" Shahrisabz va Kitobdan tashqari uchta qo'rg'oni, ya'ni Shamaton, O'rtaqo'rg'on, Dayakni, Shunigdek, yana bir qancha qishloqlarni qamrab olgan. 1963 yilda Tosh DU arxologlari (Z. Hakimov, P. Govryushenkov) guruhlaridan biri "CHim" ni o'rganish borasida ishlar olib borildi. Guruh faoliyati tufayli "Chim" to'g'risida tasavvurlar ancha kengaydi.

1995 yil bahorida, yani 30 yildan ko'proq vaqtdan keyin o'tkazilgan qayta kuzatishlar voha moddiy madaniyatining ajralmas qismi bo'lmish ushbu devor qariyb, saqlanib qolmagani M.E. Massonning bundan 35 yil oldin bu holdagi yodgorliklarni o'rganish zarurligi, aks holda tabiiy yemrilishlar va yangi yerlarni o'zlashtirish maqsadida tekislanishi oqibatida ular fan uchun yo'qotilishi mumkinligi to'g'risidagi fikrning to'g'riligini ko'rsatdi.

1995 yilgi kuzatuvlar, alohidan so'rov natijasida olingan ma'lumotlar asosida hamda 1963 yilgi kuzatishlar natijalarni hisobiga olgan holda quyida "Chim"ning qiyofasini tiklashga, uning qaysi hududlardan o'tkanligini ko'rsatishga harakat qilamiz.

"Chim" devori biz arxeologik qazish ishlari olib borilgan, qazish olib borilgan O'rtaqo'rg'on qishlog'ining shimoliy-sharqiy qismida joylashgan chimildiqotatepaning qamrab olib, Shamaton qishlog'I tomon burilgan vabunda Qumqishloq devorining tashqi tomonida qolgan manbalarda ko'ra, "Chim" devori ichida uchta yirik qo'rg'on biri Shamaton bo'lgan, lekin hozirqo'rg'on qoldiqlari saqlanmagan Oqsoqollarning aytishicha "Chim" qishloqning shimoliy qismidan o'tib, Govmishon qishlog'i orqali Oqsuv daryosi qirg'oqlariga brogan. [39].

Shahrisabz shahri tarixiy markazigda shaharlar qishloqlar, savdo yo'llari, daryo kechishuvlari va boshqa muhim joylarni mudofa qilishda qalin devorlar, qo'rg'onlar, to'pxonalar kuzatuv joylaridan keng foydalanilgan.

3.2. Shahrisabz shahri tarixiy markazini qayta tiklash loyiha taklifi.

1926-yilda Shahrisabz shahri tarixiy topografiyasini o'rganish uchun Shahrisabzga A.Yu. Yakubovskiy jo'natildi. 1927-yilda arxitektor B. N. Zasiptin Sredazkomstars yo'li bilan shahar me'moriy yodgorliklarini o'rganib ular bo'yicha ilk tarixiy- me'moriy tahlilni yaratdi. 30- yillarda Shahrisabz obidalarini Ya. G'. G'ulomov, T. M. Mirg'yosov . S. K. Kabanov tomonidan o'rganildi. 1936-yilda arxetektor M. F. Mauer Samarqand qadimiy va sanat yodgorliklarini himoya qilish qo'mitasi yo'li bilan ta'mirlash maqsadida me'moriy obidalar ahvoli bilan tanishdi. 1938-yilda Moskva arxitektura institutining maxsus birgadasi ularning tarhini o'lchadi 30-yillar oxirida shaharning batafsil plani yaratilib, unga barcha mahallalar kiritildi. 1940-yil Shahrisabzda O'zSSSR San'atshunoslik institutidan arxetektorlardan V.L.Voronina va G.N. Gachanovlar ishlashdi. Ular XIX asr turar joylari hamda masjidlarini tadqiq etishdi. SAGU tarix fakultetida arxologiya kafedrasining asoschisi M. E. Masson 1942-yilda arxetektor G.A. Pugahenkova bilan birga Shahrisabzni tarixiy arxologik va tarixiy-me'moriy nuqtai nazardan o'rganish maqsadida ekspeditsiya uyushtirdi. M. E. Masson 1932-yilda Shahrisabz o'tmishini o'rganar ekan, Qashqadaryo vodiysida kelgusida o'tkazilajak yirik tarixiy-arxologik ishlarning mavzu rejasini tuzdi.

O'tgan asrning 60-yillarida butun Shahrisabz vohasi devori bo'lgan Chim devori tarixiy- arxologiya nuqtai nazardan maxsus tadqiq qilindi. Natijada bu devor bir yo'la qurilmaganligi balki uning bunyod etilishi ilk o'rta asrlardan boshlab, ming yildan ziyod vaqt davom etgani ma'lum bo'ldi. Devorning bizning davrga qadar yetib kelgan qismi, XIX asrda Kitob beklari davrida tiklangan Katta Langar Eski Langar me'moriy obidalarini maxsus taqqiq qilinadi. [31].

1982-yilda Shahrisabzni arxologik jihatdan tadqiq etish ishlari yangidan boshlandi. Bunda shaharning o'zi ham uning atrofi ham o'rganildi. Shahar qismlarining rivojlanish bosqichlari aniqlash uchun Shahrisabz hudidida tozalash ishlari amalga oshirildi. Hamda shurufar qozildi, buning uchun

xonodonlar o'rtasidagi xoli yerlardan stadion yoki xiyobondagi maydonchalardan foydalanildi, binolar poydevorlarini qo'yish chog'ida kuzatish ishlari olib borildi. va h.z. VII-VIII asrlarga oid madaniy qatlamlar aniqlandi, ular tanga topildiqlar bilan tasdiqlandi. Shahrisabz qal'a davoridan shimolda, Balantepa olib borilgan qazish ishlari bu yerda ishlari ilk o'rta asrlarga (V-VIII asrlarda) qasr bo'lib, atrofida mustahkamlanmagan qishloqlar yoyilib joylashganligi haqida gapirish imkonini berdi. Qashqadaryo sharqiy hududlarining arxologik xaritasi ustida olib borilganish o'rta asrlar yodgorliklarini oldindan tasniflash imkonini berdi.

O'rganilgan ma'lumotlarga asoslanib, Shahrisabz bosh rejasi qaytatdan ishlab chiqildi. Chunki soboq SSR davrida shahar bosh rejasi yaxshi ishlanmaganligi uchun tarixiy obe'ktlar savdo va umumiy ovqatlanish binolari qurshovida qolgan hamda aholi turar joylari joylashgan edi. Amaldagi bosh rejaga mazkur mumomalarni hal qilish ko'zda tutilgan bo'lib, bugungi kunda amalga oshirilgan.

Hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qarorlarini keltirib o'tamiz. 2011 yilda Fransiyaning «COKRA» madaniy meros obyektlarini konservatsiyalash milliy kompaniyasi Dordone viloyati departamenti Bosh kengashi bilan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va sport ishlari vazirligi hamda Shahrisabz tuman hokimligi o'rtasida o'zaro bitim-konvensiya imzolangan edi.

— Loyihaga Silven Olane xonim rahbarlik qildi, — deydi *Amir Temur nomidagi tarix muzeyi direktori, tarix fanlari nomzodi Nabi XUSHVAQTOV*. — Mazkur loyihaga binoan, Oqsaroyning bizgacha yetib kelgan qismidagi favvoralar o'rni, mozaykalar chuqur tadqiq etildi. Ular qayta tiklanib muzey tashkil qilindi. Bu hamkorligimizning birinchi qismidir. Hozirda boshqa madaniy yodgorliklarni o'rganish ishlari davom ettirilmoqda.

Amir Temur maydonini, uning yon-atrofidagi hududni yanada kengaytirish, Oqsaroy kompleksi bilan Dorus-saodat, Dorut-tilovat, Chorsu bozori, Ko'k gumbaz kabi tarixiy obidalarni bog'lab turadigan yangi, go'zal xiyobon barpo etish orqali bu maskan yaxlit tarixiy-me'moriy majmuaga aylanadi.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2014 yil 20 fevralda qabul qilingan «Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz shahrida obyektlarni qurish va rekonstruksiya qilishga doir kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida»gi qarorda mukammal aks etgan. Qarorga binoan shahar markazida qator binolar, do'konlar ko'chirilganligi tufayli Amir Temur xiyoboni bilan boshqa nodir yodgorliklar orasida keng maydon hosil bo'ldi. Bu alleya eng ko'rkam manzilga aylanadi.

Sohibqiron tavalludining 660 yilligi munosabati bilan katta obodonchilik ishlari amalga oshirilgan, ulug'vor haykal o'rnatilgan edi. Shundan keyin shaharning haqiqiy tarixini tiklash ishlariga astoydil kirishildi. Yurtimiz va xorijiy davlatlar yetakchi olimlari tadqiqotlari natijasida shahar tarixi 2700 yil ekanligi isbotlandi.

Oqsaroyning salkam 40 metrlik arkining saqlanib qolgan. Oqsaroy arkining qurilgan paytidagi balandligi 70 metrdan kam emasligi tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan. Afsuski, sobiq tuzum davrida shahar o'z holiga tashlab qo'yildi. Uylar, do'konlar duch kelgan joyga qurib tashlanaverdi. Tarixiy obidalar, qimmatli yodgorliklar xarobaga aylandi. O'rta asr me'morchiligining nodir namunasi — Ko'k gumbaz jome' masjidi qamoqxonaga aylantirildi, keyinroq qandaydir savdo tashkilotining omborxonasi bo'lib qoldi.

Mustaqillik milliy qadriyatlarni xalqimizga qaytardi, buyuk o'tmishimizning qaddi rostlandi. Amir Temurning nafaqat yurt ozodligi yo'lidagi kurashlari, balki obodonchilik borasidagi ulkan xizmatlari ham xorijlik tadqiqotchilar tomonidan e'tirof etildi. Bugun shaharga tashrif buyurayotgan mehmonlar, sayyohlar, eng avvalo, Sohibqiron haykali poyiga kelishadi. Hozirda hukumat qarori asosida markaziy xiyobon, uning atrofi, bosh rejaga ko'ra, tubdan o'zgartirilmoqda. Xiyobonni sug'orish tizimi butunlay yangilandi. «Qashqadaryotelekom» Shahrisabz filiali binosidan Dorut-tilovat majmuasi hududigacha bo'lgan yo'l chetidagi tungi yoritkichlar eng zamonaviy yoritish moslamalariga almashtirildi. Xiyobonga yaqin «San'at saroyi» binosi qaytadan ta'mirlandi. Dasturda Koba karvonsaroyi, Kunchiqar, Xovuzak Mardon, Molik

Ajdar masjidlari, Abdushukur og'alik madrasasi qayta ta'mirlanishi belgilangan. Yana tarixiy ahamiyatga ega bo'lgan 7 inshoot yangicha ko'rinishga ega bo'ladi.

Shahrisabzning tarixiy markazini tutashtirib turadigan asosiy yo'llarni, ya'ni Ipak yo'li ko'chasini kengaytirish, Tarag'ay Bahodir va Sheroziy ko'chalarini kapital ta'mirlash orqali shaharning ichki halqa yo'lini barpo etish ta'minlanadi.

Qarshi Shahrisabz magistral avtomobil yo'li ikki tasmalidan to'rt tasmaliga aylantiriladi. Hozir shaharning qoq o'rtasidagi Ipak yo'li ancha kengaytirildi. Beruniy, Nizomiy, Paxtakor ko'chalarining 8,5 kilometrlik qismi butunlay yangilandi. Jami 150 kilometrlik ichki yo'llar kengaytirildi, ta'mirlandi, atrofi obod bo'ldi. Bundan tashqari, «Shahrisabz» bosh avtobekati qayta rekonstruksiya qilindi. "Hovuzi Mardon" ob'ekti va Amir Temur maydoni rekonstruksiya qilingan. "Oqsaroy" majmuasini "Doruttilovat" va "Dorussaodat" majmualari bilan birlashtiruvchi alleya va bulvar qurilishi amalga oshirildi.

Shahrisabz taixiy markazini rekonisturiksiya qilish munosabati bilan favoralar kanallarini rekonisturiksiya qilish taklif qilindi. Favoralar uchun zamonaziy yechimlar ishlab chiqildi. Ikkinchi sonly favoralarni rekonisruksiya qilish loyihasida taglarini to'ldirishni, muayyan tuzilmalarni demontaj qilish nazarda tutladi. Yangi avtomatlar tizimi suvosti tuzilmasi hsilqiladi. Har bir favorada bitta nasos stansiyasi mavjud. Favoralarni devorlarini bezashni "Jolatu" granitdan badiiy gravantatsiya bilan bezash taklif etiladi. Beshinchi oltinchi sonly favoralar ni rekonistiruksiya qilish uchun loyihada tagliklarni to'ldirishni muayyan tizimlarni demontaj qilish nazarda tutiladi. Yangi avtomatlar suv massivini hosil qiladi, uning ostida piyoda ko'prigi loyhalashtiriladi. Ikkita favorani saqlash nasoslari mavjud. Favoralarning devorlari "Jlatu" toshidan foydalaniladi bu bezaklar uni jilolatadi. Mavjud kanalga qo'shimcha kanal kiritiladi. Yettinchi sakkizinchi sonly favoralar kanallarini rekonstiruksiya qilish uchuntagliklari to'ldirish ba'zi tuzilmalarni demontaj qilish qilish yangi tizimni o'z ichiga oladi. U yerda kattanasos

stansiyasi mavjud. Devorlarini bezashda Buxoroning ohaktoshidan foydalanilgan. [www ziyonet.uz].

Shahrisabz shahrida asosiy xiyobonda umumiy foydalanish uchun ikki uch qavatli turar joy binolarining me'moriy varejalashtirish yechimlari ishlab chiqildi. Loyiha quyidagilarga muvofiq amalga oshirildi.

Sh.N.K. 208.02.09. "Davlat binolari inshootlari"

Sh.N.K. 2.08.01.05. "Turar joy binolari"

Sh.N.K. 2.01.02.04. "Bino va inshootlarni yong'indan xavsizligi "

Sh.N.K. 2.07.02.07. "Yashash muhitini loyihalashtirish" imkonyati cheklangan nogironlarga ehtiyojlarini inobotga olgan holda Ikki uch qavatli turar joy binolari Tariyiy markazga mo'ljallangan bo'lib, shahar iqlimi , shamol yo'nalishi ham hisobga olingan. Uy joy binolarining loyihalashtirish kompleksi aholi turmish sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shahrisabzni xususiyashtirish va rivojlantirish uchun muayyan shart sharoitlar yaratiladi.

Shahrisabz shahri tarixiy markazi bosh plani loyihasi (Uz shaharsozlik LITI



14- rasm (*Shahrisabz shahri bosh rejasi loyihasi*)

Majmuaning umumiy maydoni 76 gektar bo'lib, 51 gektar joyi ko'kalamzorlashtiriladigan zonani tashkil etadi. Ushbu yashil zonada bugungacha 25,7 ming kashtan, dub, paxta daraxtlari va 60 turdagi magnoliya, jasmin va boshqa manzarali buta ko'chatlari ekilib parvarishlanayapti. Binolar 7 ta blok (117 xonadon) yangi binolar qurilgan.

3.3 Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks rivojlantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish.

Shahrisabzning tarixiy markazini tiklash bo'yicha qaror qabul qilindi. Shuningdek Xiva, Buxoro va Samarqanddagi madaniy meros ob'ektlarida qo'riqlash ishlari kuchaytiriladi. [12 iyun 2018, Jamiyat]

O'zbekiston hukumati 2018-yil 9-iyun uni «O'zbekiston Respublikasi hududidagi YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga kiruvchi ob'ektlarni qo'riqlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi. Bu haqda «Gazeta.uz"ga Vazirlar Mahkamasidagi manba xabar berdi.

Hujjatda Butunjahon merosi ro'yxatiga kiruvchi binolarni qo'riqlash xizmatini yaxshilash bo'yicha «Yo'l xaritasi» ishlab chiqilgani hamda YUNESKO huzuridagi Butunjahon merosi qo'mitasining taklifini amalga tatbiq etish ko'zda tutilgan. Uning amalga tatbiq etilishida xalqaro ekspertlarni jalb etish rejalashtirilgan.

O'zbekiston YUNESKO ning madaniyat va tabiat meroslarini qo'riqlash bo'yicha konvensiyasini 1995 yil 22 dekabrda ratifikatsiya qilgan. YUNESKO Butunjahon merosi ro'yxatiga O'zbekistondan Xivadagi Ichan qal'a, «Samarqand — madaniyatlar chorrahasi», Buxoro va Shahrisabzning tarixiy markazlari, shuningdek, Chotqol biosferasi (tabiat merosi sifatida) kiritilgan.

Hukumat Butunjahon merosi ro'yxatidan o'rin olgan madaniy va tabiat meroslari hududlarini himoya qilish uchun chegaralar loyihasini ishlab chiqishni va ularni bosh reja dasturiga kiritishni, shuningdek, YUNESKO Butunjahon merosi markazi bilan kelishgan holda mazkur hududlarni 2018 — 2022 yillarda boshqaruv rejasini ishlab chiqishni topshirdi.[40].

YUNESKO huzuridagi Butunjahon merosi qo'mitasi taklifiga binoan bir yil davomida Shahrisabzning tarixiy markazidagi bebaho universal va umuminsoniy meroslarni tiklash yuzasidan obodonlashtirish ishlari o'tkazilishi belgilandi. 2018- yilning Avgust oyi oxiriga qadar Shahrisabzning tarixiy markazidagi mahallalar, an'anaviy uylar, «Koba» karvon saroyini tiklash, yoritish uskunalarini kamaytirish, ko'ngilochar attraksionlarni shaharning

boshqa qismiga ko'chirish bo'yicha dastur ishlab chiqilish takidlab o'tildi. Sentyabrda Shahrisabzning tiklash mumkin bo'lgan qismlari hamda 2018 — 2022 yillarda tarixiy markazni boshqarish bo'yicha reja dasturi YUNESKO Butunjahon merosi markazida namoyish etilishi rejalashtirilmoqda. Bundan tashqari yanvar oyiga qadar Butunjahon merosi qo'mitasi bilan kelishuv asosida Shahrisabzning tarixiy markazining yangi bosh plani ishlab chiqilishi ko'zda tutilgan. Xivadagi Ichan qal'ada va Buxoro markazida hamda ularning qo'riqlanadigan hududlarida olib borilayotgan barcha kapital qurilishlar YUNESKO Butunjahon merosi markazi tasdiqlagunga qadar to'xtatiladi. Bu hududdagi barcha bino va tuzilmalar, shuningdek uy-joylar inventarizatsiya qilinadi. Olimlar va xorijiy ekspertlar ishtirokida ushbu shaharlarni saqlab qolish bo'yicha konsepsiya ishlab chiqiladi. Joriy yilning 1 iyuliga qadar moddiy madaniy meros ob'ektlarining davlat kadastriga kiritilgan ob'ektlarining yangilangan ro'yxati tasdiqlanishi kerak. Bu borada jamoatchilikni xabardor qilish uchun ma'lumotlar internetda e'lon qilinadi.

Yuqorida keltirib o'tilgan ma'lumotlar asosida disertatsiyada Shahrisabz shahri tarixiy markazini kompleks rivojlantirish loyiha taklifi ishlab chiqildi. Bunda Shahrisabz shahri tarixiy markazini saqlash va kompleks rivojlantirish bo'yicha quyidagi loyihalar amalga oshirildi:

Birinchidan: Tarixiy markazni Umumiy hududi o'rganilgan holda tarixiy markaz bosh rejasi loyihalandi.

Ikkinchidan: Tarixiy markaz obidalarini saqlash va kompleks rivojlantirish chora tadbirlari ishlab chiqildi.

Uchinchidan: Obidalarining atrof muhiti va ularning bir biri bilan bog'lovchi yo'laklar loyihalandi

To'rtinchidan: Mahalla markazi hamda turarjoy binolari Shahrisabz urf - odatlari va ananalariga tayangan holda loyiha takliflari ishlab chiqildi.

Beshinchidan: Tarixiy Shaharning Mudofa (qal'a) devorlarining bugungi kundagi saqlanib qolgan qismi o'rganilgan holda Qayta tiklash loyihasi ishlab chiqildi

Oltinchidan: Ko'kalamzorlashtirish va sug'orish tizimlari loyihalandi

Ettinchidan: Qayta tiklangan tarixiy markaz va konservatiya (o'zholicha saqlash) qilingan obidalarda turizm soxasini kuchaytirish hamda ularga qulay sharoitlar yaratib berish loyiha takliflari ishlandi.

- Bunda:
1. Markazdagi binolarga moslagan holda mehmonxonalar.
 2. Alleyalar, xiyobonlar va markaziy foyvoralar.
 3. Muzey
 4. Hunarmandlar uyi va hokoz

1. Tarixiy markaz bosh rejasi loyihasi



14- rasm.(Shahrisabz shahri tarixiy markazining bosh rejasi) loyihasi.

2 .Tarixiy markaz obidalarini saqlash va kompleks rivojlantirish (*Ko'k gumbaz va Dout tilovat majmualari loyiha taklifi*)



15- rasm. *Ko'k gumbaz va Dout tilovat majmualari loyihasi*)

3. Mahalla markazi hamda turarjoy binolari loyihalarini ishlab chiqish.



16- rasm. (*Turarjoy binolari taklifi*)

4. Tarixiy Shaharning Mudofa (qal'a) devorlari qayta tiklash loyihasi



16- rasm. (*Qal'a devorlarini tiklash loyiha taklifi*)

Turizm soxasini rivojlantirish bo'yicha loyihalar ishlab chiqish



17- rasm. (*Mehmonxona loyiha taklifi*)

Hunarmandlar markazi loyihasi



18- rasm. *(Hunarmandlar binosi loyiha taklifi.*

Tarihiy shahar bosh rejasi loyihasini ishlab chiqishda umumshahar markazi rivoji masalalari tarihan qimmatli hududlar va majmualarni uning tizimiga kiritish, ularning funksional foydalanilishi va shakllanayotgan fazoviy-rejaviy tuzilishidagi kompozision rolini aniqlash zaruriyatini inobatga olgan holda hal qilinishi kerak. Bunda yuzaga keluvchi shaharsozlik echimlarini ularning turli-tumanligida markaz rivojining uch asosiy variantlariga keltirish mumkin:

- tarixan shallangan markazni uning tuzilishi va inshootlarini zamonaviy talablarga moslashtirish yo'li bilan o'zgartirish;
- tarihiy markazni hududiy kengaytirish va atrof maydonlarda yangi jamoat majmualarini qurish;
- tarixan shaklangan hududdan bir qancha masofada yangi markazni yaratish, unda umumshahar markazining ba'zi funksiyalari qoladi.

3 bob bo'yicha xulosa.

Xulosamizda ko'rinib turibdiki, Qashqadaryo viloyati me'morchiligi O'zbekistonning boshqa viloyatlari singari ko'p ming yillik tarihga ega. Buni viloyat hududida olib borilgan arxeologik qazishmalar natijasida topilgan yodgorliklaridan bemalol o'rganish mumkin. Shaharsozlik yuksak darajada rivojlangan. Viloyat hududida shahar madaniyati an'analari bir tekisda rivojlangan yirik aholi punktlari hamda ko'plab qishloqlar vujudga kelgan. Qashqadaryo vohasi shaharlari O'rta Osiyoning muhim savdo yo'llaridagi markazlar vazifasini o'tagan.

Shahrisabz me'morligining mahalliy xususiyatlari, ayniqsa, madrasalar qurilishida yaqqol namoyon bo'ladi. XVIII - XX asr boshlarida Buhoro xonligining ikkinchi yirik shahri bo'lgan, poytaxt me'morlik maktabining kuchli ta'siri ostida rivojlangan.

Shahrisabz shaqrining XIX asr oxiri-XX asr boshlaridagi funksional-tarxiy tizimi bir-birlari bilan bog'liq bo'lgan qo'rg'on devorlar, ko'chalar, turli markazlari va guzar (mahalla)lardan tashkil topgan. Tarixiy shaharlarda qadimgi devorlar o'rnida halqa ko'chalar paydo bo'lishini nazarda tutgan holda devorlari saqlanmagan. Shahar guzarlarga bo'lingan. Ularning soni 1948 yilda 52 ta bo'lgan. har bir guzarda 24 tadan 200 gacha xonadonlar bo'lgan. Guzarlar o'z markazlariga ega bo'lgan.

Loyihada eski shahar qismini kompleks rivojlantirishda rekonstruksiyalashda ochiq osmon ostida etnografik muzey - qo'riqxon yaratish bo'yicha chet davlatlar tajribasini qo'llash taklif etiladi, unda o'tmish davr turar joy namunalari bir hududda yig'ilgan bo'lardi. Qo'yilgan bu vazifalarni haqiqiy bosh plan chegarasida hal etish, Shahrisabz shahrini dunyo miqyosidagi sayyohlik markazlaridan biriga aylantirish imkonini beradi. Shahar markazi, sharqiy yo'nalishda shaharning umumiy rivoji bilan muvofiqlikda, turar joy tuzilmalar o'sishiga parallel ravishda rivojlanadi.

Uning kompozision tuzilishi shahar muhitining loyihalash tuzilishida xizmat ko'rsatuvchi umumshahar magistrallari strukturasiga asoslangan.

Umumiy xulosa.

Shahrisabz shahri tarixiy markazni rivojlantirish va o'z xolicha saqlab qolishda, Shahrisabz shahri tarixiy markazini bosqichma bosqich o'rganib chiqildi. Shahrisabz shahri Temuriylar davrida gullab yashnadi. Shahrisabz me'morchiligi ming yillar davomida rivojlanib kelganligi xulosamizning asosi demakdir. Boshqa viloyat imoratsoziligidan farqli o'laroq Shahrisabz shahri me'morchiligi va shaharsozligi umuman farq qilgadi.

Tarixiy shahar markazlarining rivojlanish varianti, eng avvalo, mavjud shaharning rivoji, masshtabi va yo'nalishiga bog'liq bo'lib, yodgorliklarning tarixiy-badiiy qiymati esa markazning me'moriy-fazoviy echimiga, kompozisiyaning shakllanishiga muhim ta'sir ko'rsatadi. Yuzaga kelgan markazlar tarixiy-me'moriy majmualarining ifodaviylik qiymati va kompozision ahamiyati, ularning rivojlanayotgan shahar masshtabiga mutanosibligi zamonaviy markaz kompozision g'oyasining asosi qilib olinadi.

Arxitektura yodgorliklari shahar va markaz kompozisiyasida etakchi rolni saqlagan hollarda yangi jamoat binolari tobe ahamiyatga ega bo'lishi, kompozisiyaning asosiy elementlariga nisbatan fon qurilishlari rolini bajarishi mumkin. Shuning uchun tarixiy markazning yangi qismini qurish, qayta tiklash qonuni asosida olib borilayotgan qurilishlarni tartibga solish zonasida yaratish mumkin. Ammo tarixiy qo'riqxonaga aylantirilgan shaharlarda yangi markazni mahobatli tarixiy inshootlardan ajratib qo'yish maqsadga muvofiqdir.

Xulosamiz so'ngida takidlab o'tish joizki 2715 yil tarixiy o'tmishga ega bo'lgan Shahrisabz shahri markazini qayta qiklash va kompleks rivojlantirish, uning ming yillar tarixga ekanligini ko'rsatib berish muhim hisoblanadi. Shunday ekan bugungi kunda Shahrisabz shahri tarixiy markazini qayta tiklash va kompleks rivojlantirish, uning o'tmishi qay darajada buyuk ekanligini ko'rsatib berish, kelajak avlodga meros qilib qoldirish, turizm sohasini yanada jadallashtirish muhim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

I. Normativ huquqiy xujjatlar:

1. “O‘zbekiston Respublikasiningm Shaharsozlik kodeksi ” qonuni 4 yanvar 2011 yil (o‘zgartirish va qo‘shimchalar bilan).
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategyasi to‘g‘risda. / Rasmiy nashr/. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi- Toshkent: “Adolat”, 2018 yil.
3. Mirziyoev , Shavkat Miromonovich. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlisga Murojatnomasi - Toshkent: “O‘zbekiston” NMIU, 2018.
4. Ozbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha haraketlar strategyasi “Faol tadbirkorlik, inovatsion g‘oyalar va texnologiyalarni qo‘llag - quvatlash yili” da amalga oshirishga aoid davlat dasturi to‘g‘risidagi farmoni.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 2 fevraldagi “2018-2022 yillarda aholi punktlari bosh rejalar bilan ta‘minlash , loyiha tashkilotlari faoliyatlarini yaxshilash, shunigdek, shaharsozlik sohasida mutaxasislar tayyorlash sifatini oshirish chora tadbirlari to‘g‘risida ”gi Qarori.
6. Shaharsozlik normaallari va qoidalari. ShNQ 2.07.01.-03* “Shaharsozlok. Shahar va qishloq aholi punktlari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish” /rasmiy nashr (o‘zbekcha-ruscha).Qo‘shimcha va o‘zgarishlar: ar.d.prof. Axmedov M.K., arx. N. dos. Balgayev A.B. va boshqalar tomonidan kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo‘mitasi – Toshkent, 2009 yil.

7. Shaharsozlik normalari va qoidalari. ShNQ 1.03.02-04* “Hududlarni rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish bo'yicha shaharsozlik hujjatlarining tarkibi , ishlab chiqish, kelishish va tasdiqlash to'g'risidagi yo'riqnoma”.rasmiy nashr (o'zbekcha ruscha.) Qo'shimcha o'zgartirishlar : ar.d.prof. Axmedov M.K., arx. N. dos. Balgayev A.B. va boshqalar tomonidan kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi – Toshkent, 2009 yil.
 8. Shaharsozlik jihatlarini alohida muvofiqlash tuzilishi lozim bo'lgan ob'ektlardan foydalanish va qurilishini amalga oshirish bo'yicha maxsus ko'rsatmalar.
 9. O'zbekiston respublikasida madaniy meros ob'ektlariga ega bo'lgan shahar va aholi punktlari hududlaridan foydalanish va qurilishni amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar tuzuvchilar: ruscha).Qo'shimcha va o'zgarishlar: ar.d.prof. Axmedov M.K., arx. N. dos. Balgayev A.B. va boshqalar tomonidan kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi – Toshkent, 2009 yil.
 10. Alohida tartibga solinadigan shaharsozlik ob'ektlaridan foydalanish va ularni qurilish bo'yicha maxsus qoidalar.
- Muhofaza qilinadigan tabiiy hududlardan foydalanish va ularning sathida qurilish ishlarini olib boorish bo'yicha ko'rsatmalar. Tuzuvchilar ruscha).Qo'shimcha va o'zgarishlar: Tuzuvchilar: ar.d.prof. Axmedov M.K., arx. N. dos. Balgayev A.B. va boshqalar tomonidan kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi – Toshkent, 2009 yil.
11. Shaharsozlik jihatlarini alohida muvofiqlashtirish lozim bo'lgan ob'ektlardan foydalanish va qurilish bo'yicha maxsus qoidalar.Tabiiy va texnogen favliqodda vaziyatlar ta'siri ostida bo'lgan hududlaridan foydalanish va qurilishni amalga oshirish

bo'yicha ko'rsatmalar. Tuzuvchilar: ar.d.prof. Axmedov M.K., arx. N. dos. Balgayev A.B. va boshqalar tomonidan kiritilgan. O'zbekiston Respublikasi Davlat arxitektura va qurilish qo'mitasi – Toshkent, 2009 yil.

II. Darslik va o'quv qo'llanmalar:

12. Shaharsozlik Tarixi. X. Po'latov. O'quv qo'llanma- Toshkent 2008 yil.
13. O'rta Osiy Me'morchiligi tarixi. M.Q. Ahmedov. Toshkent O'quv qo'llanma.- "O'zbekiston" 1995 yil.
14. Axmedov M.Q. Shaharlar estetikasi.- O'quv qo'llanma- Toshkent: TAQI, 2016 yil.
15. Isomuhammadiyeva D. U., Mirzayev M. K. Zamonaviy Shaharsozlik nazaryasi. - Toshkent TAQI, 2016 yil
16. Isomuhammadiyeva D. U., Mirzayev M. K. Zamonaviy shaharsozlik nazaryasi. Toshkent: TAQI. 2015 yil
17. Mirzayev M. K. tumanni rejalashtirish va hududiy joylashtirish .- Toshkent "Fan va texnologiya" 2014 yil.
18. Po'latov X Shaharsozlik tarixi. O'quv qo'llanma - Toshkent: "Fan texnologiya", 2008 yil.
19. Xolmatov A. T., Usmonov Q.T. Shahar hududini kompleks obodonlashtirish. O'quv qo'llanma. - Toshkent: TAQI, 2014 yil

III. Maxsus adabiyotlar:

20. Дресвянская Г.Я.К "районированию археологических памятников раннего средневековья".
21. Shahrizabz Ming yillar merosi. "Sharq" nashryot - matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahriryati Toshkent 2002 yil.
22. Архитектурны памятники Кашкадарьи. Л. Ю. Маньковская Ташкент Узбекистан 1979 йил.
23. Архитектура горных районов Узбекистана. Ташкент "Фан" Узбекской ССР 1984 йил.

24. Barlot.V.V.Kesh , soch T.III. M.,1965,C.460
25. Луконин В.Г Культура Сасанидского Ирана М.1969
26. Манковская Л.Ю. "Архитектурные памятники Кашкадарьи
27. Ratvelade E.E. Monete Kesha C.460.
28. Жуков В.Д Археоологическая разветка на Киндиклитепа
29. O'zbekistonda ananaviy bog' va bog'dorchilik san'ati kecha,bugun va kelajakda" xalqaroilmiy konfrensiya materialı.
30. Kaykovus “Qobusnoma” Toshkent 1973 yil.
31. Массон М Е ,Пугаченкова Шахрисабз
32. Шариф ад- Дин Али Йазди... Зафарнаме
- 33.Латипов Д.В. Проблемы развития градостроительства Республики Узбекистан в условиях формирования рыночных отношений. Архитектура и строительство Узбекистана, № 2-3, 2000.
34. Массон М. Е. Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке // Труды САГУ. Новая серия, вып. XLIX. Гуманитарные науке 6. Археология Средней Азии. П. Ташкент, 1953.
- 35.Манковская Л.Ю. Архитектурные памятники Кашкадарьи. Ташкент., 1971. С. 41.
- 36.Нозилов Д. А. Архитектура горных районов Узбекистана. Тошкент "Фан" 1984.
37. Кадырова Т.Ф. Архитектура Советского Узбекистана. Москва, Стройиздат, 1987.
38. Массон М. Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбека . Труды
39. Массон М.Е., Пугаченкова Г.А. Шахрисабз при Тимуре и Улугбеке // Труды САГУ.
40. Gazeta uz. 12 iyun 2018 yil .19: 03. Jamiyat.

41. Лунина С.Б. Города южного Согда в VIII-XII вв. Ташкент, Издательство "Фан" 1984.

IV. Elktron ta'lim resuruslari:

[www.edu. Uz](http://www.edu.Uz)

[www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)

[www. Nuuz. Uz.](http://www.Nuuz.Uz)

[www. Bimm.uz.](http://www.Bimm.uz)

V. Internet saytlari

[www. Google. ru](http://www.Google.ru)

[www. Ref. uz](http://www.Ref.uz)

[www. Students. ru](http://www.Students.ru)

[www. Ziyo. Net](http://www.Ziyo.Net)

[www. Vgik.info](http://www.Vgik.info)